

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**JAMIYAT RIVOJIDA FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI  
BOSHQARISH ORGANLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**TOSHKENT-2018**

## **MUALLIFLAR:**

R. H. Murtazaeva	O‘zMU “O‘zbekiston tarixi” kafedrası professorı, tarix fanları doktori
A.O‘.O‘tamurodov	O‘zMU “Demokratik davlat qurish nazariyasi va amaliyoti” kafedrası mudiri, falsafa fanları nomzodi, dotsent.
O. R.Musaev	O‘zMU “Demokratik davlat qurish nazariyasi va amaliyoti” kafedrası dotsenti, falsafa fanları doktori
D. M. Inoyatova	O‘zMU “O‘zbekiston tarixi” kafedrası dotsenti, tarix fanları nomzodi

## **TAQRIZCHILAR:**

G. M. Ismoilova	O‘zbekiston Respublikası Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyası professor vazifasini bajaruvchisi, huquqshunoslik fanları doktori.
A. A. Odilov	O‘zMU Tarix fakulteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrası dotsenti, tarix fanları nomzodi

---

O‘quv uslubiy qo‘llanma Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti o‘quv-uslubiy kengashning 2018 yil “\_\_\_\_\_” majlisida tasdiqlangan. (Bayonnoma № \_\_\_\_\_).

## KIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar, fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidagi demokratik o'zgarishlar, ma'naviy jabhadagi yangilanishlar bois O'zbekiston XXI asrga zamonaviy taraqqiyot yo'li bilan kirib keldi.

Bashariyat tamadduni o'choqlaridan biri bo'lmish yurtimiz hududi qadimdan nafaqat ilm-fan, madaniyat va ma'rifat maskani sifatida tanilgan bo'lib, balki o'z davlatchilik an'analari bilan ham ma'lum va mashhur bo'lgan.

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishni o'z oldiga bosh maqsad sifatida belgilab olgan mamlakatimizda mustaqillik davrida siyosiy soha, xususan boshqaruv sohasida ham keng qo'lamli islohotlar olib borilyapti. Natijada zamonaviy asnodagi demokratik davlat, fuqarolik jamiyati manfaatlariga mos davlat va mahalliy hokimiyat organlari yuzaga keldi, ularning huquqiy asoslari yaratildi. «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiya asosida ahamiyatga molik qator ishlar amalga oshirildi. 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining Qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni respublikamizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarish va modernizatsiyalash jarayonlarining qonuniy va mintaqaviy davomi sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalari taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda mahalliy o'z o'zini boshqaruv sohasida jahonda muqobili bo'lmagan mahalla tizimi mavjud bo'lib, u sovet davridagi ma'muriy tazyiqlarga qaramay o'z mohiyatini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan edi. Mazkur boshqaruv instituti istiqbol yillarida o'zining tom ma'nodagi darajasiga chiqdi. O'zbek xalqining turmush tarzi, hayotiy faoliyatida muhim o'rin tutgan mahalla – asrlar davomida hamjihatlik, mehr-oqibat, o'zaro yordam va hayrihohlik, bag'rikenglik g'oyalari o'zida mujassam qilgan maskan bo'lgan.

Hozirgi davrda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar va islohotlar natijasida, jahon sivilizatsiyasi talablariga mos keladigan hamda milliy ma'naviyatimiz an'alariga asoslangan, yangicha yashash tamoyillari ustuvorligini ta'minlash vazifalari hal qilinmoqda. SHu ma'noda mahalla - o'zbek xalqining ulkan boyligi bo'lib, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash, barkamol yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qilinmoqda. O'zbekistonda mahalla haqiqiy demokratiya va aholini ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash maktabiga aylandi. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov: “Biror jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay va mustahkamlamay, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi”, deb ta'kidlagan edi. Milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar alohida olingan xalq, millat va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratadigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, urf-odatlar, marosimlari, bayramlari va millatlarning o'zligini belgilaydigan

boshqa o'ziga xos tomonlari yig'indisidan iboratdir. Bu o'ziga xoslik moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, oilaviy hayot, turmush tarzida namoyon bo'ladi. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, haqiqatgo'ylik, mas'uliyatlilik, saxiylik, kamtarlik poklik kabi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar shular jumlasidandir. Ushbu noyob boshqaruv instituti tarixini, mavjud namunali mahallalar faoliyatini o'rganish, uning eng afzal jihatlarini targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalla o'zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy an'analari, urf-odatlarini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini avloddan-avlodga etkazuvchi maskan, ijtimoi birlashma bo'lib hisoblanadi.

Insonning shakllanishi, ijtimoiy munosabatlarni real borliq, zaruriyat sifatida anglab, o'zida ratsional xislatlarni tarbiyalashda mahalla instituti katta ahamiyat kasb etadi. Kishi o'z umrining asosiy qismini mahalla muhitida o'tkazadi, o'zidagi fazilatlarda esa o'sha muhitning ta'sirini ifoda etadi, chunki shaxsga xos tipologik belgilar mahalla institutining ta'siri tufayli yuzaga kelar.

Mahallalarda istiqomat qiluvchi fuqarolarning bir-birini qo'llab-quvvatlashi tufayli yurtimizda tinchlik, osoyishtalik, millatlararo hamkorlik mavjud. SHu orqali tarixiy-madaniy merosimiz e'zozlanmoqda, qadr topmoqda. Mahalla – asrlar davomida mazkur hududda istiqomat qiluvchi aholining ijtimoiy jihatdan jam etuvchi, ular orasida ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni singdirish va himoya qilish organi bo'lib kelgan. Fuqarolik jamiyatini barpo etish va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda mahalla – davlatga, jamiyatga eng yaqin institutdir. Mahalla milliy qadriyatlarni tiklash, o'zaro munosabatlarni mustahkamlash, axloqiy normalarni qaror toptirishda katta imkoniyatlarga ega. Jamoatchilik g'oyalari, xalq, elatlar manfaatlarini mahalla yaxshi biladi. SHu bois, jamiyatda barqarorlikni, totuvlikni, ijtimoiy adolatni ro'yobga chiqarishda mahallaning o'rni beqiyosdir. Ta'kidlash joizki, hozirgi kunga kelib mahalla ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashning eng ta'sirchan instituti bo'lib bormoqda.

SHu sababli, mustaqillik yillarida mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoevning 2017 yil 3 fevraldagi "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4944-sonli Farmonida zamonaviy talablar asosida bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishni hamda mahalla institutini takomillashtirish borasidagi kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Mazkur o'quv uslubi qo'llanma ham O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining mazmuni, mahalla faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatini oshirish, aholiga tarixiy tajriba va

zamonaviy bilimlarni etkazib berish hamda huquqiy ongi va madaniyatini kengaytirish borasidagi ko‘nikma va malakalarini oshirishga qaratilgan.

## **1-mavzu. O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT BARPO ETISHDA FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARINING O‘RNI**

### **Reja:**

1. O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tarixiy taraqqiyot boskichlari.
2. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda maxalla institutining rivojlanishi.
3. Ko‘p millatli O‘zbekiston mahallalari hamjihatlik va barqarorlik poydevori.

***Tayanch tushunchalar:** fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mahalla oqsoqoli, mahalla vazifalari, mahalla komissiyalari, o‘zbek mahallasi tarixi, mustaqillik va mahalla, mahallada millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik, ajdodlar merosida mahalla, qadimgi va o‘rta asrlar manbalari.*

## **1. O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tarixiy taraqqiyot boskichlari.**

Hozirgi O‘zbekiston hududida o‘zini o‘zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotlarning noyob shakli – mahalla azaldan mavjud bo‘lib, mahalla bevosita jamoatchilik tarixi, odamlarning jamoa bo‘lib, hamjihat bo‘lib, uyushib yashash tarixi bilan bog‘langan holda uzoq o‘tmishga ega.

Neolit davridan boshlab kishilarni o‘zaro jamoa bo‘lib yashay boshlaganliklarini arxeologik yodgorliklar ham tasdiqlaydi. Xorazmdagi “Jonbosqal’a – 4” deb nom olgan manzilgohdagi maydoni 300 kv.m. keluvchi turar joyda bir urug‘dan bo‘lgan 100-125 nafar kishi istiqomat qilgan. Eneolit davrida esa qurilish boshlangan ko‘p xonali uylar o‘z navbatida yon-atrofdagi shunday mavzelerga tutashib ketar edi. Bunday uylar katta patriarxal oilalarga tegishli bo‘lgan. Bronza davridan boshlab O‘rta Osiyoning Marg‘iyon va Baqtriya hududlarida ilk davlatchilik an‘analari yuzaga kela boshladi. Bunda avvalo yuqorida ta’kidlangan katta patriarxal oila va uning rahbar-oqsoqollari katta rol o‘ynay boshladilar. Zardo‘shiylikning muqaddas kitobi bo‘lmish “Avesto”da katta patriarxal oila – “nmana”, uning rahbarlari “nmanapati”lar to‘g‘risida tegishli ma’lumotlar uchraydi. Bu esa o‘z navbatida er.av. IX-VIII asrlardan ma’lum hududlarda o‘z o‘zini boshqaruv organlari to‘laqonli ravishda yuzaga kelganligini ta’kidlaydi. Er.av.VII-VI asrlarda Parfiya, Marg‘iyona, Baqtriya va Sug‘dda ma’muriy bo‘linishni ko‘rish mumkin. Hududlar ma’lum tumanlarga, tumanlar manzilgohlarga bo‘lingan. Manzilgohlar esa o‘z navbatida oqsoqollar yoki oqsoqollar kengashi tomonidan boshqarilgan. Bu holat qadimgi davridayoq mamlakatimizda o‘z o‘zini boshqaruv organlari yuzaga kelganidan darak beradi.

“Avesto”dagi ma’lumotlarga ko‘ra katta oila urug‘ jamoasiga birlashgan bo‘lib, urug‘ oqsoqolini “vispati” deb nomlashgan.

Xorazm hududidagi Ko‘zaliqir va Xazoraspda olib borilgan tadqiqotlarda 20ta xonadon istiqomat qiladigan maydoni 800 kv.m hajmdagi turar joy majmui topilgan. Ilk o‘rta asrlarda mavjud qator shahar va qo‘rg‘onlarda aholi zich yashaydigan mavze – kvartallar mavjud bo‘lgan. Masalan, poytaxtimiz Toshkentning Mingo‘rik manzilgohida bir mavzeda deyarli 50-100 nafar oila istiqomat qilganligini ko‘rish mumkin.

Mana shunday mavzelar o‘zlarida ilk mahallalar tizimini jamlagan edi. Arab xalifaligi istilosidan so‘ng mavzelar yangi nom bilan – “mahalla” deb nomlana boshlandi. “Mahalla” arabcha so‘z bo‘lib, “to‘xtash joyi”, “shahar mavzesi”, “o‘tish bekati” degan ma’nolarni bildiradi. Tarixchi Narshaxiy o‘zining “Tarixi Buxoro” asarida X asr Buxoro shahri hayotiga to‘xtalib, bu erda hunarmandchilik sohalariga ko‘ra mahallalar mavjud bo‘lganligini ta’kidlaydi. Masalan, Kavushdo‘zlar mahallasi, temirchilar mahallasi va hokazo.

XI asrda yashagan sayyoh va shoir Nosir Xisrav o‘zining “Safarnoma” asarida 1043-1052 yillarda amalga oshirgan haj safarida Qohirada bo‘lganini, shahar 10 ta mahalladan tashkil topganligini ta’kidlaydi. O‘rta asr shahri – odatda 4 ta qismdan tashkil topgan edi. Bular: ark (qal’a), shahriston, rabot, raboti baland.

SHahriston shahar ichidagi aholi istiqomat qiladigan asosiy joy hisoblangan. Odatda mahalla markazi bu davrda masjid bo'lib, u ham jamoat markazi, ham madaniy-ma'rifiy markaz rolini o'tgan. Avval boshida har bir mahallada 100 tagacha xonadon istiqomat qilgan. Mahalla jamoatchilik asosidagi rahbari – oqsoqol bo'lib, u turli davrlarda turlicha nom ham olgan. X asrda shahar boshqaruvchilari – rais deb yuritilib, keyingi davrda ham bu atama deyarli saqlanib qolingan.

X asrda yashab o'tgan arab sayyoh olimi Ibn Havqal Samarqand shahri xususida quyidagilarni yozgan edi: “So'g'd poytaxti Samarqand So'g'd daryosidan janubda va undan balandda joylashgan shahar. U qal'a, shahriston va raboddan iborat. Qaysi tomonga qaramang, ko'zlarni quvontiruvchi biron go'zallikni ko'rasiz. Maydonlar va shahar ko'rkiga ko'rk qo'shgan binolar alohida ajralib turadi...Samarqandda yirik-yirik bozorlar, katta shaharlarga xos bo'lgan qator-qator mahallalar, hammomlar, karvonsaroylar, uylar bor...”. Demak, ta'kidlash mumkinki, X asrdayoq SHarqdagi katta shaharlarda nufuzli mahallalar mavjud bo'lgan.

Xuddi shu o'rinda buyuk sharq olimi Forobiy merosining katta ahamiyatga molik ekanligini qayd qilish lozim. Abu Nasr Forobiy “Fozil shahar aholisining fikrlari” asarida ham har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi, deb ta'kidlaydi. CHunonchi, Forobiy davlat boshqaruvining monarxiya, aristokratiya, diktatura singari shakllarini misol tariqasida keltirar ekan, ular qatorida demokratiya, ya'ni xalq hokimiyatchiligini alohida ko'rsatib o'tadi hamda shuni ishonch bilan ta'kidlaydiki, demokratiya sharoitida “tom ma'noda boshliq ham, bo'ysunuvchi ham bo'lmaydi”. Bunday davlatda “yashovchilar bir – biriga – insonning haqiqiy turmushi bilan, uning mavjudligi, iste'moli va hayotining saqlanishi bilan bog'liq bo'lgan eng yuksak narsalarga erishishda yordam beradilar”.

Taniqli olim K. SHoniyozovning ta'kidlashicha, IX –X asrlarda “Farg'ona vodiysida ham qishloqlarning ko'pi Axsikent, Bisket, Selat, Miyonirud va boshqa mavzularda joylashgan. Faqat Axsibara mavzesida 60 ta qishloq mavjud bo'lgan. Qishloqlarning ayrimlari juda katta va ko'p nufuzli bo'lgan. Farg'ona vodiysida qishloqlarning bu qadar ko'pligi va kattaligidan hayratda qolgan arab geograflari “qishloqlarning ko'pligi jihatidan Movarounnaxrda Farg'onaga teng keladigani yo'q”, aholisining ko'pligidan qishloqlarning ba'zilar juda katta, uni o'tish uchun bir kun yo'l yurish kerak bo'ladi”, deya ta'kidlaganlar.

Amir Temur va Temuriylar davrida shahar madaniyati yanada rivoj topdi hamda u bilan birgalikda mahalla tizimi ham taraqqiy etdi. Amir Temur ayniqsa poytaxt Samarqand shahri rivojiga katta ahamiyat bilan qaragan. SHaharda 6 ta Ohanin, SHayxzoda, CHorsu, Korizgoh, So'zangaron, Feruza darvozalariga esa bo'lib, ularga ketuvchi ko'chalar bo'ylab turli hunarmandchilik sohalari bilan shug'ullanuvchi mahallalar joylashgan edi. Buni quyidagi misolarda ham ko'rish

mumkin bo‘ladi, masalan Kulolon mahallasida – kulollar, Zargaron mahallasida – zargarlar, So‘zangaron mahallasida – ignachilar, CHarmgaron mahallasida – charm-ko‘n bilan shug‘ullanuvchi aholi istiqomat qilganlar. Ispan elchisi Klavixo bu mahallalarning joylashuvi, uy-joylarning batartib qurilganligi haqida ham so‘z yuritgan edi.

Amir Temur barpo etgan markazlashgan davlatda ham temirchilar, qurolsozlar, tikuvchilar, charmdo‘zlar, gilamdo‘zlar, kulollar, quruvchilar va boshqa hunarmandlar bir joyda mehnat qilib, hayot kechirganlar. Bu haqda Amir Temur “Tuzuklari”da yozilishicha, Sohibqiron Amir Temur o‘zi barpo etgan qudratli saltanatni boshqarishda mahalla mutasaddi shaxslariga tayangan, ular bilan yaqin muloqotda, doimiy mashvaratda, maslahatda bo‘lgan, kezi kelganda ularning faoliyatini bevosita qo‘llab-quvvatlagan. Asarda, jumladan, shunday deyiladi: “Har bir o‘lka va shahar aholisining ashrof – ulug‘larini va buzurglari bilan oshna tutindim. Ularning mijozlariga tabiatiga to‘g‘ri kelgan, o‘zlari tilagan odamlarini ularga hokim qilib tayinladim” ham “har el va har millatning ulug‘larini, boshliq oqsoqollarini qadrladim, ularga sovg‘a – salomlar berib xizmatlaridan foydalandim,” deya keltiradi. Bu esa mahallaning davlatning tayanchi ekanligini bildiradi.

Amir Temur davrigacha mavjud “shahriston” atamasi odatda ichki va tashqi shahar (shahri darun va shahri birun)ga ajratilar edi. Endi esa bu ikkala shahar qismi ham birlashtirilib, u yangi “hisor” nomi bilan atala boshlandi.

SHahar markazi – Registon maydonidan nur shaklida tarqalib, bu darvozalarga cho‘zilgan asosiy ko‘chalar o‘qday to‘g‘ri bo‘lmay, burilishlari ko‘p, gohida yirik mahallalarning tarixan vujudga kelgan ko‘chalari bilan tutashib ketar edi. SHaharning turar joy birligi mahalla bo‘lib, bir qancha mahalla guzarga birlashgan. Mahallalar reja asosida emas, balki asrlar mobaynida tabaqaga, ishlab chiqarish turiga, jamoa turmush jihatlariga qarab shakllangan.

Abdurazzoq Samarqandiy SHohrux Mirzo hukmronligi davrida shaharlar taraqqiyoti, xususan poytaxt Hirotni “g‘oyat obod va ma‘mur” bo‘lganligini ta’kidlagan edi. Aynan shu muallif xitoylik elchilar tashrifi vaqtida mahallalarga zeb berilishi haqidagi sulton farmonini ham eslatib o‘tadi.

Buyuk alloma Alisher Navoiy ham mahallalar haqida iliq so‘zlar, aniq – ravshan tasavvurlar qoldirgan. Navoiy yashagan mahalla misolida kishilar o‘rtasida birodarlik, mehr–oqibat, ustoz va shogirdlik kabi insoniy fazilatlar naqadar yuksak bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Alisher Navoiy mahalladoshlar o‘rtasida hurmat, tenglik mavjud bo‘lganligini, shohu gadoning bir–biriga munosabatida g‘amxo‘rlik qadrlanganligini yozadi. Navoiy mahallani obod, ozoda tutishda hasharlar uyushtirishni yo‘lga qo‘ygan. Odatda qish faslida qor kurash uchun qori, xodim, farrosh, oshxona xizmatchilari jalb etilgan. Ariqlar tozalanganda qum va ballchiqlar ariq bo‘yiga yig‘ib qo‘yilgan. Mutavalli (boshqaruvchi) esa kishilarni uyushtirib, to‘plangan axlatlarni chiqarib tashlagan. Navoiy fikriga ko‘ra, “podshox ba‘zan marhamatli, ba‘za esa qattiqqo‘l bo‘lishi kerak, bu do‘stni dushmandan ajratishda qo‘l keladi, shuningdek, u tajribali va idrokli bo‘lishi ham zarurdir”.



Soʻnggi oʻrta asrlarda shahar ichki tuzilishi qismlarga boʻlina boshlagan. Odatda ularni turlicha atamalar bilan – daha, qitʼa, yurt va boshqacha soʻzlar bilan nomlangan. Masalan, Samarqand va Toshkent – toʻrt qismga, SHahrisabz – ikki qismga boʻlingan va hokazo. Ular oʻz navbatida kichik maʼmuriy qism – mavze va mahallalarga boʻlingan. Buxoroda mahalla bilan bir qatorda “koʻy”, “guzar” soʻzlari ham ishlatilgan. Masalan, Qoʻyi Honaqoh, Qoʻyi Markush, Qoʻyi daraxt va boshqalar. SHu bilan bir qatorda “mahalla” soʻzi ham qoʻllanilgan. Masalan, Juhud mahalla, Tatar mahalla, Afshar mahalla va hokazo. XVII asrdan boshlab shahar mavzelari (kvartallari) Buxoro, Samarqand, Urgut, Jizzax, SHahrisabz, Qarshi, Kitobda “guzar” atamasi bilan atala boshlandi. Qoʻqon xonligida esa daha va mahalla atamasi keng tarqalgan.

Qoʻqon shahrining oʻzi 4 ta daha: Xoʻjand, Sarimozor, Margʻilon, Qatagʻonlarga boʻlingan edi. Ular esa oʻz navbatida mahallalarga boʻlingan. XVIII asr oxirlariga, aniqrogʻi 1784 yilga kelib Toshkent shahri YUnusxoʻja rahbarligida alohida boshqaruvga ega hududga aylandi. SHaharda mavjud 4 ta deyarli mustahkam dahalar – Koʻkcha, Beshyogʻoch, SHayhontohur, Sebzor yagona hokimlik qoʻli ostiga birlashdi. XVIII asr oxirlari – XIX asr boshlarida shaharda 80 000 dan ziyod aholi yashab, Oʻrta Osiyodagi eng katta shahar maqomiga daʼvo qila boshlagan edi.

Muhammad Solih Toshkandiyning maʼlumotiga koʻra shaharning 12 ta darvozasi boʻlgan. Bular quyidagilardir: Qashqar, Labzak, Beshyogʻoch, Kamolon, Samarqand, Koʻkcha, CHigʻatoy, Sagʻbon, Qorasaroy, Taxtapul, Qoʻqon va Quymas. Toshkent mahallalarini oʻrgangan rus tadqiqotchisi N.G.Malitskiy shaharda koʻplab koʻchalar mavjudligini, koʻchalar tutashgan joy “chahor” deb nomlanganligini qayd etadi. Mahallalar tutashgan joy esa odatda “guzar” deyilgan. Bu erda mahalliy aholiga xizmat koʻrsatadigan kichik bozorcha ham boʻlgan. Har bir mahallada oʻzining masjidi, hovuzi ham boʻlgan. Mahallalar odatda tarixiy, tarixiy-etnografik, tegishli joy xususiyati yoki aholi shugʻullanadigan hunarmandchilik nomlari bilan atalgan.

Masalan, Jarkoʻcha, Zargarlik, Pichoqchilik, Oqtepa, Qoʻshtut, Qoratosh, Egarchi, Oʻqchi, Qishloqtepa va hokazo. Degrez mahallasida odatda – choʻyanchilar, egarchi mahallasida – egar-jabduq yasaydiganlar, zargarlik mahallasida – zargarlar yashaganlar va hokazo. XIX asr oʻrtalarida Toshkentda taxminan 200 taga yaqin mahalla mavjud boʻlib, unda 370 ta masjid, 14 ta madrasa, 11 ta hammom va bir necha oʻnlab maktablar boʻlgan. XIX asr ikkinchi yarmiga kelib mahalla markazi boʻlmish masjid yoniga – choyxonalar ham qoʻshildi. XX asr boshlaridagi maʼlumotlarga koʻra esa SHayhontohur dahasida – 75 ta, Sebzorda – 80 ta, Koʻkcha dahasida – 59 ta, Beshyogʻochda – 75 ta mahallalar mavjud boʻlgan.

Mahallardagi turar joylar mahalliy iqlim, shart-sharoit, seysmologik holat hisobga olingan holda qurilgan. 1833-1834 yillarda Buxoroda “Mirza Jaʼfar” degan mulla nomi ostida boʻlgan rus ofitseri P.I.Demezoning maʼlumotiga koʻra shaharda 366 ta mahalla boʻlganligi qayd etiladi. Ularning har biri qoshida kichik masjid boʻlgan. Demezoning mahalla oqsoqollarining hurmati baland boʻlganligini

ham ta'kidlab o'tadi. SHuningdek, shaharda yahudiylar istiqomat qiladigan mahalla, shia musulmonlari mahallalari ham mavjud bo'lgan.

XX asr boshlariga kelib Samarqandda 103 ta mahalla va shuncha masjid bo'lgan. Ular aksariyat Siyob tumani hududida joylashgan edi. Mahallalarning o'ziga xos an'analari, shunga yarasha nufuzi ham bo'lgan. Masalan, Samarqanddagi "Puli safed" mahallasida katta bozor, masjid bo'lib, u o'zining madaniyatli arboblari bilan mashhur bo'lgan.

Har bir mahallaning o'ziga xos an'analari bilan bir qatorda o'zbek mahallasiga xos azaliy, umumiy qadriyatlar ham mavjud bo'lganligini alohida ta'kidlash joiz. Qadimdan oq mahalla kishilar boshini birlashtiradigan, aholini hamjihatlik va ahillikda yashashga da'vat qiluvchi maskan bo'lgan. Mahallalarda erta tongdan turib hovli va yon-atrof ko'chalar supirilib – sidirilgan, ariqlar tozalangan. Uy-joy oldi saranjonligidan uy egasi fahm – farosatligi bilingan. Odatda har bir hovlidan oqib o'tuvchi ariqdagi suv tozaligiga alohida e'tibor berilgan. Har turli chiqindilar uchun odatda turli o'ralar qazilgan. Beva-bechora, etim-esirlarga alohida hurmat ko'rsatilgan. Ko'p holda ularning uy-joylari hashar yo'li bilan qurib berilgan, ko'pchilik bilan to'y-hashamlari o'tkazib berilgan.

Mahallada hamma vaqt jamoa haqqini, qo'ni-qo'shnilar haqqini ado etishga katta ahamiyat berilgan. To'y-hasham, turli aza-ma'rakalar hamjihatlik bilan o'tib, ularni o'tkazishdan avval mahalla oqsoqollari, nufuzli kishilar, qo'ni-qo'shnilar ishtirokida "maslahat osh"lari o'tkazilar edi. Mahallalardagi hasharlar natijasida yo'llar tozalanar, ariqlar qazilar, ko'priklar qurilar, devorlar tiklangan va hokazo. Turli xalq yig'inlari, sanalar, masalan Navro'z, Hayit bayramlari keng nishonlangan. Qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi yaxshi munosabatlariga juda katta ahamiyat berilgan. "Qo'shning tinch – sen tinch", "Bir bolaga – etti qo'shni ota-ona", "Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shning yaxshi" degan maqollar aynan yuqoridagi masala mohiyatini o'zida to'liq aks ettirgan.

Mahalla ta'lim-tarbiya maskani ham bo'lganki, unda o'zaro-janjal to'polon, farzand tarbiyasidagi salbiy ko'rinishlarga yo'l qo'yilmagan. Mahalla a'zolari uchun o'z oilasida noxush holatning yuzaga kelishi katta isnod, oila nomiga bosilgan dog' deya ta'riflangan. SHu bois ham har bir mahalla a'zosi avvalo bir ish qilishdan avval "mahallada nima deyishar ekan", degan istiholaga borganlar.

Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylantirilgan davrda o'lka boshqaruvi zo'ravonlikka asoslanganligini va u doimiy usul sifatida saqlanib kelganligini ko'ramiz. Rossiya imperiyasi hukumati Turkiston xalqlarining "hoxish – irodasi va roziligiga qarab qolmasligi"ni hamda "bu o'lkada to'la erkin bo'lishi zarurligi"ni hamisha alohida uqtirib kelgan. SHu asosda Turkiston general-gubernatorlik boshqaruv tizimini tuzgan. SHahar, qishloq boshqaruvi tizimida tuman boshlig'i tasarrufida uchastka (bo'lim) pristavi bo'lib, unga mahalla oqsoqollari, ellikboshi, o'nboshilar bo'ysundirilgan. SHunday qilib, Turkiston general-gubernatori o'z qo'lida harbiy va fuqaro hokimiyatini birlashtirib, jilovni mahkam ushlab turgan. Mahalliy boshqaruv tizimi rus ma'muriyati qo'lida bo'lgan. Rus ma'muriyatining aholiga "o'zini o'zi boshqarish" va "saylov huquqini berishi" g'irt lo'ttibozlikdan iborat bo'lib, aslida ishning tizgina uning qo'lida qolgan.

Mustamlakachilar mahalliy boshqaruv idoralariga mas'ul shaxslar tanlanishida nihoyat hushyor ish tutib, ilg'or, taraqqiyparvar, millatparvar kishilar volast, hatto mahalla boshqaruvchisi, oqsoqol, yuzboshi, ellik-boshi yoki qozi sifatida saylanib qolsa, ularni lavozimiga tasdiqlamaslik uchun turli hiylalar ishlatganlar. Tarixiy manbalar Rossiya imperiyasi o'lkamizda o'zbek davlatchiligining barcha ko'rinishlarini tag-tugi bilan yo'qotish va mustamlaka idora uslubini qat'iy joriy etish bo'yicha izchil ish olib borilganligini to'la tasdiqlaydi.

SHuni ham taqidlash joizki, vaqt o'tgan sari mahallalarning nomi ham o'zgarib borgan. Masalan, 1865 yilda Toshkentda 140 ming kishi yashagan bo'lib, XIX asrning oxiriga kelib, savdo-sotiq, ishlab chiqarish rivojlanishi tufayli mahallalar soni 200 taga etgan. XX asr boshlarida 260 ta mahalla bo'lgan. 2000 yillarga kelib respublikada 445 tadan ziyod mahalla mavjud bo'lgan. Mahallalar katta-kichikligi, aholining soni jihatidan farqlangan. Mahallalar asosan yuzdan to to'rt yuztagacha va hatto undan ham ko'p xonadondan iborat bo'lgan. Har bir mahalla obodonlashtirilgan va o'z ichiga masjid, maktab, choyxona, do'konlar, kosibchilik ustaxonalarini olgan hududiy markazi mavjud bo'lgan. Guzarlar katta ko'chalarda yoki ko'chalar tutashgan gavjum ko'chalarda joylashgan. Umuman olganda, mahalla aholisi o'zi yashayotgan joyning tabiati va xususiyatiga qarab, ko'proq hunarmandchilik, savdo-sotiq yoki qishloq xo'jalik ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Bosh tarixiy an'analarga ega bo'lgan yirik mahallalar sifatida Oqtepa, Oqmachit, Balandmachit, Devonbegi, Ko'kcha, Olmazor, Isfara guzari, Oltintepa, Achaobod, Samarqand Darvoza, Kamolon, CHuqur ko'prik, O'qchi, O'zbek va boshqa mahallalarni keltirish mumkin.

Sobiq sovet davlati hukmronligi yillarida boshqaruvning ushbu xalqchil, eng ta'sirli, eng samarali tizimini-mahallani zo'rama-zo'raki tugatishga qaratildi. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, davlat organlarining juda katta hamda munosabatlarning ko'p darajaliligiga asoslangan, malakali xodimlarning keng miqyosdagi shtatini o'z ichiga oluvchi tarmog'ini yaratdi. Masalan, tarkibida 15 ta "ittifoqdosh" respublika bo'lgan, jami 270 milliondan ortiq aholi istiqomat qilgan ulkan mamlakatda davlat boshqaruvidagi ma'muriy-buyruqbozlik usullari mustahkamlanib, har bir masalani byurokratik usul bilan hal etish ko'lami keng tarqalgan edi. Holbuki, faqat kadrlarning mafkuraviy-siyosiy saviyasini oshirish hech narsani hal etmasada, bir-birini takrorlaydigan turli xildagi ma'muriy muassasa va tashkilotlarning ko'pligi, mazkur idoralarda kompartiya va sovet organlari uchun maxsus tayyorlangan rahbarlarni ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni echishda markaz ko'rsatmalaridan nariga o'ta olmasligi, ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligiga o'zgarish va yangiliklar olib kirish kabi masalalarni tez va odilona hal qilishga imkon bermas edi. SHu yo'l bilan madaniyat va ma'rifat o'chog'i bo'lmish mahallaning o'rni va ta'siri kamaytirildi. 1932 yil 17 aprelda O'zbekiston Respublikasida birinchi marta O'zbekiston shaharlaridagi mahalla ko'mitalari to'g'risida Nizom chiqdi. Oradan 32 yil o'tgach, 1961 yil 30 avgustda O'zbekiston SSR Oliy Soveti respublika, shahar, qishloq, posyolkalar va ovullardagi mahalla qo'mitalari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlagan. Lekin, mazkur ikkita Nizomda ham mahallalarga yuridik huquq berilmadi. Aksincha, mahallalar nomlari ham sovet mafkurasiga moslashtirildi, ko'pgina mahallalar birlashtirildi.

Ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, 1934 yilga oid hujjatlarda faqat 111 ta mahalla nomi qayd etilgan edi, xolos.

Sovetlar tuzumi Turkistondagi boshqaruv tizimini shakllantirgan vaqtdanoq katta byurokratik apparatni shakllanishiga zamin yaratgan edi. Umuman, XX asr birinchi choragida mavjud mahalla nomlari tarkibida kasb – hunar va aholining ijtimoiy guruhlari bilan bog'liq toponimlar (Etikdo'z, Degrez, Egarchi), tabiiy – geografiya ob'ekt bilan bog'liq (Kattahovuz), Olmazor, relief nomi bilan bog'liq toponimlar (Oqtepa, Qo'rg'ontepa) aksariyat qismini tashkil qilib, shahar darvozalari nomlari aks etgan (Samarqand darvoza, Taxtapul), mahalladagi yirik ob'ekt nomi bilan atalgan (Gulbozor, Eskijo'va), etnik guruh nomi bilan bog'liq nomlar (Gulbozor, Eskijo'va) keyingi o'rinni egallab, taniqli shaxslar (Zangiota) va ma'lum tarixiy voqealar bilan bog'liq (Janggoh) toponimlar kam miqdorda uchragan bo'lsa, sovetlar hukmronligining dastlabki yigirma yillik davrida, ya'ni 1930 yillar oxirida, mahalla nomlari tarkibida quyidagi o'zgarishlar ro'y bergan. SHaxs nomlari bilan atalgan mahalla nomlari salmog'i oshgan, shuningdek, yangi guruh-madaniy hayotga taalluqli nomlar paydo bo'lgan, tabiiy-geografik ob'ektlar va rel'ef bilan bog'liq toponimlar soni kamaygan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tabiatiga mos huquqiy davlat talablariga mos keladigan mahalliy vakillik organlari tizimini yaratish hali O'zbekiston ittifoq tarkibida ekanligi vaqtidayoq boshlangan edi. 1989 yil 20 oktyabrda qabul qilingan "O'zbekiston SSR xalq deputatlari mahalliy Sovetlari deputatlari saylovi haqida"gi qonun va u asosda o'tkazilgan saylov natijasida xalq deputatlari mahalliy sovetlarning tashkil bo'lganligi bu borada qilingan dastlab kishlar edi. Qonunda ayrim masalalar O'zbekiston tomonidan ixtiyoriy ravishda belgilandi. 1990 yil 18 fevralda O'zbekistonda mazkur qonun bo'yicha mahalliy sovetlarga saylov bo'lib o'tdi.

Mahallaning asosiy vazifalari: marosimlarni birgalikda o'tkazish, o'z hududini batartib saqlash va obodonlashtirish, yosh avlodni ijtimoiy ruhda tarbiyalash, jamiyat hayotida tartib saqlanishini ta'minlash, barcha an'anaviy me'yorlarning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish, urf-odatlariga rioya qilish va ularni buzgan, jamoat maj-buriyatlaridan bo'yin tovlaganlarni jazolashdan iborat bo'lgan. Mahalla rahbariyati ariq-hovuzlarni tozalash, ko'chalar, yo'llar qurish va Mahalla. obodonchiligi bilan bog'liq boshqa jamoat ishlarini uyushtirganlar. Bu ishlarning barchasi birgalikda hashar yo'li bilan amalga oshirilgan.

Mahalla jamiyatimizning tuzilmasi sifatida tarixan bir qancha rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi. U 20-asrning 1-choragida o'zining an'anaviy shaklini oldi.

Sovet hukumati Mahallaga o'z umrini yashab bo'lgan o'tmish sarqiti sifatida qaradi. SHundan kelib chiqib, u an'anaviy milliy boshqaruvlarni bekor qilish yo'li bilan bu erda sanoatlashgan "ilg'or" jamiyatni qaror toptirish siyosatini joriy etishga kirishdi. 20-yillar boshlaridan sovet hukumati Mahallalar vazifasini cheklash, o'ziga bo'ysundirishga intildi, bu hol Mahalla faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Biroq Mahalla o'zining yashovchanligini namoyon etib, an'anaviy xayot va aloqa tarziga qarshi har qanday hujumlarga va ularni yo'qotish yo'lidagi

urinishlarga dosh berdi. U ilgari hayot tarzi, urf-odat va rasmlarini saqlab qoldi.

20—30-yillarda Mahalla eski turmushga qarshi "hujum"da — paranni tashlash va xotinqizlarni ozodlikka chiqarish harakatida ishtirok etdi. SHu bilan birga Mahalla savodsizlikni tugatish, ommani ma'rifatli qilish, joylarni obodonlashtirish (yo'l, choyxona, maktablar qurilishi)da muhim ahamiyat kasb etdi.

1932 yil 17 aprelda O'zbekistonda birinchi marotaba shaharlardagi Mahalla qo'mitalari to'g'risida Nizom chikdi. 1935-1936 yillarda Mahallalarda oqsoqol boshchiligida Mahalla qo'mitalari tashkil etilib, aholi o'rtasida olib boriladigan barcha ishlarni rais boshqargan.

2-jahon urushi davrida Mahalla baynalmilalchilik tabiatini namoyon etdi. Urush davrida Mahalla qo'mitalari armiyaga chaqiruvni tashkil etish, aholidan posilka jo'natish, ko'chirib keltirilgan aholini, bolalarni joylashtirishda faol ishtirok etdi.

1961 yil avgustda O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan chiqarilgan "Respublika shahar, qishloq, posyolkalaridagi va ovullaridagi Mahalla qo'mitalari to'g'risida"gi Nizomda ham Mahallaga yuridik shaxs maqomi berilmagan edi. "Mahalla qo'mitalari bironbir moliyaviy xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas, ular oldisotdi, ijaraga berish ishlarini bajarishda qatnashishlari mumkin emas" edi. Mahallaning huquq va vakolatlari cheklangan edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Mahallalarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. O'zR Konstitutsiyasining 105 moddasiga va 1993 yil sentabrda qabul qilingan "Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunga binoan, Mahallalar o'z huquqiy maqomiga ega bo'lib, mahalliy hokimiyat tarkibiga kirdi. Mahallalar davlatning joylardagi muhim tayanchi, yuridik shaxs sifatida o'z molmulkiga, moliyaviy byudjetiga, bankdagi hisobkitob raqamiga — jamg'armasiga egadir. Bu qonunga asosan, har bir Mahalla o'z hududida ishlab chiqarishni tashkil etishi, kichik korxonalar ochishi, o'zi ishlab chiqargan mahsulotni sotishi, uning bir qismini Mahalladagi ehtiyojmandlarga bepul tarqatishi, o'z hududidagi aholini ish bilan ta'minlashi, aholiga madaniymaishiy xizmat ko'rsatishi mumkin.

Hozirgi paytda Mahallalarning bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida, o'z faoliyatlarini tashkil etishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Ular, to'y-ma'raka marosimlarini o'tkazish, hasharlar uyushtirish, oilaviy nizolarni bartaraf etish, bemorlar holidan xabar olish ishlari bilan shug'ullanadi. Ko'pchilik Mahallalarning o'z masjidida bor, turli ma'rakalar uchun kerakli ashyolar (doshqozon, idishtovoq, choynak-piyola, tobut va boshqalar) mavjud. 90-yillarda Mahalla hokimiyatning rasman quyi yuridik organiga aylandi. Mahalla vazifalari ancha kengaydi, u demokratik davlatning eng muhim bo'g'inlaridan biri.

Mahalla va uning aholisining ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham madaniy yuksalishiga har tomonlama yordam berish, milliy an'ana va urf-odatlarini boyitish, Mahalla qo'mitalari ishlarini muvofiklashtirish, Mahallalardagi kam ta'minlangan

oilalar, keksalar, faxriylar, nogironlar, ko'p bolali oilalar, etim-esirlar, baynalmilalchilar manfa-atlarini har tomonlama himoya qilish maqsadida 1993 yil 17 avgustda O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamg'armasi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov Mahallaning hozirgi zamon jamiyatidagi mohiyati va ahamiyatiga quyidagicha baho beradi: "O'z-o'zini boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga juda xos bo'lgan usuli — mahallalar tizimi so'nggi yillarda juda katta nufuzga ega bo'lib bormoqda. Ular amalda o'z huquqlaridagi barcha ishlar uchun mas'uldirlar. Zero, mahallaning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q. Uning nufuzini ko'tarish, bilingki, nafaqat iqtisodiy, nafaqat ijtimoiy, balki bu siyosiy, tarbiyaviy, ulkan ma'naviy masaladir. Biz mahallalarga shu nuqtai nazardan qarashimiz lozim".

Har bir mahalla aniq tashkiliy tuzilmaga ega. Unga mahallaning umumiy yig'ilishida saylanadigan mahalla kengashi rahbarlik qiladi. Kengash o'z tarkibidan rasman mahalla yig'ini raisi (oqsoqol)ni, o'rinbosari va kotibini saylaydi. Bundan tashqari, mahalla kengashiga keksa, tajribali kishilardan mahalla oqsoqoli maslahatchilari ham saylanadi. Kengash huzurida to'y marosimlarini o'tkazish, xotinqizlar, yoshlar, urush va mehnat faxriylari bilan ish olib boruvchi, jamoat tartibini saqlash, obodonlashtirish, turar joy fondlarini saqlash va h.k. bo'yicha komissiyalar tuziladi.

Mahalla rahbariyati 2,5 yilga saylanadi va har yili aholi oldida hisobot beradi. Joriy masalalarni hal etish uchun mahalla kengashi oyda bir marta yig'iladi. Endilikda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, belgilangan namunadagi muhrga ega hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro'yxatga olinadi.

1998 yil 23 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash haqida"gi farmoniga ko'ra, Mahalla rahbariyatining (rais, kotib) faolligini oshirish, ijtimoiy muhofaza qilish va qo'llabquvvatlash maqsadida ularning ish haqi oshirildi, pensioner raislarga pensiyani to'liq olishlariga ijozat berildi. Natijada Mahalla rahbariyatining manfaatdorligi va nufuzi ortdi.

Fuqarolik jamiyatini qurish, albatta, kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o'tish orqali ro'y beradi. 1999 yil 14 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari haqida"gi (yangi tahrirda) qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida tub burilish yasadi. Yangi tahrirdagi qonunning 7 moddasiga asosan, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tarkibiga kirmaydi deb to'g'ridan-to'g'ri belgilab qo'yildi. Bu qonunda Mahalla bajarishi zarur bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Mahallaga yuqorida sanab o'tilgan vazifalardan tashqari, yangi vazifalar yuklatilgan. U o'z hududida savdo va maishiy xizmatni, sanitariya va ekologik holatni nazorat qilishga ko'maklashadi, yong'in xavfsizligi, turar joy fondini saklash, aholidan soliq va majburiy to'lovlarning o'z vaqtida to'shishini ta'minlashga yordam beradi. Ana shu pul mablag'lari tushumining muayyan miqdori o'z-o'zini boshqarish organlari

jamg'armasiga o'tkaziladi. Bu mablag' kam ta'minlangan oilalarning uy-joy, kommunal xizmatlari to'lovlariga, shuningdek, Mahallani obodonlashtirishga sarflanadi. Endilikda, har bir Mahalla o'z madaniy markazini, guzarini qurib, shu erda choyxona, novvoyxona, do'kon, maishiy xizmat shoxobchalari, turli sport o'yinlari maskanini barpo etmoqda. Mahalla qo'mitasi tashabbuskor jamoat tashkilotidir. Mahallada xo'jalik madaniy qurilish tadbirlarini amalga oshirish, uning hududini obodonlashtirish, uy-joylarni va hududdagi shahar xo'jaligini saqlash, ozodalikni ta'min etish, tartibqoidani mustahkamlash va h.k. uchun sharoit mavjud. Mahallalarning ahamiyati mustaqillik sharoitida kun sayin o'sib bormoqda. Ular mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'min etishda, omma kuch-g'ayratini bunyodkorlikka yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda 2016 yilning may-iyun oylarida fuqarolar yig'inlari raislari va ularning maslahatchilari saylovi bo'lib o'tdi. Saylovlar yakunlari 8 iyul kuni Oliy Majlis Senati Kengashining kengaytirilgan yig'ilishida taqdim etildi.

Saylovlarda 9764 fuqarolar yig'ini raisi va ularning 105 mingdan ziyod maslahatchisi saylandi.

Qayta saylangan raislarning 73,6 foizi oliy ma'lumotli bo'lsa, 82,4 foizi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar tizimlari va tadbirkorlik sohasida ishlash tajribasiga ega. Ularning 67 foizi mazkur lavozimga ilk bor saylandi. Raislarning 865 nafari yoki umumiy miqdorning 8,9 foizga yaqini — ayollar.

Fuqarolar yig'ini raislar maslahatchilarining esa 51,1 foizi oliy ma'lumotga ega. Ularning 53,3 foizi bu ishga ilk bor saylandi. Ayollar ulushi 25,4 foizni tashkil etgan.

## **2. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda mahalla institutining rivojlanishi.**

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi maxalliy davlat hokimiyatining asoslarini belgilab berdi.

Konstitutsiyaning XXI bobida viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etishi, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga kiradigan masalalar, ularning vakolat muddati, hisobdorligi, mansabdor shaxslarning lavozimga qo'yilishi va javobgarligiga oid normalar o'z ifodasini topdi.

Mahalliy davlat hokimiyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatiga ehtiyoj tug'ilganligi bois, 1993 yil 2 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

*"Mahalla nufuzini ko'tarish nafaqat iqtisodiy, nafaqat ijtimoiy, balki bu – siyosiy, tarbiyaviy, ulkan ma'naviy masaladir".*

*I. A. Karimov*

Ushbu Qonunning qabul qilinishi mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati organlarining tizimi, tuzilishi, vakolatlari, vazifalari, tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy faoliyat shakllari, joylarda qonuniylikni ta'minlashda ularning o'zaro huquqiy munosabatlarini belgilab berdi. O'z navbatida, mahalliy davlat hokimiyati organlarini isloh qilish, hokimliklar apparatini takomillashtirish hamda ularga sarflanadigan harajatlarni qisqartirish choralari ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov tashabbusi bilan tashkil etilgan (1992 yil 12 sentyabr) Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi tarixan tarkib topgan milliy va an'anaviy qadriyatlarni e'zozlash, izchil targ'ib qilish, xalqimizning eng yaxshi udum va an'alarini ommalashtirish, mahallalar o'rtasida madaniy va ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish, shuningdek, ularni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yanada mustahkamlash choralari davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash edi. "Mahalla" xayriya jamg'armasi mustaqil yurtimiz ma'naviyatini tarixiy asoslarga suyangan holda yuksaltirish, shuningdek, aholining ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy muhofaza qilish, bozor iqtisodiyoti sharoitida mahallalarga har tomonlama ko'maklashish borasidagi faoliyatini boshlab yubordi. Hozirgi vaqtda Respublika "Mahalla" xayriya jamoat fondining Qoraqalpog'iston Respublikasida, Toshkent shahri va barcha viloyatlarda, shuningdek barcha shahar va tumanlarda o'z bo'lim va bo'linmalari tashkil qilingan.

Respublikada 10 mingga yaqin fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat ko'rsatib turibdi.

Ayni paytda hozirgi mahallalarda xalq bilan ishlash, uning dardini eshitish, oilaviy kelishmovchiliklar, ishsizlik, mahalla ahlidan tushadigan turli xil arzlarni echish, mahallalar hududlarini gazlashtirish, suv bilan ta'minlashni yo'lga ko'yish, telefonlashtirish, mahallada maishiy xizmatning sartaroshxona, nonvoyxona, choyxona, oshxona, sabzavot va go'sht do'konlari singari turlarini yo'lga qo'yish, mahalladagi to'y va ma'rakalarni ro'yxatga olish, tartibli o'tkazish, ko'kalamz-ortlashtirish, tozalik - ozodalik oylarini o'tkazib borish kabi vazifalarni amalga oshirib keldi.


**Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 350 ta, Andijon viloyatida 957 ta, Buxoro viloyatida 541 ta, Jizzax viloyatida 396 ta, Namangan viloyatida 856 ta, Navoiy viloyatida 338 ta, Sirdaryo viloyatida 349 ta, Samarqand viloyatida 1208 ta, Surxondaryo viloyatida 818 ta, Toshkent viloyatida 1446 ta, Farg'ona viloyatida 1003 ta, Xorazm viloyatida 675 ta, Qashqadaryo viloyatida 593 ta, Toshkent shaxrida 505 ta mahalla fuqarolar yig'inlari aholi tinchligi va osoyishtaligi, hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamz-ortlashtirish, yosh avlodni tarbiyalash, o'zini ta'minlashga qiynalayotgan ko'p bolali oilalar, nogironlarga imkon qadar madadkorlik qilish kabi vazifalarni bajarib kelmoqda.**

Xususan, 2003 yil mobaynida "Obod mahalla yili" dasturi ijrosi yuzasidan respublikada barcha davlat va nodavlat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimini takomillashtirish, mahallaning huquqiy maqomini ko'tarish, kam ta'minlangan yosh oilalarni qo'llab - quvvatlash, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, qishloq mahallalarida gaz tarmoqlarini barpo etish, suv



quvurlari yotqizish, uy - joy fondini mukammal ta'mirlash, asfaltlash va obodonlashtirish, joylarda zamonaviy mahalla guzarlari, sport inshootlarini barpo etish va ommaviy sportni rivojlantirish singari qator ijobiy ishlarni amalga oshirdilar.

*1-diagramma*





**Izoh:** Tegishli hududdagi muammolarning dolzarbligiga qarab, fuqarolar yig'ini tomonidan fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha boshqa komissiyalar ham tuzilishi mumkin.

**Fuqarolarning o'zini – o'zi boshqarish organlari to'g'risida (yangi taxriri). O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2013 yil, 22 aprel, 18-modda.**

“Mahalla” jamg'armasining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri bozor iqtisodiyotiga o'tish hamda iste'mol mollari va xizmatlar haqi to'xtovsiz o'sib borishi sharoitida aholining moddiy tarafdin qiynalib qolgan qatlamlariga, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, etimlarga hamda yolg'iz qolgan qariyalarga nisbatan insonparvarlik va mehr-shafqat ko'rsatish g'oyalarini targ'ib qilish, ularga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish g'oyalarini targ'ib qilish, ularga moddiy va ma'naviy yordam berish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashishidan iborat bo'lib qoldi. Ushbu yo'nalishda “Mahalla” jamg'armasi bo'lim va bo'linmalari inson omiliga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirgan holda, adolat tamoyillariga asoslanib, nafaqat mahallalardagi yordamga muhtoj oilalarga, balki bolalar tarbiya uylariga, maktab-internatlarga, qariyalarni uylariga doimo moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatib keldi. Bu faoliyat

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika "Mahalla" hayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risida"gi (1992 yil 8 oktyabr) Farmoniga binoan Vazirlar Mahkamasining zahira jamg'armasidan 25 mln. so'm pul ajratilishi bilan boshlandi. Ushbu Farmonda vazirliklar, idoralar, assotsiatsiyalar, konsernlar, korxonalar, xo'jaliklar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlariga insonparvarlik va mehr-shafqat g'oyalarini targ'ib etishga doir tadbirlarni amalda ro'yobga chiqarish, respublika aholisining eng nochor tabaqalarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida "Mahalla" hayriya jamg'armasiga aniq maqsadni ko'zlab yordam berish tavsiya etilgan.

SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahalla" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (1993 y. 1 dekabr) "Mahalla" xayriya jamg'armasining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotida tutgan o'rni tobora oshib borayotganligini e'tiborga olib, uning faoliyatini yanada takomillashtirish vazifasini ilgari surdi. Qarorda O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, konsernlari, korxonalari, xo'jaliklari va tashkilotlariga "Mahalla" xayriya jamg'armasi hamda uning quyi bo'g'inlariga muntazam ravishda moddiy-ma'naviy va amaliy yordam ko'rsatish topshirildi.

SHuningdek, mahallalar hududida joylashgan korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlariga esa tegishli mahallalarda madaniy va ma'rifiy, obodonchilik ishlarini amalga oshirish, an'anaviy milliy bayramlarni o'tkazish, shuningdek oqsoqollarning takliflari asosida kam daromadli va boquvchisini yo'qotgan oilalar va yolg'iz qolgan kishilarga moddiy-ma'naviy yordam berish chora-tadbirlarini ko'rish zarurligi alohida ta'kidlandi.

1994 yildan boshlab "Mahalla" xayriya jamg'armasi hamda uning quyi bo'limlari buyurtmalariga muvofiq mahalla guzarlari, choyxonalar uchun zarur bo'lgan xo'jalik va uy-ro'zg'or anjomlarini imtiyozli narxlarda ajratish, jamg'arma tasarrufidagi kichik korxonalarni zarur bo'lgan dastgohlar, ehtiyot qismlar, xom ashyo mahsulotlari va yarim tayyor mahsulotlar bilan ta'minlash chora-tadbirlarini belgilash, jamg'armaning iqtisodiy, moliyaviy, xo'jalik faoliyatini yanada mustahkamlash uchun respublika davlat byudjetidan bir milliard so'm mablag' ajratish, uning ishlab chiqarish hamda savdo korxonalarini soliqlar va boj to'lovlaridan ozod qilish masalasi bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish, respublika hududidan tashqariga noqonuniy ravishda olib chiqib ketish chog'ida musodara qilingan tovarlar va mahsulotlarni "Mahalla" xayriya jamg'armasi do'konlari orqali sotishni tashkil etish haqida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish, huquq-tartibot organlari joylarda huquq - tartibot masalalari yuzasidan doimiy ravishda xalq bilan muloqotda bo'lib, mahalla faollari bilan ish yuritishini tashkil etish, viloyat, tuman va shahar hokimlariga 1994-1995 yillarda har bir mahallaga zamonaviy milliy loyihalar asosida guzarlar qurishni tashkil qilish, bu ishda davlat korxonasi va tashkilotlari, davlat tasarrufida bo'lmagan kooperativ, kichik korxonasi va yuridik shaxslar tomonidan beriladigan xayriya mablag'laridan unumli foydalanish, shuningdek, jamg'arma faoliyati uchun kichik korxonasi hamda do'konlar ochishga joy ajratish, aholi tomonidan etishtirilgan qishloq xo'jalik va chorvachilik mahsulotlarini kabul qilish punktlarini ochishga amaliy yordam

ko'rsatish, shahar va tuman hokimliklari o'z hududidagi idoralar rahbarlari ishtirokida mahalla oqsoqollari hamda aholi bilan muntazam ravishda uchrashuvlar o'tkazib, ular tomonidan bildirilgan fikr, mulohaza va takliflar asosida ijtimoiy muammolarni hal etish dasturini belgilash, "Mahalla" xayriya jamg'armasi Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda "Oila - maktab - mahalla" dasturini ishlab chiqib, joylardagi pedagogik jamoalar va mahalla faollarining asosiy e'tiborini uning ijrosiga qaratish, Madaniyat va sport ishlari vazirligi bilan birgalikda tuman va shaharlardagi mavzu, mahallalarda madaniy-ma'rifiy ishlarni yanada jonlantirish, yoshlar o'rtasida do'stlik, vatanparvarlik, halollik, jonkuyarlik tuyg'ularini shakllantirish, Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda mahalla va mavzularda aholi salomatligini, ekologik muhitni yaxshilash, sog'lom avlodni kamol toptirish ishlarini rivojlantirish, "O'zbekiston - vatanim, mahallam - uyim" shiori ostida osoyishtalikni saqlash, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash ishlarida ma'muriy organlarga amaliy yordam ko'rsatish, fukarolar o'rtasida baynalminal do'stlikni yanada mustahkamlash, ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar tahririyatlariga "Mahalla" xayriya jamg'armasining faoliyatini muntazam ravishda keng yoritib va targ'ib qilish vazifalari yuklatildi.

Bu masalalarning barchasi har yili bo'lib o'tadigan "Mahalla" xayriya jamg'armasi rayosat yig'ilishlarida alohida ta'kidlab o'tiladi. Xususan, jamg'arma tashabbusi bilan mahallalarda ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, diniy aqidaparastlik, ekstremizm hamda turli noxush holatlarning oldini olish, shuningdek, xalqimiz ma'naviyatiga xavf soluvchi, qadriyatlarimizga zid g'oyalar mazmun mohiyatini mahalla aholisiga, jumladan, yoshlarga tushuntirish hamda ularning oldini olishga qaratilgan, 34 mingdan ortiq tushuntirish, targ'ibot ishlari olib borilgan. Ularda 2,5 mln.ga yaqin aholi, jumladan, 1,6 mln. yoshlar ishtirok etganlar.

Bo'lib o'tgan bu majlisda ta'kidlanishicha, 2011 yilda rejalashtirilgan tadbirlar ijrosini ta'minlashga respublika boshqaruvidan 433,0 mln. hududiy bo'lim va bo'linmalar, hisobidan 6839,7 mln. so'm jami 7272,7 mln. so'm. miqdorida mablag' sarflangan. Bundan tashqari, 9995,0 mln. so'm homiylik mablag'i jalb qilingan. Bunday harakatlar zaminida aholi turmush farovonligini oshirish, mahallalarni aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va xususiy tadbirkorlik hamda oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, yangi ish o'rinlari ochish, yoshlarni ham ma'nan, ham jismonan barkamol etib tarbiyalash, ona va bola salomatligini muhofaza qilishdek maqsadlar mujassam ekanligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Mahallalarda "Oila - maktab - mahalla" dasturi asosida ham bir qator tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaning 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida ham bu alohida ta'kidlab o'tildi. Xususan, oila, mahalla va ta'lim muassasi o'rtasidagi hamkorlikni hamda uning samarasini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tadbiriq qilinayotgani yuqori baholandi. SHuning hisobidan respublikada 4,5 mln.dan ziyod o'quvchining 76 foizi maktab, "Barkamol avlod" bolalar markazlarida tashkil etilgan fan, musiqa va san'at to'garaklari, sport mashg'ulotlarida faol qatnashdi. SHu bilan birga, yil davomida umumta'lim

maktablari zamonaviy kompyuter xonalari, 1 ming 150 tadan ziyod kasb-hunar kollejidagi o'quv ustaxonlari amaliy mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan jihozlar hamda xom ashyo bilan ta'minlandi. YOshlarni tarbiyalashda Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyundagi "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori dasturilmal bo'lib xizmat qildi. Bu qaror bilan Xalq ta'limi vazirligida "Oila - mahalla - ta'lim muassasasi" hamkorligi jamoat kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarida jamoat kengashlari tuzildi. Jumladan, mazkur kengash faoliyati bilan oila, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari va mahalla hamkorligi mustahkamlandi. Bu tadbirlar natijasida 2012 yilda hududlardagi 25393 ta'lim muassasalari rahbarlarining hisobotlari eshitildi. SHuningdek, notinch oilalarga ko'mak berish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi markazi, "Mahalla" xayriya jamoat fondi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Kamolot" YOIH, "Cen yilg'iz emassan" Respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi hamkorligidagi "Notinch oilalar farzandlariga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ta'lim muassasalari hamda mahalla o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni tartibga solish to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qo'shma qaror muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyunda "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish, chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida "Mahalla" xayriya jamoat fondi respublika boshqaruvi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirildi. Masalan, "Mustahkam oila yili" Davlat dasturining ijrosini ta'minlash maqsadida tegishli tashkilotlar hamkorligida 7 mingdan ortiq mahallada "Ota - onalar universitetlari" ish boshladi. Ularga 40 mingdan ziyod davlat, jamoat tashkilotlari rahbarlari, obro'-e'tiborli, hayot tajribasiga ega tajribali fidoyi insonlar, mahalla faollari jalb etildi. YOsh avlod tarbiyasida "Oila - muqaddas tushuncha", "Mahalla va oila ma'naviyatining mustahkamligi", "Ota va ona - oila tayanchi", "Oilada sharqona sadoqat" mavzularida suhbatlar o'tkazildi. Xususan, Namangan shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlarida "Bir bolaga etti qo'shni ota-ona" mavzuida uchrashuvlar uyushtirilib, ularga 237 ming ota-ona va 68 ming yoshlar qamrab olindi. Ular uchun fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qiluvchi institutining malakali xodimlari hamda oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari tomonidan 15 ga yaqin mavzularda mashg'ulotlar o'tkazildi. Toshkent viloyati tuman va shaharlarida tashkil etilgan "Mahalla - xalq vijdoni", "Biz bir oilamiz", "Bir bolaga etti qo'shni ota-ona" mavzuidagi tadbirlarda esa 986 mingdan ziyod kishi qatnashdi, shulardan 513 mingini yoshlar tashkil etdi. Umuman, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlariga Fondning 1000 ga yaqin mas'ul xodimlari jalb qilindi.

Mazkur qaror ko'lami jihatidan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotning

barcha tomonlarini qamrab olgan bo‘lib, mazmuni, mohiyati davlatning milliy mustaqilligini yanada mustahkamlash va rivojlantirishga qaratildi. Bu borada mahallalardagi 8378 nafar diniy ma’rifat va ma’naviy ahloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilar joylarda ma’naviy - ahloqiy muhitni soglomlashtirish ishlarini olib bordilar. “Ommaviy madaniyat”ning salbiy oqibatlarini oldini olishga, to‘y - hasham va boshqa marosimlarni ixcham o‘tkazishga harakat qilish va aholiga tushuntirish ishlarini olib borishda muntazam uchrashuvlar tashkil etildi. Bundan tashqari, mahallalarda yoshlarning milliy hunarmandchilikka bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish va bandligini ta’minlash maqsadida hududlardagi 3941 kasb-hunarga o‘rgatish markazi orqali 285 mingga yaqin kam ta’minlangan oilalarning farzandlari kasb-hunar ta’limiga biriktirildi. Ayni paytda mehribonlik uylarida kamolga etgan yoshlarni ishga joylashtirish masalasi muntazam e’tiborda bo‘lib keldi va birgina 2012 yilda bunday yoshlardan 131 nafari o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashdi yoki xususiy tadbirkorlik va xususiy biznesga jalb etildi. Umuman olganda, fond hududiy bo‘lim va bo‘linmalari hamda fuqaro yig‘inlari tomonidan viloyat va tuman (shaharlar) miqyosida 122 ming 400 dan ziyod ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilib, ularda 7 mln. 900 ming nafardan ziyod aholi jalb etildi.

2012 yil 22 dekabrda O‘zbekiston Pechyblikasi Baziplap Mahkamasining “Bolalar maydonchalarini tiklash va tashkil etishning 2011-2015 yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori chiqqandan so‘ng Respublika “Mahalla” xayriya jamoat fondi va 10 mingga yaqin mahalla fuqarolar yig‘inlari bolalar sportini rivojlantirish, jismonan sog‘lom va ma’naviy etuk avlodni kamolga etkazish, oilalarda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish maqsadida 4 mingdan ortiq mahallalarda bolalar maydonchalaridan maqsadli foydalanish, ularni saqlash hamda bolalarning jismoniy va ma’naviy rivojlanishida maydonchalarining ahamiyatiga bagishlangan targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilib, 2 mln.dan ortiq kishi qamrab olindi. Ayni chog‘da jamoat tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalarini, xususiy tadbirkorlar, hamda fermerlar tomonidan bolalar maydonchalarini tiklash va tashkil etish, ularni qayta jihozlash yumushlari davom ettirildi. Bu harakatlar natijasida hududlardagi 2795 ta maydoncha obodonlashtirildi, 744 ta maydoncha tiklandi, 279 tasi esa yangidan tashkil etildi.

Ayni paytda “Mahalla” xayriya jamoat fondining va boshqa jamoat tashkilotlarining ishtirokida o‘tkazilgan bir qancha sport musobaqalari, xususan, “Futbolimiz kelajagi” respublika kubogi musobaqalarining o‘zi ham rivojlanib bordi. Masalan, 2008 yilda turnir quyi bosqichlari 8159 ta mahalla fuqarolar yig‘inida o‘tkazilgan bo‘lsa, o‘tgan yili ular soni 8.669 taga etdi. SHunga mos holda 2008 yilgi musobaqalarda 500 ming nafar yosh ishtirok etgan bo‘lsa, 2012 yilda ularning 1 mln.dan oshib ketdi. “Mahalla” xayriya jamoat fondi o‘tgan yilgi musobaqalarni o‘tkazish uchun Fond hisobidan 20,5 mln., homiyalar tomonidan esa 116,5 mln.so‘m mablag‘ sarflandi. E’tiborlisi, mahallalarda amalga oshiriladigan tadbirlar samarasini oshirish maqsadida “Mahalladagi ayrim muammolar”, “Futbolimiz kelajagi” nomli uslubiy qo‘llanmalar, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda “Buyuk va muqaddassan, mustaqil vatan” nomli kitob chop etildi. Bir necha nomda plakatlar tayyorlanib, joylarga etkazilgan.

Umuman, jamoat birlashmalari qatorida kelayotgan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishdagi ishtirokini baholashda jamoat birlashmalari orasida eng salohiyatli institut bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda mahalla tizimi respublika "Mahalla" xayriya jamoat fondi, uning 14 ta hududiy, hamda 200 dan ortiq tuman va shahar bo'limlari, 9973 ta fuqarolar yig'ini, ular tarkibida 7767 ta "Mahalla posboni" va 741 ta "CHegara posboni" tuzilmalari, asosiy yo'nalishlari bo'yicha 50 mingdan ortiq komissiyalar, "Mahalla" gazetasi tahririyati va "Mahalla ziyosi" o'quv - uslubiy markazi, shuningdek, Respublika oqsoqollar kengashidan iborat bo'lib qolmoqda. 2011 yil may - iyun oylarida bo'lib o'tgan mahalla raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi natijalariga ko'ra 2011 yil 1 iyul holatiga respublikadagi fuqarolar o'zini - o'zi boshqarish organlarida 72000 dan ortiq maslahatchilar hamda 94000 dan ortiq jamoatchilik asosdagi faollar faoliyat ko'rsatdi.

O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 12 noyabrda qabul qilingan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida" ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning dolzarb masalalarini hal etishda davlat hokimiyati organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro aloqasi, faoliyati, tamoyillari, shakllari va yo'nalishlarini, ushbu faoliyat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilovchi vazifalarni ishlab chiqish belgilab berildi. SHundan so'ng "Mahalla" hayriya jamoat fondi ham 2012-2014 yillarga mo'ljallangan Harakat rejasida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari huzuridagi dolzarb ahamiyatga ega sakkizta komissiyaning na'munaviy Nizomini ishlab chiqish belgilandi. Nizom loyihalari ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etila boshlandi.

Respublikada birgina 2012 yilda "Mahalla" hayriya jamoat fondi tomonidan 5,2 mln.dan ziyod aholi ishtirokida 146 mingga yaqin ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi. Fuqarolar yig'inlarida davlat dasturining ijrosini ta'minlash, shuningdek mahallani xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznes markaziga aylantirish bo'yicha ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan 29 mingdan ziyod davra suhbatlari, muloqot va o'quv seminarlar o'tkazildi. Bu tadbirlarga 2,5 mln.dan ziyod aholi jalb qilindi. Sa'yi - harakatlar samarasi o'laroq, fuqarolar yig'inlarida kasanachilik, oilaviy biznesning novvoylik, sartaroshlik, kosiblik turlari bo'yicha hamda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish hisobiga respublika bo'yicha jami 67 mingga yaqin ish o'rinlari yaratildi.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, "Mahalla" hayriya jamoat fondi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, yosh avlodni milliy va ma'anviy qadriyatlar, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhi mohiyati, ushbu hujjatda Fond zimmasiga yuklatilgan vazifalar haqida batafsil ma'lumotlar berdi.

SHuningdek, tadbirda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashining 2015 yil 7 maydagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida 2015 yilda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar" Dasturi va Fond ish rejasida belgilangan vazifalar yuzasidan qator tadbirlar olib borilayotganini va kelgusida tashkil etilishi lozim bo'lgan tadbirlarni o'z vaqtida, to'la va sifatli bajarish uchun

hududiy bo‘lim va bo‘linmalar raislari shaxsan mas’ul ekanligi yig‘ilish ishtirokchilariga eslatib o‘tildi.

2015 yilning 1 yarmi davomida “Mahalla” fondi va uning tuzilmalari tomonidan “Keksalarni e’zozlash yili” Davlat dasturida belgilangan ustuvor vazifalar hamda “Mahalla” xayriya jamoat fondi tomonidan qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, Fondning asosiy maqsad va vazifalaridan biri bo‘lgan O‘zbekiston aholisining tarixan tarkib topgan udum va an‘analarini asrash va boyitishga har tomonlama ko‘maklashish maqsadida mahallalarda fuqarolarning ma’rifiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, yosh avlodni milliy va ma’naviy qadriyatlar, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash kabi ijtimoiy va ma’naviy muhit barqarorligiga ijobiy ta’sir etuvchi 15 mingdan ortiq tadbirlar tashkil etildi.

Davlat dasturi doirasida 1941-1945 yillardagi urush faxriylarining ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash, ularning farovonligi va munosib turmushini ta’minlash maqsadida 2 mingdan ortiqurush va mehnat fronti faxriylari mamlakatimizda ishlab chiqarilgan analogli va raqamli televidenie signallarini qabul qiladigan televizorlar bilan bepul ta’minlandi. SHundan, “Mahalla” fondi tomonidan 520 nafariga 530 mln. so‘m mablag‘ sarflandi.

Bundan tashqari, urush qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarining 10 mingnafarga yaqiniga 14 xil turdagi, ijtimoiy xizmatga olingan 4 mingdan ortiq nafar fuqarolar 9xil turdagi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari bilan bepul ta’minlandi. SHuningdek, 9ming nafarga yaqin yolg‘iz va ijtimoiy muhtoj keksalarning uy-joylari ta’miralanishiga ko‘maklashildi. SHundan “Mahalla” fondi tomonidan ming nafardan ziyodiga 421,0 mln.so‘m mablag‘ sarflandi.

SHu bilan birga, O‘zbekiston Qizil YArim oy jamiyati hududiy bo‘limlari bilan birgalikda 2460 nafar urush va mehnat fronti faxriylari, yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish maqsadida moddiy yordamlar ko‘rsatildi. Ushbu band ijrosi yuzasidan 42 mln.so‘mga yaqin fond mablag‘lari sarflandi.

“Saxovat” va “Muruvvat” internat uylarida yashovchi 6 mingnafarga yaqin keksalarga dastur ijrosi yuzasidan yotoq-choyshab to‘plamlari, 4 minggayaqiniga shaxsiy gigiena vositalari hamda 4300nafardan ortig‘i esa kiyim-kechak mahsulotlari bilan ta’minlandi. SHundan, fond tomonidan 5632nafar keksalarga yotoq-choyshab to‘plamlari, kiyim-kechak mahsulotlari berildi. Ushbu maqsadlarga “Mahalla” fondi tomonidan 481 mln.so‘m mablag‘ sarflandi.

SHu bilan birga, 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilarini, shuningdek yolg‘iz pensionerlarni manzilli ro‘yxatlar asosida QVPlar va oilaviy noliklinikalar tomonidan tarqatiladigan maxsus dori-darmon yig‘malari (aptechkalar), (og‘riqsizlantiruvchi vositalar, spazmolitiklar, ginotenziv preparatlar va boshqalar) bilan bepul ta’minlanmoqda.

“Xalqaro keksalar kuni”da keksa kishilarni qutlash bo‘yicha kompleks madaniy-ma’rifiy va xayriya tadbirlarini tashkil etish yuzasidan 8460 ta mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi 6970 ta umumta’lim maktablari, 1222 ta akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda 42 ta oliy ta’lim muassasalarida 9745



marotaba tadbirlar o'tkazildi. Tadbirlarda 1 mln.gayaqin aholining ishtiroki ta'minlandi.

SHuningdek, keksalarning 2790 nafari kinoteatrlarga, 3864 nafari teatrlarga, 4831 nafari muzeylarga, 2947 nafari konsert tomoshalariga, 6371 nafari boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarga bepul borishi tashkil etildi. Ushbu maqsadlarga "Mahalla" fondi tomonidan 213,8 mln. so'm mablag' sarflandi.

Keksalarning uy-joy-maishiy sharoitlarini yaxshilash, ularga yordam berish maqsadida 6 minggayaqin keksalarga yordamlar ko'rsatish natijasida maishiy sharoitlari yaxshilandi. 2 minggayaqin keksalarning tug'ilgan kunlari tantanali nishonlandi. Bu tadbirda 23460 nafar patronaj yoshlar jalb qilindi. Ushbu maqsadlarga "Mahalla" fondi tomonidan 17,1 mln.so'm mablag' sarflandi.

Bundan tashqari, 8 ming nafardan ziyod keksalar ishtirokida "Keksasi bor xonadon - fayzli xonadon"va "Keksalar duosini olaylik" mavzularida tadbirlar tashkil etildi. Tadbirlarda 378 mingnafar aholining ishtiroki ta'minlandi. SHundan, 201 mingnafarini yoshlar tashkil etadi.

Bundan tashqari, respublikamizda fidokorona mehnati va munosib hayot yo'li bilan xalqning hurmati va ehtiromiga sazovor bo'lgan 730 nafar 100 yosh va undan katta yoshdagi kishilarni ulug'lash maqsadida "Asr bilan yuzma-yuz" mavzusida 5 mingga yaqin tadbirlar tashkil etildi. Tadbirlarda 314 mingnafardan ortiq aholining ishtiroki ta'minlandi. Ushbu maqsadlarga "Mahalla" fondi tomonidan 72,0 mln.so'm mablag' sarflandi.

SHuningdek, dastur doirasida keksalarning dam olishi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida mahalla guzarlari hamda madaniyat va aholi dam olish markazlarida 461 ta muloqot klublari tashkil etildi. Tashkil etilgan muloqot klublariga 20 mingnafarga yaqin keksalar, nuroniylar va pensionerlar jalb qilindi. Bundan tashqari mahallalarda 2 minggayaqin sog'lomlashtirish guruhlari tashkil etildi. Sog'lomlashtirish guruhlarida o'n minggayaqin keksalar doimiy qatnashib kelmoqda.

Davlat dasturi asosida mahallalarda istiqomat qiluvchi keksalarni jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga hamda faol turmush tarzini yuritish maqsadida 3 mingnafarga yaqin keksalar jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga hamda faol turmush tarzini yuritishga jalb etildi. "Mahalla" fondi tomonidan mahallalarda urush va mehnat fronti faxriylari, yakka yolg'iz keksalar, nogironlarning 961 nafariga 624,5 mln.so'mlik moddiy yordamlar ko'rsatildi.

Mahallalarda yolg'iz va ijtimoiy yordamga muhtoj keksalar uchun «Keksalar duosini olaylik»shiori ostida qator targ'ibot-tashviqot tadbirlari o'tkazildi. Ularda 190 mingnafardan ziyod aholining ishtiroki ta'minlandi. Tadbirlar davomida 12 mingdanortiq yolg'iz va ijtimoiy yordamga muhtoj keksalarga, ya'ni 500dan ortig'iga mebellar, 4 mingnafarga yaqiniga uy-ro'zg'or buyumlari, 8 mingnafardan ziyodiga kiyim-kechak mollari berildi. SHu bilan birga, 3 mingnafarga yaqin ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogiron va yolg'iz qariyalar xolidan xabar olinib, ularga oziq-ovqat mahsulotlari olib berildi.

SHuningdek, Dastur doirasida 843 ta mahalla guzarlari 6744 ta shaxmat va shashka komplektlari, 50ta mebel jihozlari (stol va stullar), shuningdek, xontaxta,

gilamcha, choynak va idishlar, stol tennislari hamda 9 turdagi respublika va mahalliy davriy nashrlar hamda badiiy adabiyotlar bilan ta'minlandi.

“Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmasin” shiori ostida 23 ming nafarga yaqin urush va mehnat fronti faxriylari, keksa yolg'iz va nogironlarning, ya'ni 4650 nafari Buxoroga, 6470 nafari Samarqandga, 3925 nafari Xivaga, 4723 nafari Toshkentga, 1202 nafari Qo'qonga va 2000 nafari boshqa shaharlarga sayoxatlar tashkil etildi.

O'sib kelayotgan avlod o'rtasida oila qadriyatlarini, keksa avlodni hurmat qilish va e'zozlash muhitini shakllantirishni targ'ib etish maqsadida 5 mingnafarga yaqin 50 yildan ortiq birgalikda ahil-inoq yashab kelayotgan oilalarga bag'ishlangan “Mehr-muhabbat va totuvlikda kechayotgan uzoq umr” mavzusida 8 mingmarotaba targ'ibot-tashviqot tadbirlari tashkil qilindi. Mazkur tadbirlarda 352 mingdan ortiq aholining ishtiroki ta'minlandi, shundan 213 mingnafari yoshlarni tashkil etadi.

“Mahalla” xayriya jamoat fondi va uning hududiy tuzilmalari ko'magi bilan hisobot davrida 2012-2016 yillarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (mahallalar) moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha ishlab chiqilgan dasturda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida joriy yilning o'tgan davri mobaynida 300 dan ortiq fuqarolar yig'ini kompyuter jamlanmalari, 700 dan ziyodi mebel jihozlari bilan ta'minlandi.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida respublikamiz mahallalarida Fond hisobidan 20 gayeraqin sport maydonchasi va 20 dan ortiq bolalar o'yingohi barpo etildi. Ushbu maqsadlarga Fond hisobidan 413 mln.so'm mablag sarflandi. Bu xayrli ishga homiylar ham bosh-qosh: ularning 2mlrd.so'mdan ziyod mablag'i hisobiga 135 tabolalar sport maydonchasi qurildi, 310 tasi qaytadan ta'mirlandi. Bu maydonchalardan samarali foydalanish, ulardagi sport jihozlarini asrab-avaylash bo'yicha 4 mingga yaqin mahallada targ'ibot tadbirlari uyushtirildi.

SHuningdek, “Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida” hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonunlar, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 martdagi “Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 6,5mingdan ziyod fuqarolar yig'inida 12mingdan ortiq targ'ibot tadbirlari tashkil etildi. Mazkur tadbirlarga 468mingdan ziyod nafar aholi, jumladan, yoshlar ham jalb etildi.

Yig'ilish oshkoralik ruhida o'tib, ayrim hududiy bo'lim va bo'linmalar tomonidan ijro intizomi, quyi tuzilmalar tomonidan hujjatlar ijrosi ustidan monitoringni amalga oshirish, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida ayrim xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilgani tanqid ostiga olindi. Ularni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

Boshqaruv yig'ilishi kun tartibidagi boshqa masalalar yuzasidan Fondning viloyatlar bo'limlari raislarining hisobotlari tinglandi.

Yig'ilish davomida «Keksalarni e'zozlash yili» Davlat dasturida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini o'z vaqtida va sifatli bajarish, Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 7 maydagi Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashining 1-sonli majlis bayoni bilan

tasdiqlang'an "O'zbekiston Respublikasida 2015 yilda fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar" Dasturi ijrosini ta'minlashda fuqarolar yiginlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish, Fondning hududiy bo'lim va bo'linmalarida xat-hujjatlar bilan ishlash, fuqarolarning yozma va og'zaki murojaatlarini ko'rib chiqishda qonunchilik me'yorlariga qat'iy rioya qilish, tizimda ijro intizomini yanada mustahkamlash kabi ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Yig'ilishda, shuningdek, O'zbekiston davlat mustaqilligining 24 yillik bayramini mahallalarda, tuman va shaharlarda, qishloqlarda munosib kutib olish va nishonlash bo'yicha Fondning hududiy bo'lim va bo'linmalari bilan birga, har bir mahallalarda alohida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, ijrosiga jiddiy e'tibor qaratish, aholi o'rtasida bugungi tinch hayotimizga shukronalik hissini uyg'otish, bayram tadbirlarni tashkil etish lozimligini ta'kidlandi.

### **3. Ko'p millatli O'zbekiston maxallalari hamjihatlik va barqarorlik poydevori.**

Mamlakatimizdagi mustaqil rivojlanish sharoitida ro'y berayotgan chuqur ijtimoiy o'zgarishlar o'zbekistonliklarning mentalitetida yangi milliy davlatchilikni qaror toptirish jarayonlarini jadallashtirib yubordi.

Nafaqat bu, balki eng asosiy demokratik tamoyillardan biri bo'lmish tolerantlik davlat darajasidagina emas, balki shaxslar, guruhlar darajasida ham tobora yuzaga chiqib bormoqda. Tolerantlik turli etnik guruhlariga mansub kishilarning turmush tarziga, fe'l-atvori, his-tuyg'ulari, fikr-o'ylari, g'oyalari va diniy qarashlariga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lishni bildiradi.

*"Ma'lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi".*

*SH. M. Mirziyoev*

Endilikda insoniyat "biz yashab turgan dunyo qanday bo'lishi kerak", "qon to'kilishiga, ekstremizmga, odamlar o'rtasidagi adovatga qanday qilib barham berish kerak" degan masala ustida tinimsiz bosh qotirmoqda. Alohida har bir odamni va umuman jamiyatni o'zidan boshqa shaxs va jamiyatlarni salbiy darajada talqin etmaslik, o'zgarar fikriga sabr-toqat bilan munosabatda bo'lish – demokratik, huquqiy jamiyatning eng asosiy belgilaridan biri ekanini tushunish ruhida qanday qilib tarbiyalamoq kerak, degan masala ham g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Bag'rikenglik insonning ongli hayotida va jamiyatning mentalitetida yangi ong, shuurni paydo qilib, ustivor ahamiyat kasb etmoqda. Tolerantlik to'g'risidagi zamonaviy konsepsiya yaqindagina paydo bo'lib, bu tushunchani shakllantirishda YUNESKO ko'p kuch-quvvat sarfladi. Jumladan, 1995 yilda ushbu tashkilot tomonidan qabul qilingan "Tolerantlik tamoyillari

deklaratsiyasi”da tolerantlik fuqarolik jamiyatining qadriyati va ijtimoiy normasi, deya ta’riflandi.

Hozir dunyodagi mamlakatlarning aksariyati ko‘pmillatli, ko‘p madaniyatli xarakterga ega. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi ham aynan shunday mamlakatlar jumlasiga kirib, ushbu hol fuqarolar o‘rtasidagi tinchlik-totuvlik hamda millatlararo hamjihatlikni saqlab qolishga to‘sqinlik qilmaydi.

O‘zbekistonning mustaqil rivojlanish tarixi yangi yuz yillik bilan, dunyoda millatlararo va dinlararo adovat benihoya avj olgan yuz yillik bilan bir paytga to‘g‘ri keldi. Bizning ko‘z o‘ngimizda butun-butun davlatlar barbod bo‘lmoqdaki, buning asl sababi mazkur davlatlardagi milliy manfaatlarning to‘qnashuvidir. SHu sababli biz O‘zbekistonning eng katta yutug‘i millatlararo hamjihatlik va totuvlik, tinchlik va barqarorlik deganimizda, bu gap shunchaki hammaga ma’lum bo‘lgan haqiqatgina bo‘lmay, balki bu hozirgi notinch dunyoda respublikamizning katta muvaffaqiyatidir.

Barcha tarixiy bosqichlarda O‘zbekiston ko‘pmillatlik va ko‘p dinlilik sharoitida millatlararo hurmat va totuvlik ruhi bilan ajralib kelgan.

O‘zbekistonda shakllangan milliy g‘oya tizimining tarkibiy qismi – millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik bo‘lib, u umumbashariy qadriyat, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik hamda barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik g‘oyasi ilgari surilgan va amalda unga erishilgani mustaqil O‘zbekiston rivojida qo‘lga kiritilgan eng katta yutuqlardan biridir.

Hozirgi vaqtda bag‘rikenglik tamoyillarini ijtimoiy hayotda keng targ‘ib etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bag‘rikenglik tamoyili turli davlat va xalqlar o‘rtasida tinchlik va barqarorlik, hamkorlik va bunyodkorlik g‘oyalarini mustahkamlanishiga ijobiy ta’sirini o‘tkazmoqda. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, yangilanishlar jarayonida, millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta’minlashda, tinchlikparvar tashqi siyosatni yuritishda bag‘rikenglik tamoyili doimiy ravishda o‘z aksini topib kelmoqda. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning ma’naviy hayot jabhasini tubdan yangilanish masalasiga bag‘ishlangan qator chiqish va nutqlarida ham yuqorida qayd etilgan masala to‘liq o‘z aksini topmoqda.


Mustaqillik yillarida “Mahalla-xalq vijdoni” degan yuksak ta’rif o‘zbek mahallasiga har tomonlama munosib bo‘lib bormoqda. Bugungi kunga kelib mahallalar faoliyatini ta’minlashga qaratilgan 50 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar mavjud bo‘lib, ular muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda. YUzdan ortiq millatlar istiqomat qilayotgan O‘zbekiston hududidagi o‘n mingga yaqin mahallalarning o‘zi turli millat vakillaridan tashkil topgan ulkan oiladir.

Ma’lumki, mahalla – milliy davlatchilikning, o‘zini-o‘zi boshqaruvining eng noyob usuli hisoblanadi. Xalqimizning sharqona, ezgulikka yo‘g‘rilgan turfa an’analari, urf-odatlar, xususan mehr-shafqat, muruvvat, to‘y-ma’rakada jamoaning hamjihatligi kabi insoniylik fazilatlar mahalla xayotida yorqin aks etadi. SHuningdek, mahalla xalqimizning olis tarixiga, an’analariga, uning boy ma’naviy, axloqiy qadriyatlariga chambarchas bog‘liq bo‘lgan bag‘rikenglik


maktabi hamdir. YUrtboshimiz ta'kidlaganidek, "bag'rikenglik, o'zaro mexr-oqibatlar singari noyob insoniy fazilatlar aynan shu muhitda kamol topadi. SHu ma'noda, mahallani o'zini-o'zi boshqarish maktabi, ta'bir joiz bo'lsa, demokratiya darsxonasi, deb atash mumkin". Mahallani bag'rikenglik ramzi ekanligini e'tiborga olib, mahallalarda o'tkazilayotgan barcha tadbirlarda bag'rikenglik tamoyillarga maxsus e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Respublikada o'tkazilayotgan millatlararo munosabatlardagi davlat siyosati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va millatlararo totuvlikning O'zbekiston modeli bilan rivojlanishini aks ettirmoqda.

Respublika aholisining ko'pmillatli tarkibi mahallalar kesimida quydagi jadvalda o'z aksini topgan.

### Кўпмиллатли маҳаллалар (%)



## Кўпмиллатли бўлмаган маҳаллалар (%)



YUzdan ortiq milliy-madaniy markazlarni birlashtiruvchi Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganligi, mamlakatda millatlararo do‘stlikni, hamkorlikni mustahkamlashga, milliy ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilishga, umuman, davlat bilan milliy jamoatchilikning hamkorligi vositalarini shakllantirishga hissa qo‘shib kelmoqda. Mazkur markazlar o‘z madaniyatini targ‘ib qilish sohasidagina emas, shu bilan birga millatlararo munosabatda bag‘rikenglikni tarbiyalash sohasida ham doimo ko‘pgina rejalarni amalga oshirmoqda.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi bugungi kunda Respublika “Mahalla” xayriya jamoat fondi bilan keng ravishda o‘zaro aloqalarni yo‘lga

qo'yib olgan. SHu sababli o'tgan yillar mobaynida Respublika baynalmilal madaniyat markazi tomonidan "Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – taraqqiyot omili", "O'zbekiston ko'pmillatli ahil oila" mavzusida ilmiy-amaliy seminar hamda "Mustahkam oila – mamlakat tayanchi" mavzusida davra suhbatlari o'tkazib keldi. Bunday tadbirlar boshqa millat vakillarining mahalla ishlarida faollik bilan harakat qilishlariga, turli tadbirlarda ishtirok etishlariga ham olib keldi.

Masalan, 2011 yilning may-iyun oylarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bo'lgan saylovlarda Toshkent shahridagi Oybek nomli, "Mingo'rik", "Temir yo'lchi", "Afrosiyob", "Navro'z", "Bog'ishamol", "Salar" mahallalariga tajribali, tashkilotchi, uzoqni ko'zlab ish yuritadigan o'zga millat vakillari rais sifatida saylandi.

YAqinda umumjahon axborot tizimi "Toshkent-Parij" deb nomlangan yangi bezakli elektron jurnali bilan boyidi. Fransiya Senatidagi Fransiya – Markaziy Osiyo do'stlik guruhi raisi Andre Dyule qalamiga mansub maqolada mamlakatimiz rahbariyati tomonidan belgilab olingan taraqqiyotning "o'zbek modeli" yurtimizda istiqomat qiladigan 130 dan ortiq millat va elat vakillarining yakdilligi hamda hamjixatligini ta'minlashda muhim omil bo'layotgani e'tirof etilgan.

Ushbu model sharofati bilan o'zbek xalqi o'tish davri qiyinchiliklarini muvaffaqiyatli engib o'tdi va izchil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlay oldi, deb hisoblaydi Andre Dyule.

YUqorida qayd etilganlarni umumlashtirib quyidagi xulosaga kelish mumkin. Fan rivoji uchun boshlang'ich maktablar qanday vazifani bajargan bo'lsa, mahalla institutlari mustaqillikni mustahkamlash uchun xuddi shunday vazifani bajaradi. Mahalla xalqqa huquq va erkinliklardan foydalanish yo'lini ochadi, shuningdek, uning osoyishta xarakteridan bahramand bo'lishni o'rgatadi. Mahalla qismati mamlakat qismati bilan chambarchas bohlanib ketgan. Mahalla obod bo'lsa, yurt obod, mahalla tinch bo'lsa yurt tinch bo'ladi.

## **2-MAVZU. O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI**



## REJA

1. Mahalla – demokratiya instituti sifatida
2. O‘zini o‘zi boshqarish organlarining millatlararo munosabatlarni rivojlantirishga ta’siri: milliy tajriba, muammolar va echimlar
3. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari (mahalla) faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
4. «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (2017 yil 3 fevraldagi PF-4944-sonli) Farmonidagi ustuvor yo‘nalishlar va ularning ahamiyati

*Tayanch tushunchalar: Mahalla, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, demokratiya instituti, konstitutsiya, mahalla institutining huquqiy asoslari, demokratik saylovlar, mahalla – demokratiya darsxonasi, mahallaning tashkiliy va tuzilmaviy asoslari.*

### 1. Mahalla – demokratiya instituti sifatida

O‘zbekiston mustaqilligining qo‘lga kiritilishi va davlat rahbarining oqilona siyosati tufayli jamiyatda boshqaruv tizimini asta - sekin isloh qilish, davlat vazifalarini o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, jamoat tashkilotlariga asta - sekin, bosqichma - bosqich o‘tkazish, kuchli, huquqiy, demokratik davlatdan, adolatli, fuqarolik jamiyatiga o‘tish borasida qator ishlar amalga oshirildi.

Eng qadimiy milliy qadriyatlardan hisoblangan, xalqimizning qon – qoniga singib ketgan, o‘zbek xalqining yashash tarzini o‘zida to‘la - to‘kis mujassam etgan mahalla jamiyatdagi o‘zining munosib o‘rniga tiklandi. O‘zbek mahallasi xalqimizga xos donishmandlik timsoli bo‘lib qolganligi sababli u tarixda ham xamisha o‘z jozibasi, hayotiyli, xalqchilligi bilan dunyo ahli tafakkurini o‘ziga jalb qilib kelgan.

Ma’lumki, bizda mahalla instituti kecha paydo bo‘lgan emas. Afsuski, sho‘ro zamonida bu tuzulma jamiyat boshqaruvidan mutlaqo ajratib qo‘yilgan edi. Mahallani mayda-chuyda masalalar uchun masalan, har qanday sho‘ro idorasi talab qilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotnoma (spravka) yozib berish punktiga aylantirdilar. Buning natijasi esa - tariximizda umuman uchramagan tirik etimlarning ko‘payishi, kishilar o‘rtasidagi mehr-oqibatning ko‘tarilishi, “sen menga tegma, men senga tegmayman”, degan qarashning keng tarqalishi bilan o‘zini namoyon etdi.

Bugun biz milliy, demokratik turmush tarzimizga to‘g‘ri kelmaydigan mana shu illatni bartaraf etish maqsadida ekanmiz, bu ezgu niyatimizdan ham kir qidirayotgan, uni o‘z manfaatiga mos, tor qarashlaridan kelib chiqib baholashga urinayotgan “inson huquqlari himoyachilari”ni tushuna olmaymiz. Ahir qay bir

*Mahalla xalqimizning o‘zi asrlar davomida ijod qilgan tom ma’nodagi demokratik idora tariqasida odamlarning siyosiy, ijtimoiy saviyasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning “otang – mahalla, onang – mahalla” degan naqli ham aynan shu ma’noda aytilgan, desak, aslo xato bo‘lmaydi.*

*Islom Karimov*

G'arb davlati bir jinsli nikohlarga keng yo'l ochib berishni o'ziga ep ko'rayotgan bo'lsa, boshqa bir "madaniyatli millat" vakillari esa demokratiyani do'konga qipyalang'och holda yopirilib kirib, qo'liga ilingan narsani olib ketib, tuban nafsini qondirishdan iborat deb tushunayotgan bo'lsa, biz ularning bu ishiga aralashmayotganimiz bizning ayni bu borada umuman fikrga ega emasligimizni anglatmaydi. Kunora takrorlanib turgan bunday holatlar borasida birov bizning fikrimizni so'rab o'tirgani yo'q. Nega endi insonparvarlik ruhi ufurib turgan o'z milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash yo'lida qilayotgan harakatlarimiz boshqalarning uyqusini qochirishi kerak? Ahir, o'z fikrimizni birovga zo'rlab tiqishtirish niyatidan uzoqligimiz ham bizning demokratiyani teran tushunishimizning belgisi-ku.

Oilaviy mojarolarni hal qilishda mahalla ko'magiga tayanishni "inson huquqlarining buzilishi" deya talqin etayotganlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64- va 66-moddalarini qanday tushunishar ekan? Eslatib o'tamiz: bu moddalarning biri "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur"ligini qat'iy belgilasa, yana biri "Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amho'rlik qilishga majbur" ligini uqtiradi. SHuning uchun har bir halq, mamlakat demokratiyani o'ziga hos va mos tarzda amalga oshiradi. Agar shunday bo'lmasa, u taraqqiyotga hizmat qilmaydi. Demokratiyaning majburan kiritilgan "Sovet" ko'rinishi bunga aniq misoldir. Bu qonuniyatni e'tirof etmaslik demokratik rivojlanish qonuniga zid hodisa bo'lib, zararli ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

"O'zbekistonning yangi mustaqil davlatchiligi murakkab sharoitlarda qaror topmoqda. hozir biz bu yillar mobaynida milliy davlatchilikka poydevor qo'yilganligini ishonch bilan ayta olamiz. Eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va unga mos bo'lgan hokimiyat va boshqaruv organlari barham topdi. Siyosiy va iqtisodiy boshqarish hamda tartibga solishning ko'pgina tuzilmalari va organlari tugatildi. Mamlakatimizda o'tish davri vazifalarini amalga oshirishda **birinchidan**, fuqarolar jamiyati va huquqiy davlatni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini amalga oshirish. Uning qonunchilik asoslari va yangi demokratik tashkilotlarini shakllantirish.

Mahalliy hokimiyat organlarining muntazam tizimini fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu organlarning asosini fuqarolar yig'inlari – mahallalar tashkil etadi. Ular halqning tarixiy an'analari va ruhiyatini hisobga olish asosida tuzilgan. o'z-o'zini boshqarishning muhim ijtimoiy organi bo'lmish mahallaning ahamiyati hamisha juda yuqori bo'lgan.

Mahalla odamlar o'rtasidagi munosabatlarda yahshi qo'shnichilikni, hurmat va insonparvarlikni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. U fuqarolarning ijtimoiy

*Bugungi keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim.*

*SHavkat Mirziyoev*

manfaatlarini himoya qiladi, aholining muhtoj qatlamlariga aniq yordam ko'rsatadi.

Gap shundaki, mahalla iqtisodiy va demokratik o'zgarishlarni ro'yobga chiqarishda amaliy madad bo'lmog'i zarur.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, uning ehtiyojlarini qondirishda davlat qurilishi, boshqaruv tizimi va jamiyatni erkinlashtirish alohida ahamiyatga ega. Bu borada Birinchi Prezident I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq mamlakatning uzoqqa yo'naltirilgan maqsadlarini aniq va ravshan ifodalab berdi va davlat vakolatlarini asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich nodavlat va jamoat tashkilotlari zimmasiga o'tkazish, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarining ya'ni mahallalarning rolini oshirib borish orqali demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish zarurligini aytgan edi. Ana shu tamoyilning o'zi fuqarolarning bir jixatdan erkinligi va ozodligini ta'min etsa, ikkinchi tomondan o'z hayotlarini izga solishga, demak-ki, jamiyatni boshqarishga ishtiyoqini kuchaytiradi. SHaxs o'zini jamiyat hayotining hamma sohalariga dahldor, uning oldida burchli va mas'uliyatli ekanligini anglab boradi.

1985 yil 15 oktyabrda Evropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan «Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi Evropa Hartiyasi»ning 3-moddasida bu tushuncha quyidagicha ifodalandi: «Mahalliy o'zini o'zi boshqarish deganda, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z mas'uligida, mahalliy aholi manfaatlarini asosida, qonunlar doirasida uning davlat ishlarini aksariyat qismini boshqarishi va uni reaë uddalay olish qobiliyatiga aytiladi. Bu huquqlar erkin, yashirin, teng, to'g'ridan-to'g'ri umumiy saylovlarda saylangan a'zoldan iborat kengashlar yoki majlislar tomonidan amalga oshiriladi. Kengashlar yoki majëislar o'zlariga hisobotlar berib boruvchi ijroiya organlariga ega bo'lishi mumkin. Bu qoidalar fuqarolar majëislariga, referendumlarga yoki fuqarolar to'g'ridan- to'g'ri ishtirok etishining qonun yo'l qo'ygan boshqa shakllariga murojaat etishni istisno etmaydi».

G'arb jamiyatshunos olimlari mahalliy o'zini o'zi boshqarishga doir tushunchalarning nazariy jixatlarini ham ishlab chiqqanlar. Unga binoan, «mahalliy boshqaruv» deganda, «davlat boshqaruvidan quyidagi barcha darajalarni, «mahalliy hokimiyat» deganda esa «saylangan kengash va uning ijroiya organlari vositasida o'z saylovchilari manfaatlarini ifoda etuvchi va harakat qiluvchi tashkilotlar» tushuniladi. SHuningdek, «mahalliy o'zini o'zi boshqarish» esa - «milliy boshqaruvdan quyi darajadagi demokratik avtonom birliklarning mahalliy aholi manfaatlarini asosida jamoatchilik muammolarini aksariyat qismini muvofiqlashtirishi va boshqarishi»dir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida o'zini o'zi boshqarish organlariga quyidagi huquqiy ta'rif berildi: «SHaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalardafuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslaxatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi». Konstitutsiyaviy asosdan kelib chiqib, 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahriri)

Qonunning 1-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tushunchasi quyidagicha ta'riflandi: «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi-fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy hususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir». Qo'rinib turibdiki, mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi tushunchasi va uning huquqiy maqomlari rivojlantirildi va ular ilg'or demokratik mamlakatlardagi huquqiy mezonlar darajasida ifodalana boshlandi.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish, mashhur olim Aleksis de Tokvilning talqinicha, "shunday bir siyosiy institutki, u nafaqat siyosatchilar uchun, balki, umuman barcha fuqarolar uchun bir maktabdir. Bu institutga xos bo'lgan imkoniyatlar shu qadar yuksak-ki, u fuqarolarning keng siyosiy ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. o'zini o'zi boshqarish organlari siyosiy madaniyat elementlarini shakllantirishning ham beqiyos omilidir. Oxir oqibatda bu organlar faoliyati siyosiy tizimning bir butun barqarorligi va moslashuvchanligini ta'minlab beradi. Millat jamoaviy institutlarsiz ham erkin hukumat shakllantirishi mumkin. Lekin u erkinlikning haqiqiy ruhiyatiga ega bo'la olmaydi».

XX asrning ikkinchi yarmida «umumiy farovonlik davlati» nazariyasi bilan bog'liq holda munitsipal (o'zini o'zi boshqarishga doir) konsepsiya ham paydo bo'ldi. Munitsipalitetlar jamiyatning barcha tabaqalari manfaatlarini ta'minlovchi va himoyalovchi ijtimoiy xizmat ko'rsatish vositasi sifatida qaraldi. Evropa, SHimoliy Amerika va YAponiya kabi mamlakatlarda munitsipal kengashlar maqomi huquqiy jixatdan munitsipal ijroiya boshqaruvidan yuqori qo'yilgan bo'lib, ularning vakolatiga quyidagilar kiradi: mahalliy byudjetni qabul qilish, yuqori tashkilotlar tomonidan hal qilinmagan ayrim masalalar bo'yicha me'yoriy qarorlar qabul qilish, mahalliy soliqlarni joriy etish, qarzlarni olish va ularni ishlatish masalalarini hal etish, munitsipalitetga qarashli mulkni tasarruf etish, shuningdek, ko'pchilik davlatlarda munitsipalitetning ijroiya rahbarlik organlarini tashkil etish va ularni nazorat qilish, mahalliy referendumlarni uyushtirish AQSH ijtimoiy-siyosiy hayotida ham munitsipalitetlar muhim o'rin egallaydi. CHunki, bu mamlakatda munitsipal boshqaruv funksiyalarini nomarkazlashtirish prinsipi keng qo'llaniladi. Munitsipal maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, sanitariya ishlari, suv bilan ta'minlash, parklar, yong'inga qarshi xizmatlarni boshqarish asosan munitsipal kengashlar tasarrufidadir. Ayrim mamlakatlarda (masalan, Germaniyada) kengashlar o'z vakolatlarini ijroiya organlarga berish huquqiga ham egadirlar.

Mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining asosiy instituti sifatida yildan-yilga takomillashib bormoqda. SHuningdek, mazkur organlarning boshqaruv tizimidagi ko'lamining kengayib borishi bilan huquqiy davlatning o'z vakolatlarini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirishi uchun qulay va keng imkoniyatlar paydo bo'lmoqda.

Mustaqillikning ilk davridan boshlab O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov mahallalarni fuqarolik jamiyatining asosi deb bildi va ularni har

tomonlama rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirib bordi. Prezident I.A.Karimov 1995 yildayoq shunday fikrni bildirgan edi: “Ma’lumki, asrlar mobaynida mahallalarda ko‘pdan-ko‘p hayotiy muammolar o‘z echimini topib keladi. To‘y-ma’rakalar ham, hayitu hasharlar ham mahalla ahlisiz o‘tmaydi. Mahallalarda siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalarga doir jamoatchilik fikri shakllanadi. Bu esa halqimizning turmush tarzi, ota-bobolarimizdan bizga meros bo‘lib kelayotgan tafakkur tarzidir. Binobarin, hayotning o‘zi mahallalarni rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlashni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ko‘p qirrali islohotlar amalga oshayotgan bir paytda mahalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta’sirchan kuch bo‘lib hizmat qilishi lozim”.

Mustaqillik davrida mahallaning tashkiliy, ijtimoiy va huquqiy maqomini mustahkamlash borasida chuqur islohotlar amalga oshirildi. Eng avvalo, mahalla atamasi tarixda birinchi marta Konstitutsiyaga kiritildi. Unga aholining o‘zini-o‘zi boshqaruvining noyob shakli sifatidagi konstitutsiyaviy huquqiy maqom berildi. 1992 yilda O‘zbekiston Prezidentning «Respublika «Mahalla» xayriya jamg‘armasining faoliyatini yanada takomilashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 1998 yildagi «Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini qo‘llab-quvvatlash haqida»gi, 1999 yildagi «Aholini aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta‘minlashda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari rolini oshirish to‘g‘risidagi»gi Farmonlari, shuningdek, kam ta‘minlangan va ko‘p bo‘lajak oilalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qator farmon, qarorlar, qonunlar va boshqa me‘yoriy hujjatlarni e‘lon qilinganligi uning isbotidir.

Hozirgi davrda mahallalarni ijtimoiy mavqegini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar ikkita yo‘nalishni nazarda tutadi. Birinchisi ma‘naviy vazifa bo‘lib, u xalqimizning ming yillik tarixidagi noyob, eng aziz an‘analarni, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iborat. Ikkinchisi siyosiy vazifa bo‘lib, u mahalla institutini bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklash, shuningdek, viloyat, shahar, tuman hokimliklari zimmasiga yuklangan ko‘pchilik vazifa va huquqlarni fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga, ya‘ni mahallalarga berib, ular maqomini joy-joyiga qo‘yib, shu tariqa jamiyatimiz hayotini demokratiyalashda yangi va juda muhim imkoniyatlarga erishishdan iboratdir.

Ayniqsa, mahalla fuqarolar yig‘inlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar o‘tkazuvchi uchastka saylov komissiyalari a‘zoligiga nomzodlarni okrug saylov komissiyalari tasdiqlashlarini tavsiya etish huquqi berilgan. SHuningdek, mahalla fuqarolar yig‘inlariga xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi deputatligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomzod ko‘rsatish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga tashabbus guruhlari tomonidan ko‘rsatiladigan nomzodlarni taklif etishda ishtirok etish kabi vakolatlar va huquqlarning berilishi mahallalarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari sifatida jamiyatimiz siyosiy hayotidagi o‘rnini yanada oshib borayotganligini ko‘rsatadi.

Albatta, davlat tomonidan mahallalarga katta boshqaruv vakolatlarini berishda avvalo, ularning aholi faolligini oshirishdagi o‘rnini yuksaltirish ko‘zda

tutildi. Chunki, mahalla fuqarolar yig'inlarida etarlicha huquq bo'lmasa, ular o'zini o'zi boshqarish funksiyalarini bajarish qobiliyatiga ega bo'la olmas edilar. SHuningdek, mahallalarning aholi va davlat oldida mas'uliyat sezishlari uchun ham avvalo keng huquqlarga ega bo'lishlari lozim edi.

Hozirgi davrda jamiyatning siyosiy sohasini erkinlashtirish maqsadlaridan kelib chiqib, mahalla fuqarolar yig'inlariga boshqaruvning turli yo'nalishlariga etakchilik qilish vakolatlari berildi. Mahallalar o'z hududida yashayotgan fuqarolarning turli ijtimoiy muammolarini hal qilib berishda bevosita ishtirok etadilar: qariyalar, fahriylar, etimlar, baynalmilal-harbiylar, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar manfaatlari himoya qilinadi; mahalla faollarining mazkur faoliyatda ishtirok etishiga boshchilik qiladi; insonni ma'naviy yuksalishi va amaliy tashabbuslarini namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit yaratadi; fuqarolar moddiy va ma'naviy jixatlardan qo'llab-quvvatlanadi.

Mahalla fuqarolar yig'ini ijtimoiy ta'minot organlari va boshqa homiy tashkilotlar bilan birgalikda ijtimoiy yordam, kam ta'minlangan oilalar va yolg'iz kishilarga beg'araz moddiy yordam ajratish ishining barcha tashkiliy jixatlarini o'zi mustaqil ravishda bajaradi. SHu bilan birga, mahallalar o'z hududlarida ekologik muammolarni echish va aholi moddiy ahvolini yaxshilash, hashar yo'li bilan ko'kalamzorlashtirish, tozalash ishlariga jalb qilish, mahalliy aholi o'rtasida atrof-muhitni asrash yuzasidan tushuntirish va tarbiyaviy ishlar olib borishga ham mas'uldir. Albatta, bu kabi faoliyatlar fuqarolar faolligini oshirish vositasida amalga oshirilmoqda.

SHu bilan birga, ko'plab qonunlar loyihalari, Konstitutsiyaga kiritiladigan qo'shimcha va o'zgarishlarni o'zida ifodalagan umumhalq referendumlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish avvalo mahalla ahli va faollari tomonidan muhokama qilinmoqda va qo'llab-quvvatlanmoqda. Boshqacha aytganda, mahallalar siyosiy qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini faollashtirishning muhim vositasi ekanligini hayotning o'zi isbotlab berdi. Mamlakat siyosiy hayotida fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini ta'minlab beruvchi asosiy bo'g'in - bu mahalla fuqarolar yig'inlaridir. SHuningdek, fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan birdan-bir boshqaruv tizimi ham mahalla fuqarolar yig'inlaridir.

Respublika «Mahalla» hayriya jamg'armasi, uning viloyat, shahar, tuman bo'limlari bilan hokimliklar hamkorligida har yili «Eng yaxshi mahalla», «Eng ibratli oqsoqol», «Mahalla jonkuyari», «Eng tadbirkor mahalla oqsoqoli» shiori ostida muttasil ko'rik-tanlovlar o'tkazib kelindi. Ko'rik-tanlovlar g'oliblari har yili obro'li komissiyalar tomonidan mahsus nishonlar, qimmatli esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar. Mazkur tadbirlar mahallalarni obodonlashtirish, ozoda saqlash, ayniqsa yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillik davrida mahallalar fuqarolar yig'inlari oqsoqollari, «Mahalla» jamg'armasi va uning mahalliy tashkilotlari rahbarlarining sifat tarkibi yaxshilanib bordi.

Mustaqillik davrida o'zini o'zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida isloh etish o'zining samarasini berdi. Mahallalar mamlakatdagi

aholini o'zini o'zi boshqarish jarayonlarida ishtirok etishlari, qarorlar qabul qilishda fuqarolar hohish va istaklarini e'tiborga olishga imkoniyatlar yaratishi bilan fuqarolik jamiyati institutiga aylanib bormoqda. SHuningdek, hozirgi davrga kelib davlatning aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni aniqlash kabi vakolatlari ham deyarli mahallalarga berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgarigidek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o'rin egallaydi, deb ishonamiz.

"Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz avvalo ana shu ijtimoiy institutlarning kuch va imkoniyatlariga tayanamiz.

SHu munosabat bilan xalq hokimiyatining eng muhim poydevori sifatida jamoatchilik nazorati institutini kuchaytirish bo'yicha mamlakatimiz Konstitutsiyasining 32-moddasida, shuningdek, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida», «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi qonunlar va boshqa hujjatlarda muhrlab qo'yilgan talablarning ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor qaratamiz"<sup>1</sup>.

Mustaqillik yillarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xususan, mahalla institutiga davlat va jamiyat boshqaruvida ularning vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan ko'plab amaliy ishlar qilindi. Jamiyatning asosiy axloqiy poydevorlaridan biri bo'lgan mahallaning mavqeini oshirish, vakolatlarini kengaytirish bilan bog'liq bir qator qonunlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida SHaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lishi mustahkamlanib, konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ldi. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi, "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlari qabul qilindi.

Alohida ta'kidlash kerak, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 3 fevral kuni qabul qilingan "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon qadriyatlar beshigi sanalmish milliy demokratik institut bo'lishi mahallalarning rolini yanada kuchaytirish, ularning xalqimiz hayotidagi o'rni va nufuzini yanada oshirish borasida muhim ahamiyatga egadir.

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "qaysi mahallada ish to'g'ri tashkil etilib, fuqarolar bilan yaqin hamkorlik o'rnatilgan bo'lsa, o'sha erda

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Халқ сўзи газетаси. 9.12.2016.

hamjihatlik, mehr-oqibat muhiti hukm surmoqda, noxush holatlarga yo‘l qo‘yilmayapti”. SHu bois mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil va tizimli islohotlarning hozirgi shiddatli bosqichida mahallalarni yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish davr taqozosidir.

Birinchiidan, “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon mamlakatimizda adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zamonaviy talablari asosida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta‘minlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan.

Ikkinchiidan, bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Bunday keskin va tahlikali sharoitda mahalla-ko‘y ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik bilan birgalikda bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishi lozim.

Bunda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, yoshlarning oiladagi xulq-atvoridan tortib, maktabgacha ta‘lim muassasalari, maktablar, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalaridagi ta‘lim-tarbiyani ham qamrab olgan holda, izchil jamoatchilik nazoratini olib bormog‘i talab qilinadi. SHu bois farmonda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yoshlarning ma‘naviy va jismoniy kamoloti yo‘lida davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligini yanada mustahkamlashiga yo‘naltirilgan masalalar o‘z aksini topdi.

Uchinchiidan, farmonda fuqarolar yig‘inlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga doir amaliy choralar ham belgilangan. YA‘ni fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalar sport maydonchalari, maishiy xizmat ko‘rsatish ob‘ektlarini tashkil etish maqsadida 2017 — 2021 yillarga mo‘ljallangan hududiy dasturlar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Mahallalar kesimida, chuqur tahlil asosida, har bir hududning o‘ziga xos xususiyat va imkoniyatlari, talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tayyorlanadigan ushbu dasturlarning joylarda to‘laqonli bajarilishi mahallalarning har tomonlama obod va farovon bo‘lishini ta‘minlaydi.

Ma‘lumki, keyingi besh yilda fuqarolar yig‘inlarining 1600 ga yaqin xizmat binolari joriy, 367 tasi kapital ta‘mirlandi va 350 dan ortig‘i rekonstruktsiya qilindi, namunaviy loyihalar asosida 216 ta bino yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi. Farmonda ko‘rsatilganidek, 2018 yilning 1 dekabriga qadar tumanlar va shaharlar markazlarida “Mahalla markazi” majmualari binolarining namunaviy loyihalar asosida barpo etilishi bu kabi muammolarning echim topishiga olib keladi.

To‘rtinchiidan, farmonda mahalla fuqarolar yig‘inlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish bo‘yicha mustaqilligini ta‘minlash, o‘zini o‘zi boshqarish tizimida ortiqcha bo‘g‘inlardan voz kechish maqsadida — tarkibida mahallalar tuzilgan shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig‘inlarini mahalla fuqarolar yig‘inlariga birlashtirish va bo‘lish yo‘li bilan qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nazarda tutilgan.



“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da Prezidentimizning ushbu farmoni qabul qilingani mahallalar zimmasiga alohida mas’uliyat yuklaydi. Eng muhimi, farmonda belgilab berilgan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va yuksak samaradorlik bilan hayotga tatbiq etilishi, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, mahallalarning joylarda xalqning maslakdoshi va ko‘makdoshiga, ta’bir joiz bo‘lsa, “adolat tarozisi”ga aylanishini ta’minlaydi.

SHu bilan birga, mahallalardagi tinch va osoyishta hayotni ta’minlash, oilalarni mustahkamlash chora-tadbirlarini ko‘rish, etimlar va yolg‘iz qolgan fuqarolarga mehr-muruvvat ko‘rsatish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishga doir intilishlarini qondirish kabi serqirra jamoaviy boshqaruv ham mahalla fuqarolar yig‘inlari faoliyatining asosiy yo‘nalishini tashkil etmoqda. Lekin, shu bilan birga o‘zini o‘zi boshqarish organlarini demokratlashtirish jarayonlari hali davom etadi. Ayniqsa, aholining huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish, siyosiy qarorlar qabul qilishda mahallalarning o‘rnini yuksaltirish, mahallalarni mahalliy davlat hokimiyati organlaridan to‘la mustaqil bo‘lishini ta’minlaydigan huquqiy mexanizmlar yaratish, fuqarolarni mahallalar vositasida qonunlar ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlaridagi umumhalq muhokamalarida faol ishtirok etishlarini ta’minlash yaqin istiqboldagi islohotlarning asosiy vazifasidir.

Mustaqillik yillarida yurtimizda yosh avlodning har jihatdan barkamol bo‘lib voyaga etishi uchun kerakli imkoniyatlar yaratilib, ko‘pgina xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Onalik va bolalikning ijtimoiy muhofazasi, sog‘lom oila muhitini, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, bolalarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish, ularni sportga, qo‘shimcha ta’limga jalb etish, sog‘lomlashtirish va profilaktika, kasbga yo‘naltirish, har taraflama uyg‘un rivojlangan etuk shaxsni tarbiyalash borasidagi sa’y-harakatlar e’tiborga molikdir.

Har qanday davlatning taqdiri, kelajagi yosh avlodga, uning ma’naviy, jismoniy, kamolotiga bog‘liq. Jismonan baquvvat, imon e’tiqodli, bilimli, ma’naviyati yuksak, vatanparvar, barkamol avlod – jamiyat taraqqiyotining asosi ekanligi ko‘z oldimizda gavdalanadi. Bunday komil yoshlar tarbiya maskani bo‘lmish mahallada ulg‘ayadi.

Mahalla qadim-qadimdan ezgulik beshigi, tarbiya o‘chog‘i, yashash tarzi, milliy udumlar, urf-odat va an’analar shakllangan maskan bo‘lib kelgan. Insonlarning bir biriga mehr-oqibatli, muruvvatli, saxovatli bo‘lishida va o‘ziga xos jamoani shakllantirishda mahallalar juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu maskanning hayotimizdagi tarbiyalovchi vazifasi shu qadar sezilarliki, so‘nggi paytlarda “mahalla” va “tarbiya” tushunchalari yonma-yon ishlatiladigan bo‘lgan. Zero, “tarbiya” tushunchasining asl ma’nosi, bu – insonning o‘zi va o‘z xulqi haqidagi tasavvurining to‘g‘ri va xolis bo‘lishini ta’minlovchi murakkab jarayon. U bevosita uni o‘rab turgan insonlardan, oila a’zolari, mahalladoshlari, yor-do‘stlaridan ayri tushunilmaydi. Psixologik adabiyotlarda “Do‘sting kimligini ayt sening kimligingni aytib beraman” degan tushuncha bor. Xuddi shunday,

mahalla hamisha fuqarolarining xulq-atvori, oilalarning yashash tarzidan xabardor bo‘ladi, kerak bo‘lsa xulqiga ta’sir ko‘rsata oladi.

“Oila, mahalla, ta’lim muassasasi” hamkorligi mexanizmini kuchaytirish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar majmuasida “Oila, mahalla, ta’lim muassasasi” jamoat kengashlarini shakllantirish va ularning faoliyatini tashkil etish, o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida g‘ayriijtimoiy harakatlarning vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlarini o‘rganish, ularni bartaraf etish, barkamol avlodni tarbiyalashga doir ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning samaradorligini oshirish va ularni mazmunan yanada takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Ushbu hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish o‘smirlar orasida tartibbuzarlik, jinoyatchilik va shunga o‘xshash noxush holatlarning oldini olishda muhim tarbiya vositasidir.

Ma’lumki, ta’lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo‘lishi asosiy qonunimiz – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (41-modda) belgilab qo‘yilgan. Bosh-qacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq.

Tarbiya – tub mohiyati bilan davlat ko‘lamida amalga oshiriladigan ishdir. Har bir bolaga munosabat ota-onaning ham, o‘qituvchining ham, jamoatchilikning ham millatga, Vatanga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Demak, tarbiyani faqat oilaga, ta’lim muassasasiga tashlab qo‘ymay, butun jamoatchilik, ya’ni davlat va nodavlat tashkilotlari yaqin hamkorligida olib borilsagina o‘sib kelayotgan yosh avlod barkamol bo‘lib voyaga etadi.

Jismonan sog‘lom, ma’naviy etuk avlodni tarbiyalashda oila instituti, ota-onalar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlash maqsadida Kosonsoy tumanida Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi “Barkamol avlodni tarbiyalash-da oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 175-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida ham bir qator ijobiy ishlar reja asosida amalga o-shirilmoqda.

Barcha ta’lim muassasalarida shu asosda ma’naviy va ma’rifiy mavzulardagi tadbirlar, sport musobaqalari, davra suhbatlari, tar-g‘i-bot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Ta’lim muassasalarida “Oila, mahalla, ta’lim muassasasi hamkorligi” markazlari va ishchi guruhlarini tashkil etildi. Tashkil etilgan ishchi guruh zimmasiga belgilangan reja asosida ish tashkil etish va uni nazorat etish vazifalari yuklatilgan. Rejaga ko‘ra ota-onalar, mahalla fuqarolar yig‘ini vakillari, faollar, xotin-qizlar qo‘mitalari a’zolari o‘zaro hamkorlikda quyidagi ishlarni, masalan: har bir ta’lim muassasasining bevosita mahalla yoki oilalar bilan hamkorlikda mavjud

kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish, notinch oilalar farzandlarini darslarga qatnashishi va bilimlarni o'zlashtirishining muntazam monitoringini olib borish. SHuningdek, bunday oilalar farzandlarini o'quv jarayoniga faol ravishda jalb etish, ularni tajribali pedagoglarga birlashtirish, notinch oila farzandlarining ruhiy holatini o'rganib borish, zarur hol-larda ular uchun qo'shimcha mashg'ulotlarni, sport va bolalar ijodi bilan shug'ullani-shini tashkil etish, notinch oilalarni tarbiyalashda o'quv-metodik va ijtimoiy ko'makni ta'minlashni keltirish mumkin. Ta'lim muassasalarining faoliyatini yanada kuchaytirib bola tarbiyasiga alohida e'tiborli bo'lish, darslarga muntazam qatnashmaydigan, huquqbuzarlikka moyil, turli sabablarga ko'ra nazoratsiz qolayotgan o'quvchilarni ta'limga jalb etish maqsadida ish tashkil etish vazifalari belgilab olingan. Joylarda bu boradagi ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida ota-onalar kengashlari va mahalla faollari bilan uzluksiz hamkorlik ishlari olib borilmoqda.

Maktablardagi "Maslahatchi otaxonlar va buvijonlar maktabi" a'zolari, tumanlardagi "Mahalla" xayriya jamoat fondi bo'linmasi, Kamolot YIH, masjid imomlari, hokimlik vakillari, tuman markaziy shifoxonasi shifokorlari bilan hamkorlikda "O'zbekiston yoshlari – narkomaniya va giyohvandlikka qarshi" mav-zusida kengaytirilgan davra suhbatlari va shu mavzudagi hujjatli filmlar namoyishi o'tkazildi. Barcha ta'lim muassasalarida Madaniyat va sport ishlari vazirligi tashabbusi bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, "O'z-bekino" milliy agentligi, "O'zbeknavo" estrada birlashmasi, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi hamda YOshlar madaniyat va san'at markazi tomonidan "Kim edigu kim bo'ldik, ertaga qanday yuksak marralarni egallashimiz kerak?" mazmunidagi targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Targ'ibot tadbirlari davomida yoshlarni vatanparvarlikka undovchi, tinchlik va osoyishtalikni ko'z qorachig'idek asrashga da'vat etuvchi, shuningdek, g'arazli g'oyalar va turli kuchlarning jinoyatkorona harakatlarini fosh etuvchi "Ajajodusi", "Gumrohlar", "Jasur", "Sotqin", "Afg'on", "SHunqorlar" kabi badiiy filmlari namoyish etildi.

Tumanda yoshlar va voyaga etmaganlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibot va tash-viqot ishlarining ta'sirchanlik darajasini oshirish, umumta'lim maktablarida muntazam darsga kelmayotgan o'quvchilarni ta'lim muassasalariga jalb etish, o'quvchilarni jamoat ishlaridagi ishtiroki, jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan targ'ibot va tashviqot ishlarini jonlantirish, "Oila, mahalla, ta'lim muassasasi" hamkorligini oshirish, ta'lim-tarbiya ishlarini yanada kuchaytirish, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini

olish borasida olib borilgan ishlar natijasida jinoyatchilik va huquq-buzarliklar kamayganligi bunga yaqqol misoldir.

2016–2017 o‘quv yili boshidanoq barcha ta‘lim muassasalarining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, xotin-qizlar qo‘mitasi raislari, sinf rahbarlari, maktab psixologlari bilan hamkorlikda notinch oilalar, turmushida noxush voqea sodir bo‘lgan oilalar farzandlarini ichki kechinmalari, dunyoqarashi hamda ruhiy holatidan doimiy xabardor bo‘lishi, ota-onalar bilan uzviy va samarali aloqada bo‘lish, barcha umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida sinf rahbarlarining ota-onalar bilan doimiy aloqada bo‘lishlarini yanada jonlantirish maqsadida o‘zaro aloqa daftarlari yo‘lga qo‘yilgan. Bundan tashqari, o‘zlashtirishi sust o‘quvchilarda kasbiy ko‘nikmalar hosil qilish, fan va kasb to‘garaklarining roli va ularni to‘garaklarga jalb etish, yoshlar ongiga umum-insoniy qadriyatlarni, milliy axloq va odobni singdirish, o‘quvchilar qalbida Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish kabi keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

O‘ylaymizki, ulkan maqsadlar tomon tashlayotgan har bir qadamimiz yurtimizning porloq kelajagi uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

## **2. O‘zini o‘zi boshqarish organlarining millatlararo munosabatlarni rivojlantirishga ta‘siri: milliy tajriba, muammolar va echimlar**

Insonning shakllanishi, ijtimoiy munosabatlarni real borliq, zaruriyat sifatida anglab, o‘zida ratsional xislatlarni tarbiyalashi oila va mahalla institutlariga bog‘liqdir. Kishi o‘z umrining asosiy qismini oila va mahalla muhitida o‘tkazadi, o‘zidagi fazilatlarda esa o‘sha muhitning ta‘sirini ifoda etadi, chunki shaxsga xos tipologik belgilar oila va mahalla institutlarining ta‘siri tufaylidir. SHaxs o‘z millatining tipologik belgilarini tan olishi, ammo uning o‘yi, fikri, intilishi, hattoki, ruhi boshqa tipologik belgilarga qaratilishi mumkin. To‘g‘ri, shaxs bir milliy makonda yashab turib, batamom boshqa tipologik belgilarga ergasha olmaydi, lekin u ma‘lum bir sub‘ektiv qarashlarida, xatti-harakatlarida, qiziqishlarida boshqa tipologik belgilarga moyilligini namoyon qila oladi. Aslida bu inson xarakteri va madaniyati ma‘lum bir transformatsion o‘zgarishlarga moyilligini ko‘rsatadi, ayrim kishilarning boshqa tenstik e‘tiqod hukmron bo‘lgan muhitda yashab turib, undagi axloqiy normalarga ergasha turib islom diniga kirganiga, islomiy-axloqiy qadriyatlarni e‘zozlashga o‘tganiga ko‘plab misollar keltirish mumkin. V.Qo‘chqorov to‘g‘ri qayd etadi: «Etnik rang-baranglik, internatsional muhit tipologik belgilarga ta‘sir etmay qolmaydi, jamiyatda millatlararo munosabatlar qanchalik rang-barang bo‘lsa, rang-barang tipologik belgilarga intilish ham shunchalik kuchli namoyon bo‘ladi. Ammo bu titul millatning tipologik belgilari mudom etakchilik qilishini inkor qilmaydi».

Tipologik belgilar barqaror muhitda qaror topadi. Barqarorlik esa muhitdagi an‘analar, normalar, qarashlar va qadriyatlarni diaxron tarzda kelgusi avlodlarga

etkazilishini talab etadi. Diaxron aloqalar buzilgan zahoti etnik tipologik xususiyatlar o'zgarib boshlaydi, ijtimoiy muhit manfaatlarining shaxs, kishi manfaatlari bilan aynanlashuvi ziddiyatli hodisaga aylanadi. Manfaatlarning aynanlashuvi, uyg'unlashuvi SHarq xalqlariga xos paradigma, hayot tarzidir. Bunday aynanlashish, uyg'unlashish barqaror ijtimoiy muhitda, e'zozlanadigan umumiy qadriyatlar qaror topgan makonda ro'y beradi, ular sun'iy tarzda, tazyiq ostida sodir bo'lmaydi. Aynanlashish, uyg'unlashish xalq, millatga oid ma'naviy boyliklarni chuqur bilmay o'zini xalq, millat bilan aynanlashtirish o'zini o'zi aldash, demakdir. Ma'lum muammo, to'siq, sinov yuzaga kelganida, bunday shaxs aynanlashtirishdan osongina voz kechadi va boshqa qadriyatlarga ergashadi. To'g'ri, u mutlaq boshqa millat vakiliga aylanmaydi, bunday transformatsiyaning sodir bo'lishini tasavvur qilib bo'lmaydi, lekin u ma'naviy qadriyatlarini o'zgartirishi mumkin.

Oila va mahalla muhitida shakllangan etnik tipologik belgilar yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Masalan, biz kishining kiyinishi, qadam tashlashi, yon-atrofga e'tibori, dialekti, boshqalarga munosabati, tashqi ko'rinishi kabi belgilarga qarab, to'la aniqlab berolmasak-da, uning qaysi viloyat, qaysi millat yoki etnik uyushma vakili ekanini tasavvur qilamiz. Bu ilm-fanda etnostreotiplar deb ataladi.

Oila va mahalla shaxsga, eng avvalo, o'zining asosiy funksiyalari orqali ta'sir etadi. Mazkur funksiya ijtimoiy-demografik holat, vaziyat, omillar bilan bog'liqdir.

Ijtimoiy-demografik vaziyat aholining oila institutiga munosabati, yoshlarning oila bo'lib yashashining holatini ifoda etadi. Xalqimizda bu qadriyat, mudom e'zozlangan. Qur'oni Karimda aytilganidek: «Alloh sizlar uchun o'zlaringizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun bolalar, nabiralar paydo qildi va sizlarni pok narsalardan, rizqlardan bahramand qildi». Islomda «Erkak va ayolning asli bir, ularni Alloh taolo bir jondan yaratgan deb e'tiqod qilinadi. Ularning tuzilishlari bir-birlaridan orom olishlari, «Oila» deb nomlangan oshyonda istiqror, xotirjamlik va unsu ulfat topishlari uchundir». Oila institutini e'zozlash respublikamizdagi ijtimoiy-demografik holatda ham ko'zga tashlanadi. Masalan, 1990 yili nikohga kirish 217,1 mingni, 2000 yilda 168,9 mingni va 2010 yilda 283,3 mingni tashkil etgan. Ajralish esa 1990 yili 29,9 ming, 2000 yili 19,9 ming, 2010 yili esa 20,6 mingga to'g'ri kelgan. Demak, respublikamiz aholisi o'rtasida oila tuzishga intilish yuqori ko'rsatkich beradi, ajralish esa kamayish xususiyatiga ega. Biroq milliy-etnik nuqtai nazardan oilaga munosabat har xilligi ham ko'zga tashlanadi. Masalan, Toshkent viloyatida 1990 yili oila qurish 22 ming atrofida, 2000 yili 17 ming va 2013 yili 24,2 mingni tashkil etgani holda, yangi oilalarning 1990 yili 54 foizini, 2000 yil 51 foizini, 2013 yili 67 foizini o'zbek millati vakillari tashkil etgan. Ajralish 1990 yili 10,2 ming, 2000 yili 8,7 ming, 2013 yili 11,4 dan iborat bo'lgan. Ajralish o'zbek yoshlari orasida 2000 yili 36 foiz, 2010 yili 38 foiz, 2013 yili 26 foiz atrofida bo'lgan. Slavyan etnosiga oid kishilar orasida ajralish 2010 yili 47 foizni, 2016 yili 45,2 foizni tashkil qilgan (Hisob-kitob Toshkent viloyati davlat arxividagi manbalarga asosan qilingan).

Oilaviy munosabatlarni farzandlarsiz tasavvur etish qiyin. Agar G'arb va AQSHda yakka yashash, oila qurib farzand ko'rishni istamaslik oddiy hol

hisoblansa, o'zbek xalqi uchun u g'ayrihayotiydir. R.Ubaydullaevaning keltirishicha, shaharlik respondentlarning 15,8 foizi bitta, 28,7 foizi ikkita farzand bo'lishini ma'qul ko'radi. Toshkent shahrida esa bitta farzand ko'rishni, 25,7 foiz, ikkita farzand ko'rishni 21,6 foiz, uchta farzandni 28,4 foiz, to'rtta va beshta farzandni 4,7 foiz, oltita farzandni 2,0 foiz, ettita va sakkizta farzandni 0,7 foiz respondentlar istaydi. O'zbekiston bo'yicha respondentlarning 12,4 foizi oilada – bitta, 25 foizi – ikkita, 23,6 foizi – uchta, 12,3 foizi – to'rtta, 6,5 foizi – beshta, 4,9 foizi – oltita, 0,4 foizi – ettita, 0,6 foizi sakkizta farzand bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Qizig'i shundaki, slavyan etnosiga taalluqli kishilar orasida ikkita farzand ko'rganlar (nikohga kirganlarga nisbatan) 20,1, uch farzandli 29,0 va to'rt farzandli oilalar 12 foizni tashkil qiladi. Rossiya va boshqa slavyan davlatlari aholisi yildan yilga kamayib ketayotgan bir paytda, respublikamizda slavyan etnosiga mansub aholi vakillarining ham oila qurib, farzand ko'rishga intilayotganini ibrat qilib ko'rsatish mumkin.

Oila shaxsga xos bo'lgan identifikatsiyalashni bartaraf etmaydi. Inson o'zini u yoki bu etnosga, madaniyatga, guruhga, kasb-kor, shahar, viloyat yoki mahalla vakili ekanini unutmaydi. Goho u o'zining biror dinastiya, avlodlar shajarasi vakili ekanligi bilan faxrlanadi. Bu etnoegoizm yoki natsizm emas, balki shaxsda tarixiy xotiraning mavjudligi belgisidir. Turli milliy-etnik guruhlar vakillari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma natijalari ko'rsatadiki, respondentlarning 72,7 foizi (bu 2001 yili 46,2 foizni tashkil etgan) o'zini O'zbekiston Respublikasi fuqarosi deb biladi, ularning 60,6 foizi o'zini ma'lum viloyat va 59,2 foizi ma'lum bir etnos vakilideb hisoblaydi. Respondentlarning 85,7 foizi o'zini ma'lum bir madaniy qiziqishlari bor, hayot tarzi yaqin birlik, 71,0 foizi ma'lum bir avlod, 30,1 foizi ma'lum bir kasb-korga ega kishilar guruhi vakili deb hisoblaydi. Javoblardan ma'lum bo'ladiki, respondentlarning 59,2 foizi o'zining millatini, etnosini yoddan chiqarmaydi, oilaviy hayotini ana shu etnomadaniy qadriyatlarga muvofiq tashkil etishga moyilligini bildiradi. E'tiborli jihati shundaki, respondentlarning 94,2 foizi an'anaviy hayot tarzi tarafdorlaridir. YA'ni o'zbek xalqiga xos bo'lgan oilaviy hayot tarzi, milliy an'analarga asoslanish, qarindosh-urug', mahalla, qo'shnilar bilan inoq yashash, boshqa millat va etnos vakillari fikriga ijobiy ta'sir etgan. SHu bilan birga, 18–20 yoshdagi respondentlarning aksariyati evropacha, 0,7 foizi (keksa kishilar) esa islomiy hayot tarzi tarafdorlari ekanini bildirishgan.

Oila millatlararo munosabatlarni rivojlantirishga ta'sir etadi. To'g'ri, internatsional oila tarkibida keyingi yillarda o'zgarishlar sodir bo'ldi. Masalan, Toshkent shahri va viloyatida internatsional oilalar soni 1991–1994 yillarda deyarli 40–42 foizga qisqarganligi kuzatiladi, biroq 2010 yilga kelib ular yana osha boshlaydi. 2013 yili umumiy nikohning 18 foizi, 2015 yili 20 foizi turli millat va elat vakillarining ittifoqi natijasidir.

Oila va mahalla bir-biriga nafaqat makonda, shuningdek mohiyatan dialektik bog'liq ijtimoiy institutlardir. Ularning bir-birini qo'llab-quvvatlashi tufayli yurtimizda tinchlik, osoyishtalik, millatlararo hamkorlik, ittifoq mavjud. SHu orqali tarixiy-madaniy merosimiz e'zozlanmoqda, qadr topmoqda. Biz,–deydi I.A.Karimov, – qishloq, ovul va mahalla komitetlarining juda ko'p sonli otryadiga etarli baho bermaganligimizni tan olishimiz kerak. Keyingi paytlarda odamlarning

turmush tarziga, ularning xulqi va kayfiyatiga odatda qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlariga saylanadigan hurmatli oqsoqollarimiz ta'sir ko'rsatuvchi kuch ekanligini unutib qo'ygan edik. Mahalla sharoitida o'sib voyaga etgan kishilar shuni yaxshi biladilarki, har bir kishi va oila uchun ularning qo'shnilari va umuman mahalla beradigan bahodan zo'r narsa yo'qdir. YOshlar, ularning otanalari va avlodlari uzoq yillar davomida misqollab oila obro'sini topganlar. Odamlar ko'z o'ngida ana shu obro'ni saqlab qolish uchun kurashmaydigan kishini men tasavvur qilolmayman. Oila obro'sini yo'qotish ko'pchilik uchun o'lim bilan barobar. Qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyatining bosh maqsadi, u erda yashovchilarning farovonligini ta'minlashdan iborat.

SHu nuqtai nazardan qaraganda, mahalla xalqimizning o'zi asrlar davomida ijod qilgan tom ma'nodagi demokratik idora tariqasida odamlarning siyosiy, ijtimoiy saviyasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning «otang – mahalla, onang –mahalla» degan naqli ham aynan shu ma'noda aytilgan, desak, aslo xato bo'lmaydi»<sup>1</sup>.

Maxsus tadqiqotlar ko'rsatadiki:

Birinchi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishining asosiy bo'g'ini bo'lmish mahalla yaqinda tashkil topgan emas, u o'z ichiga bir necha ming yilliklarni oladigan qadimiy institutdir. Mahalla o'zbek xalqining kundalik ijtimoiy hayotini va turmushini tashkil qilish davomida vujudga kelgan va asrlar davomida takomillashtirib borgan.

Ikkinchi, mahalla yangi demokratik institut bo'lib, u jamiyatni demokratlashtirib boruvchi, keng xalq ommasining davlat va jamiyat hayotini boshqarishda erkin, xolis, beg'araz, ixtiyoriy ishtirok etishini ta'minlovchi, O'zbekistonning o'ziga xos betakror, noyob xalqchil boshqaruv institutidir.

Uchinchi, mahalla xalqlar va millatlar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shish imkoniga ega bo'lib, u etnomadaniy aloqalarning yuksalishini ta'minlay oladi. Mahalla internatsional borliqni shakllantirish va rivojlantirish instituti funksiyasini bajaradi.

Fuqarolik jamiyatining faoliyat doirasi aholining ijtimoiy kam himoyalangan guruhlariga yordam ko'rsatish, ta'lim-tarbiyani rivojlantirish, giyohvandlikka, terrorizmga qarshi kurash, ko'p millatli jamiyatning an'ana va madaniyatini saqlash, millatlararo nizolarni tinch yo'llar bilan hal etish, shaxs huquqlarini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi muammolarning hal etilishini qamrab oladi. Bu faoliyat turlarining barchasi mahallada amalga oshadi va o'z navbatida, fuqarolik jamiyati rivojiga ta'sir ko'rsatadi.

Mahalla –xalqimizga xos donishmandlik timsoli. U mudom jozibasi, hayotiyligi, xalqchilligi, betakrorligi bilan kishilar diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. Qadimdan davlat o'zining ko'pgina ezgu amallarini, xosiyatli, barakatli tadbirlarini, hayotiy muhim masalalarini mahalla, undagi oqsoqollar, faollar aql zakovati, adolatli nazorati orqali amalga oshirib, hal qilib keladi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродаимизга боғлиқ. Т 12. –Тошкент: Ўзбекистон, 2004. -102 б.

Manbalar ko'rsatadiki, odamlar ko'chmanchilikdan o'troq hayotga o'tib, jamoa bo'lib yashay boshlaganlarida, mahalla tizimining ibtidoiy unsurlari, qadriyatlari, o'zaro mol ayirboshlash, topilgan ne'matlarni o'rtada baham ko'rish asoslari shakllana boshlagan. SHundan beri mahalla sharqona fikrlash, ish ko'rish, hayot tarzi bilan bog'liq, unda xalqimizning o'ziga xos fazilatlarini aks etadi. Mahalla ko'pmillatli aholini ahil-totuv yashashga, sidqidildan mehnat qilishga, kasb o'rganishga, munosib farzandlar tarbiyalashga chaqirgan.

Mahalla - sog'lom ijtimoiy muhit maskani. Unda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mavjud, u kishilarning xulq-atvorini, o'zaro munosabatlarini, hayot tarzini tartibga solib turgan. SHuning uchun YUrtboshimiz "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da shunday deydi: «Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqarish organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil davlatimiz fuqarolik jamiyatini barpo etishga kirishgach, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari –mahallalar imkoniyatini keng o'rganish boshlandi hamda «XXI asr mahallasi» konsepsiyasi ishlab chiqildi.Ushbu Konsepsiyaga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish to'g'risida»gi qonuni va BMTning «Mahalliy o'zini o'zi boshqarish butunjahon Xartiyasi» va «Mahalliy o'zini o'zi boshqarish Evropa Xartiyasi» metodologik asos qilib olindi.

Konsepsiyaning maqsadi O'zbekistonda insonparvar, huquqiy demokratik davlat qurish va uning negizida fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdan kelib chiqadi. Buning uchun mahallaning yangi shaklini yaratish, uning mavqei va nufuzini oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlash, davlat organlarining ayrim vakolatlarini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirishga o'tildi.

Konsepsiyada mahallaning birinchidan, fuqarolik jamiyatining quyi hududiy birligi, o'zini o'zi boshqarish maktabi, demokratiya darsxonasi ekanligini; ikkinchidan, jamoatchilik fikri asosidagi ijtimoiy adolat, ma'naviy-axloqiy mezonlar ustuvor sog'lom muhit maskanligi; uchinchidan, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, elu yurt sha'ni, or-nomusi uchun kurash, muqaddas insoniy fazilatlar kamolini ta'minlaydigan g'oyaviy-mafkuraviy makon; to'rtinchidan, aholini adolatli ijtimoiy muhofaza etishning xalq ishonadigan instituti, beshinchidan, etnomadaniy meros va milliy turmush tarzini asrash, milliy mentalitet tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi o'choq.

Mahallaning o'rni va nufuzini yanada oshirish maqsadida «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasi tashkil etilgan. Hozirda «Mahalla» jamoat fondi deb yuritiladi. Unga ko'ra fond:

- 1) tarixan tarkib topgan milliy va ma'naviy qadriyatlarni keng targ'ib qilish, xalqimizning eng yaxshi udum va an'analarini ommalashtirish, respublikada yashovchi barcha aholi o'rtasida madaniy va ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish;
- 2) insonparvarlik va mehr-shafqat, kishilar o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushunish va yaxshi qo'shnichilik an'analarini targ'ibu- tashviq qilish;



3) ko'pmillatli O'zbekistonda turli millatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik va do'stlik rishtalarini mustahkamlash;

4) har bir aniq hududda yashovchi kamxarj oilalar, nogironlar va bolalar manfaatlarini har tomonlama himoya qilish;

5) moddiy jihatidan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish;

6) mahalla hududini obodonlashtirish va boshqa ma'naviy- ma'rifiy tadbirlar o'tkazish kabi faoliyat turlarini olib boradi[3.167.108-109].

Fondga Xalq ta'limi, Madaniyat va sport ishlari, Sog'liqni saqlash vazirliklari bilan «Oila –mahalla – ta'lim muassasasi» dasturini ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash, madaniy-ma'rifiy ishlarni jonlantirish, aholi salomatligi va ekologik muhitni yaxshilash, sog'lom avlodni kamol toptirish ishlarini yanada rivojlantirish «O'zbekiston–Vatanim, mahallam–uyim» shiori ostida osoyishtalikni saqlash, jinoyatchilikning oldini olish hamda unga qarshi kurash ishlarida huquqiy organlarga amaliy yordam berish, turli xil millat va dinga mansub fuqarolar o'rtasida baynalmilal do'stlikni yanada mustahkamlash vazifalari topshirildi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam berish uchun maxsus hisob raqamlari ochildi, o'zini o'zi boshqarish tizimiga yuridik shaxs huquqidan foydalanish berilgan. Xalq banking tegishli bo'limlarida maxsus hisob varaqalari ochildi. Natijada, 1994 yil 1 oktyabrdan boshlab kam ta'minlangan oilalarga har oyda amaldagi eng kam ish haqqining 1,5 dan 3 barobargacha to'lovlar to'лана boshlandi. Ayni paytda, mahalliy davlat hokimiyati idoralari, tashkilot, korxonalar va tadbirkorlik tizimidan tushgan mablag'lar hisobiga kam ta'minlangan oilalarga qo'shimcha yordamlar ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Mazkur tadbirga muvofiq, respublikamizda istiqomat qiluvchi turli millatga mansub kam ta'minlangan oilalarni hisobga olish va ularga moddiy yordam tayinlash hamda to'lash to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi. Unda:

a) ijtimoiy adolatga so'zsiz rioya qilish;

b) yordamning manzilli bo'lishini va haqiqatdan muhtoj oilalarga berilishini ta'minlash;

v) ijtimoiy himoya choralariga boqimandalarcha yondashuvga yo'l qo'ymaslik;

g) turli millatga mansub oilalarning, ayniqsa bolalarning moddiy farovonligini oshirishda oilalar ma'suliyatini oshirish, har tomonlama jismoniy va ma'naviy rivojlanish, bilim hamda kasb-hunar darajasini oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlarni yaratib berish kabi asosiy vazifa qilib belgilandi.

Nizom «Oilalarga moddiy yordam tayinlash shartlari», «Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qilish tartibi», «Oilalarga moddiy yordamni to'lash tartibi»ni o'z ichiga oldi. Moddiy yordam so'rab murojaat qilgan oilalarning daromadlarini va mulkiy ahvolini tekshirish dalolatnomasi namunasi ilova qilinadigan bo'ldi. SHu tariqa turli millatga mansub bolalar oilalarga ijtimoiy yordam aniq berilishini kuchaytirish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari roli va ma'suliyatini oshirish chora tadbirlari ko'rildi.

2012–2015 yillarda «Mahalla»fondi turli nodavlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda 75931 ta tadbir oʻtkazgan. SHundan, 19672 tasi «Qariyalarni qadrlash yili», 8885 tasi «Sogʻlom avlod» davlat dasturini amalga oshirishga, 18999 tasi mahalla ahli huquqiy bilimni oshirishga va mahallalarda ijtimoiy-maʼnaviy muhitni sogʻlomlashtirish hamda aqidaparastlikning oldini olishga, 9818 tasi voyaga etmagan yoshlar tarbiyasi va ommaviy sportni rivojlantirishga, 7681 tasi toʻy va boshqa marosimlarni tartibga solish ishlariga yoʻnaltirilgan. Millatlararo munosabatlarni rivojlantirishga oid tadbirlar 2012 yili 1062 tani, 2015 yilda 1104 tani tashkil etgan.

Mahallaning millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda milliy madaniy markazlar bilan hamkorligini ijobiy baholash kerak. Jumladan, «Mahalla» fondi qozoq milliy madaniy markazi bilan birgalikda 2008 yili Xalqaro oqinlar aytishuvini tashkil etgan. Aytishuvga Qozogʻiston, Tojikiston, Oʻzbekiston va Xitoy Respublikalaridan jami 17 oqin va koʻplab xonanda hamda sozandalar tashrif buyurdilar. Aytishuvda oʻzbek, tojik va qozoq xalqlari orasida qadimdan mavjud boʻlgan doʻstlik, birodarlik, oʻzaro bir-biriga boʻlgan hurmatga asoslangan qoʻshiqlar tarannum etildi. Bosh mukofotga xitoylik oqin Qayrat Qulmuhammad, birinchi oʻringa Janubiy Qozogʻiston viloyatidan kelgan Aygul Turabekova, ikkinchi oʻringa oʻzbekistonlik Qulmaxan Duysenov, uchinchi oʻringa chimkentlik Aqmaral Leubaev sazovor boʻldi.

Toshkent shahar Rus MMM joylardagi mahallalar bilan hamkorlikda koʻplab madaniy-ommaviy bayramlar va tadbirlar oʻtkazib keladi. Masalan, bunday tadbirlar Toshkent shahrining Bektemir tumanida joylashgan «Rohat» (raisa Rossinskaya L.G), M.Ulugʻbek tumanining «Navbahor» (raisa Borisova S.V.), CHilonzor tumanining «Katta CHilonzor» (mahalla bosh maslahatchisi Sergeeva V.I.), Olmazor (S.Rahimov) tumanining «Obod» (raisa Karnauxova G.P.), Uchtepa(A.Ikromov) tumanining «Vatan» (raisa Poroshina V.A.) mahallalarida amalga oshirilgan. Milliy-madaniy markaz mahallalar orqali urush va mehnat fahriylarining 60 dan ortigʻini «Botanika» va «Turon» sanatoriyalarida hamda Rossiyaning Oʻzbekistondagi elchixonasi orqali Moskva shahridagi shifoxonalarda davolanishlarini tashkil etgan. SHuningdek, u «Navbahor» mahallasida IIB, prokuratura va hokimiyat vakillari bilan hamkorlikda 210 sonli maktabda voyaga etmaganlar huquqlari yuzasidan «Davra suhbatlari» tashkil etgan. Markaz har yili anʼanaviy ravishda YAngi yil, Rojdestvo, Maslennitsa, Navroʻz, slavyan madaniyati haftaligi, Pushkin kuni, Oʻzbekistonning mustaqillik kuni, birinchi qoʻngʻiroq, Konstitutsiya kuni va boshqa ommaviy bayramlarni mahalla faollari birgalikda uyushtirib kelmoqda.

Viloyatlardagi mahallalar bilan milliy madaniy markazlar oʻrtasida ijodiy hamkorlik ham tahsinga sazavordir. Jumladan, MMM faoliyatini muvofiqlashtirib boruvchi Namangan viloyati Kengashi 2002 yilning mart oyida viloyat hokimining «Millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash toʻgʻrisida» gi 33-sonli farmoyishi asosida tashkil etilgan. Bugungi kengash viloyatda faoliyat koʻrsatayotgan MMM rahbarlari, faollari hamda ularga daxldor davlat va nodavlat tashkilotlar bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, farmoyishlari, nutqlari, asarlari va respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan Qonunlarni

hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarini va RBMM yo‘riqnomalarini keng targ‘ibetmoqda.

2015 yilning «Keksalarni e‘zozlash» yili deb e‘lon qilinishi munosabati bilan viloyat Kengashida unga bag‘ishlab maxsus dastur ishlab chiqildi. Bu dasturda asosan nogironlar, qariyalar, qarovsiz qolgan fuqarolar, kam ta‘minlangan oilalarga ko‘rsatiladigan moddiy va ma‘naviy yordamlarni o‘z egalariga etkazib berish va notitul millat vakillariga alohida e‘tibor qaratish ko‘zda tutilgan. Dastur doirasida MMM faoliyatini yanada rivojlantirish ham asosiy maqsadlardan biri sanaladi.

Xususan, dastur ijrosi doirasida turli millat va elat vakillari o‘rtasida o‘zaro do‘stlik, hamjihatlik va millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash maqsadida Namangan shahridagi musiqa maktabida Koreys MMM viloyat bo‘limi va Namangan viloyati «Kamolot» YOIH bilan hamkorlikda 20 dan ziyod millat va elat vakillaridan iborat yosh iste‘dodlarning «Golos nadejdy» («Umidli ovozlari») tanlovi ishtirokchilarining galokonserti o‘tkazilgan. «Ma‘naviyat va ma‘rifat» kengashi, «Mahalla» jamg‘armasi, YOZuvchilar uyushmasining viloyat bo‘limlari va viloyat qirg‘iz MMM hamkorligida YAngiqo‘rg‘on tumanining Qirg‘iziston Respublikasi bilan bevosita chegaradosh «Parmon» va «Nov» qishloqlarida «Davlatlarga tinchlik, millatlarga do‘stlik kerak», «Adabiy do‘stlik–abadiy do‘stlik» mavzularida uchrashuv tadbirlari uyushtirilgan. Birgina 2014 yilda Kengash tomonidan Namangan shahri, Kosonsoy, Mingbuloq, Namangan, Norin, CHust, CHortoq, Uchqo‘rg‘on, To‘raqo‘rg‘on tumanlarida «O‘zbekiston–umumiy uyimiz», «SHu aziz Vatan barchamizniki» va «E‘tiqodlar xilma-xil, maqsadlar mushtarak» kabi mavzularda 150 dan ortiq uchrashuv, mulqot, adabiy va badiiy kechalar tashkil qilingan.

Viloyatda MMM faoliyati OAV tomonidan tez-tez yoritib boriladi. Masalan, qirg‘iz MMM tomonidan Uychi tumanining «Qizilravot», YAngiqo‘rg‘on tumanining «Mug‘ol» qishloqlaridagi qirg‘iz oilalarining milliy urf-odatlar va yashash tarzlarini namoyon etuvchi ibratli ishlari haqidagi lavhalar O‘zbekiston televideniya kanalining «Do‘stlik» kanali orqali namoyish etilgan.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tkaziladigan saylovlar vaqtida mahallaning mavqei, o‘rni qanchalik yuqori ekanini kuzatamiz. Masalan, 2013 yilgi saylovda saylovchilarning 92 foizi, ya‘ni 13 millionga yaqin kishi ishtirok etdi. Fuqarolarning 9812 yig‘inida, jumladan, shaharcha, qishloq va ovullarda o‘tkazilgan 1602 yig‘inda, qishloqlardagi 4250 hamda shaharlardagi 2148 mahalla yig‘inlarida, shuningdek, jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan 1802 mahallada saylovlar bo‘lib o‘tdi. Unda 22 mingdan ortiq nomzodlar orasidan 9848 ta fuqarolar yig‘ini raislari saylandi.

Saylangan raislarning 71,7 foizi oliy ma‘lumotli, 24,8 foizi o‘rta maxsus ma‘lumotli (asosan, o‘qituvchilar, muhandislar, agronomlar va iqtisodchilar)dir.

Agar biz respublikamizdagi mavjud mahallalarning viloyatlar kesimidagi etnik tarkibiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, quyidagi manzaraga guvoh bo‘lamiz.

Ko‘pmillatli maxallalar

(foizda) Ko‘pmillatli bo‘lmagan maxallalar(foizda)

Qoraqolpog‘iston Respublikasi 100,0 -

Toshkent shahri	68,0	32,0
Viloyatlar		
Andijon	28,4	71,6
Buxoro	36,4	63,6
Jizzax	52,4	47,6
Qashqadaryo	43,9	56,1
Navoiy	97,1	2,9
Namangan	6,7	93,3
Samarqand	9,2	90,8
Surhondaryo	51,3	48,7
Sirdaryo	74,1	25,9
Toshkent	93,3	6,7
Farg'ona	48,8	51,2
Xorazm	62,7	37,3
Jami	50,0	50,0

Respublikamizda mavjud mahallalarining teng yarmi ko'pmillatli ekanligini yuqoridagi manbadan bilib olishimiz mumkin.

Respublika «Ijtimoiy fikr» Markazi tomonidan 2003 va 2013 yillarda O'zbekistonda istiqomat qiluvchi turli millat va elat vakillari o'rtasida o'tkazgan so'rovnomada ishtirok etganlarning 60,7 % - 50,8 % mahalla hayotida faol, 23,5 % - 36,4 % kamdan-kam hollarda, 16,8 % - 11 % esa umuman ishtirok etmasliklarini bildirganlar. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, mahalla ishlarida erkaklar (65,7 %) xotin-qizlarga (56,2 %) nisbatan ko'proq qatnashar ekan. Mahalla hayotida asosan 40–50 yoshdan kattalar faol ishtirok etmoqda. Chunki, so'ralganlar ichida «mahalla faoliyatida izchil ishtirok etaman» deganlarning 67,1 % yuqorida ko'rsatib o'tilgan yoshdagi fuqarolardir.

Mahalla hayotida bevosita ishtirok etuvchilar millatiga qarab ham farqlanar ekan. Jumladan, o'zbeklar – 65,6 %, qozoqlar – 46,7 %, qirg'izlar – 59,7 %, tojiklar–66,0 %, qoraqolpoqlar–61,2 % tashkil etar ekan. SHu bilan birga so'rovnomada yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, respublikamizda istiqomat qilayotgan ukrainlarning 60,8 %, ruslarning 50,7 % va tatarlarning 48,2 % faqatgina o'zlari yashab turgan mahallalar faoliyatiga aralashishlarini bildirganlar.

Respondentlarning 16,8 % mahalla ijtimoiy hayotida umuman ishtirok etmasliklarini bildirgan bo'lsa-da, ko'pchilik fuqarolar mahalla fuqarolar yig'iniga murojaat qilib turishlarini ta'kidlaganlar. Jumladan, «Siz o'zingizning qaysidir muammolaringizni hal etish uchun mahallaga murojaat etasizmi?» degan savolga so'ralganlarning 59,3 % «Ha» deb javob bergan. SHaharliklarning 24,0 % va qishloqda yashovchilarning 18,3 % mahalladan yordam kutar ekan. So'rovnomada o'zbeklarning 40,4 %, qirg'izlarning 41,9 %, koreyslarning 40,6 %, tatarlarning 37,3 %, ruslarning 35,1 % kamdan kam hollarda mahallaga murojaat etishlarini ko'rsatganlar. SHu bilan birga, so'rovnomada ishtirok etgan qozoqlarning 60,0 %, tojiklarning 58,3 %, ruslarning 50,7 % o'zlarining muammolarini hal etishda umuman mahallaga murojaat etmasliklarini bildirganlar.

Buni shu bilan izohlash mumkinki, mahalla fuqarolar yig'inlari o'z hududida istiqomat qilayotgan aholi muammolarini hal etishga etarli darajada e'tibor

bermaydilar. Lekin, shunga qaramay so‘rovnoma «Sizga mahalla yordam qo‘lini cho‘zadimi?» degan savolga 2003 va 2013 yillarda so‘ralganlarning 76,9 % – 81,6 % «Ha, yordam beradi», deb javob qaytarganlar. Ular ichida qoraqolpoqlar 51,0 %, ukrainlar 41,2 %, o‘zbeklar 38,1 %, uyg‘urlar 37,9 %, koreyslar 34,4 % tashkil etadi.

Bundan tashqari, so‘rovnoma ishtirok etganlarning 51,4 % «mahalla kengashlari ijtimoiy hayotda etarli darajada faol», deb, 31,0 % «juda faol», 8,4 % «unchalik faol emas», deb ko‘rsatganlar. Ularning 2,3 % mahalla kengashi «hech qanday faollik ko‘rsatmaydi» deb baho berganlar.

SHu bilan birga mahalla institutini rivojlantirishga oid muammolar ham yo‘q emas.

Birinchi, fuqarolar yig‘inlari binolarining yangi loyihasini yaratish darkor. Ko‘pgina fuqarolar yig‘inining binosi talab darajasida emas.

Ikkinchi, mahallalarning maishiy xizmatlari, qurilish idoralari, ishlab chiqarish korxonalari bilan aloqalarini kengaytirish mexanizmlarini yaratish darkor. Bugun mahallalar yon-atrofnı modernizatsiyalash, yangilash jarayonlarida faol ishtirok etish imkoniga ega emas.

Uchunchidan, fuqarolar yig‘inlarining oilaviy va millatlararo munosabatlarnı mustahkamlash borasidagi izlanishlarini qo‘llab-quvvatlagan holda, aytish zarurki, bu izlanishlar hali rejali, anglangan, ijtimoiy-huquqiy ta‘minlangan emas.

To‘rtinchidan, fuqarolar yig‘inlarining raislariga keksa kishilarnı saylash an‘ana bo‘lib qoldi. Bunday yondashish har doim ham samara bermaydi. SHuning uchun raislikka tadbirkor, elim-yurtim deb yashashga, ishlashga intiladigan yoshlarnı ham saylash kerak.

Beshinchidan, mahalla institutining madaniy-tarbiyaviy tadbirlarini ushbu sohani biladigan, aholi va turli millat vakillari bilan ishlay oladigan, etnopsixologik bilimlardan xabardor mutaxassislar olib borsa, kutilgan samara beradi, aks holda, tadbirlar rasmiy hisobot uchun uyushtiriladi, xolos.

O‘zbekistonda milliy-etnik munosabatlarnı pozitiv hal etish va rivojlantirish bo‘yicha tajribalar to‘plangan bo‘lsa-da, bu borada echimini kutayotgan ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va madaniy muammolar ham mavjuddir. SHuning uchun mazkur muammolar milliy munosabatlarnı yanada chuqurroq va kengroq o‘rganishni taqozo qiladi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari milliy-etnik muammolarnı mintaqa va jahondagi boshqa xalqlar, millatlar bilan hamkorlikda hal etishning samarali yo‘llarini izlashga undaydi. Globallashuv integratsion aloqalarnı kengaytirish imkonini bermoqda, shu bilan birga u tashqi tahdidlarga ham yo‘l ochmoqda. YOshlarda mafkuraviy va ma‘naviy immunitetni shakllantirish yangi etnosiyosiy paradigmaning, O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarnı rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biridir.

Amaliyotga quyidagilarnı tavsiya etish mumkin:

1. Milliy madaniy markazlarning mamlakatimizni modernizatsiyalash jarayonlaridagi ishtirokini faollashtirish mexanizmlarini yaratish darkor.

2. Respublika baynalmilal madaniyat markazining ijtimoiy maqomini (Qo‘mita yoki Vazirlik darajasiga) ko‘tarish lozim.

3. Mahalla va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutlari tadbirlarini milliy munosabatlarni mustahkamlashga yo'naltirish uchun:

- Mahallalar etnik xaritalarini tuzish;
- Oqsoqol (rais) va uning muovini lavozimiga turli millat vakillarini jalb etish;

- Mahallalarda baynalmilallik yo'nalishidagi targ'ibot-tashviqot ishlarini tizimli yo'lga qo'yish zarur.

4. Milliy g'oya va ma'naviyatni aholi turar joylarida keng targ'ib etishga turli milliy-etnik guruhlarini jalb qilish lozim.

*SHaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslaxatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.*

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining*

### **3. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (Mahalla) faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari**

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida huquqiy demokratik davlat qurish yo'lida boshlangan islohotlarni yangi bosqichga ko'tarish, davlat va jamiyat hayotini yanada demokratlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash borasida islohotlar jarayoni kechmoqda.

Xususan, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining asosiy bo'g'ini bo'lgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini rivojlantirish, ularning huquqiy asosini mustahkamlash bilan birgalikda, moddiy-texnik sharoitini yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan amaliy tadbirlar natijasida, qadimiy tarixga ega bo'lgan ushbu noyob boshqaruv tizimi har tomonlama rivojlanib bormoqda.

Mahalla instituti bir necha asrlik qadimiy tarixga ega bo'lsada, uning huquqiy asoslari yaratilgan va jamiyat boshqaruvida o'ziga xos vakolatlariga ega bo'lgan davri - mamlakatimizning mustaqillikka erishgan davri hisoblanadi.

CHunki, mustaqil O'zbekistonning bosh qomusi – Konstitutsiyasiga birinchi marotaba mahalla instituti haqida qoidalar kiritilib, uning vakolat muddati belgilab berildi.

***Mahalla sharoitida o'sib voyaga etgan kishilar shuni yaxshi biladilarki, har bir kishi va oila uchun ularning qo'shnilari va umuman mahalla beradigan bahodan***

Konstitutsiyada belgilab berilgan ushbu qoidalar asosida 1993 yil 2 sentyabrda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun bilan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish tartiblari, vakolat doirasi hamda faoliyati sohasidagi munosabatlar tartibga solindi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" siyosiy qurilish dasturining bosh yo'nalishlaridan biri davlatning bir qator vakolatlarini markazdan mahalliy darajaga ya'ni mahalliy davlat hokimiyati organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borishdan iborat bo'lib, keyingi yillarda bu sohada sezilarli amaliy tadbirlar olib borildi.

Bu jarayonda bevosita fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga ham ko'plab vakolatlar o'tkazib borildi. Bu esa amaldagi Qonunni yanada takomillashtirish, fuqarolar yig'inlariga berilgan vakolatlarni amalga oshirish mexanizmlarini qonun bilan tartibga solish zaruratini keltirib chiqardi. SHu bois "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun 1999 yil 14 aprelda yangi tahrirda qabul qilindi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli)ni saylash jarayoni ham fuqarolar yig'ini faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy omillaridan biri hisoblanib, ushbu jarayonni yanada tartibli o'tkazish, uning aniq me'yorlarini joriy qilish maqsadida 2004 yil 29 aprelda "Fuqarolar

**zo'r narsa yo'qdir. YOshlar, ularning otanalari va avlodlari uzoq yillar davomida misqollab oila obro'sini topganlar. Odamlar ko'z o'ngida ana shu obro'ni saqlab qolish uchun kurashmaydigan kishini men tasavvur qilolmayman.**

**Islom Karimov**

yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonun bilan fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovining asosiy prinsiplari, saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish tartib qoidalari hamda nomzodlarga qo'yiladigan talablar ko'rsatib o'tildi.

O'tgan davr mobaynida ham mamlakatimiz prezidenti tomonidan fuqarolik jamiyati institutlari xususan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish masalasiga doimiy kun tartibidagi dolzarb masalalardan biri sifatida qaralib, soha faoliyatidagi yangi yo'nalish va muhim vazifalar ko'lami belgilab berildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma yig'ilishida yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da oltita asosiy yo'nalish orasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga alohida urg'u berildi.

Konsepsiyada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi qayd etilib, bu vazifani hal qilishda uchta asosiy masala ko'rsatib berildi. Bular:

I. Aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish.

II. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamoatchilik nazorati sohasidagi funksiyalarini yanada kengaytirish.

III. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini xususiy tadbirkorlik, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish markaziga aylantirish.

Konsepsiyasi ijrosi yuzasidan 2013 yil 22 aprelda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi hamda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi.

YAngi tahrirdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunda fuqarolar yig'inlariga tegishli hududdagi tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi hamda kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha vakolatlar berish nazarda tutildi.



Bundan tashqari, Qonunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini xususiy tadbirkorlik, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish markaziga aylantirish maqsadida ushbu sohani rivojlantirishga ko'maklashuvchi maslahat markazlarini tashkil etish mumkinligi belgilab berildi. Fuqarolar yig'ini ushbu maslahat markazi faoliyatini yo'lga qo'yish orqali hududidagi tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilmoqchi bo'lgan fuqarolar uchun qisqa muddatli kurslar tashkil etishi, shuningdek tadbirkorlik faoliyati sub'ektlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va preferensiyalar haqida ma'lumot berishi, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda yoshlarning tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ishga joylashishiga, ularning ushbu korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga, shuningdek hunarmandlarga biriktirilishiga ko'maklashishi nazarda tutilgan.

SHuningdek, yangi tahrirdagi Qonunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi vazifalari yanada chuqurlashtirilib, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni aniqlash, fuqarolarning bandligiga ko'maklashishi haqidagi normalar kiritildi.

YAngi tahrirdagi Qonunning yana bir e'tiborli jihati - fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarini tuzishning yagona amaliyotini joriy qilinganligidir. CHunki, ilgari fuqarolar yig'inlarida sakkiztadan o'n beshtagacha komissiyalar faoliyat yuritayotgan bo'lib, ularga uslubiy-metodik yordam ko'rsatish hamda faoliyatini muvofiqlashtirishda bir qator noqulayliklar mavjud edi.

Mazkur Qonunning 18-moddasida fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha 8 ta komissiyalar tuzilishi belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, tegishli hududdagi muammolarning dolzarbligiga qarab, fuqarolar yig'ini tomonidan fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha boshqa komissiyalar ham tuzilishi mumkin.

Ushbu komissiyalar faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish orqali mahallaning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 7 oktyabrdagi 274-sonli qarori bilan yuqoridagi komissiyalarning namunaviy Nizomlari tasdiqlab berildi.

SHuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bilan mazkur Qonun ijrosi doirasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika va hududiy Kengashlarning tashkil etilganligi ham, jamiyat hayotida o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lib borayotgan mahalla institutining rivojlanishida muhim qadamlardan biri bo'ldi.

CHunki, mazkur Kengashlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlarini amalga oshirilishiga ko'maklashish, ular faoliyatidagi muammolarni kompleks o'rganish va tizimli hal qilish yuzasidan aniq asoslangan takliflar hamda ta'sirchan mexanizmlar ishlab chiqish maqsadida tashkil etildi.

Fuqarolar yig'ini tizimidagi saylovlarni yanada samarali tashkil etish va munosib nomzodlarni saylashda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida" yangi tahrirda qabul qilingan Qonunga kiritilgan qo'shimchalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, qonunda saylovchilarga eng munosib nomzodni tanlash imkoniyatini kafolatlovchi muqobillik prinsipi belgilandi.

SHu bilan birga, Qonunda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) nomzodiga qo'yiladigan talablar yanada kuchaytirildi. Jumladan, nomzodning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansub bo'lishi, uning fuqarolar yig'ini hududida kamida besh yil yashagan, davlat organlari yoki nodavlat notijorat tashkilotlaridagi yohud xo'jalik va tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ish tajribasiga, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lishi kabi qo'shimcha talablar qo'yildi.

Bundan tashqari, Qonun og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan, haqiqiy harbiy xizmatdagi shaxslar, diniy tashkilotlarning xizmatchilari nomzodi ko'rsatilmaligi kabi talablar bilan mustahkamlandi. Bu esa yuksak ma'naviyatli, boshqaruvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan, fuqarolar yig'ini hududida yashab uning muammolari va aholining dardlarini his etadigan, o'zini odamlarning issiq-sovug'iga dahldor sezadigan vijdonli fuqarolarning rais etib saylanishiga imkoniyat yaratadi.

SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining ham fuqarolar yig'ini tizimida o'tkaziladigan saylov jarayonidagi ishtirokining huquqiy asoslari mustahkamlab qo'yildi.

Ayni vaqtda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga ko'plab vakolatlarning berilishi, o'z navbatida ushbu sohada faoliyat olib borayotgan mas'ullardan yuksak bilim va kasbiy mahorat talab etdmoqda. SHu bois fuqarolar yig'inlari xodimlarining kasbiy va boshqaruv malakalarini yanada oshirish, ularga tizimli metodik yordamni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 10 otkbyardagi 2050-sonli qarori bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida davlat ta'lim muassasasi shaklida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari tashkil etildi.

Bugungi kunda o'quv kurslarida fuqarolar yig'inlari raislari, fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy masalalar bo'yicha maslahatchisi, fuqarolar yig'inlarining mas'ul kotiblari va "Mahalla posboni" jamoat tuzilmalarining rahbarlari ishdan ajralgan holda bir hafta muddatda 36 akademik soatga mo'ljallangan o'quv mashg'ulotlarda ishtirok etish orqali o'z malakalarini oshirib kelmoqdalar.

Bugungi kunda qadimiy va noyob boshqaruv shakli bo'lgan mahalla institutini har tomonlama rivojlantirishga, uning vakolatlarini yanada kengaytirishga hamda qonunchilik tizimida belgilab berilgan vakolatlardan yanada samarali foydalanishga ko'maklashish borasida olib borilayotgan amaliy taadbirlar natijasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni yanada mustahkamlanib bormoqda.

O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning zamirida «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan ezgu tamoyil o'z ifodasini topgan. Uning maqsadi hokimiyat vakolatlarining bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyati institutlariga bosqichma-bosqich o'tkazishdan iboratdir. SHubhasiz, bunday chora-tadbirlar tegishli hududda xususiy mulkni rivojlantirish, bu orqali aholini ish bilan ta'minlash, iste'mol bozorini to'ldirish, ijtimoiy infratuzilmani taraqqiy ettirish, odamlarning farovonligini oshirish kabi masalalarni mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan hal etish imkonini beradi.

Bu jarayonning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov e'lon qilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida qator qonunchilik tashabbuslari ilgari surildi. Xususan, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilib, bunda mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlangan edi.

Aytish kerakki, qonunni yangi tahrirda ishlab chiqishga aholining keng qatlamlari jalb qilinib, qonundagi muammoli masalalarni hal etish, konsepsiyadagi vazifalarni amalga oshirishga oid takliflarga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Adliya vazirligi, «Mahalla» xayriya jamoat fondi, Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti hamkorligida o'tkazilgan 100 dan ziyod seminar va davra suhbatlarida loyiha keng muhokama etildi. SHuningdek, fuqarolar yig'inlari raislari va faollari, davlat organlari, turli tashkilotlar, fuqarolarning 600 dan ortiq taklifi umumlashtirildi. Eng muhimi, bu kabi sa'y-harakatlar qonunning pishiq-puxta bo'lishida muhim ahamiyat kasb etdi.

2013 yil 15 martda Qonunchilik palatasi qabul qilgan, 28 martda Senat ma'qullagan yangi tahrirdagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonun 22 aprelda davlatimiz rahbari tomonidan imzolanib, 23 aprelda matbuotda e'lon qilindi. SHu o'rinda qonunga kiritilgan yangi qoidalar haqida to'xtalib o'tsak. Jumladan, unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi; bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan oilalar, yolg'iz pensionerlar va nogironlarni aniqlashi; o'z hududida yashovchi fuqarolarning bandligini ta'minlashga ko'maklashishi bilan bog'liq normalar belgilangan.

SHuningdek, ushbu qonun bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'z hududida tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari faoliyati

ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha vakolatlar berilib, ularning shakl va kafolatlari ham nazarda tutilgan. Bundan tashqari, unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tegishli hududda tadbirkorlik, jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida maslahat markazlarini tashkil etishga haqli ekani belgilab qo'yildi. Xususan, uning 17-moddasiga binoan maslahat markazlari:

– tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilmoqchi bo'lgan, tegishli hududda yashovchi fuqarolarga iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, tadbirkorlik faoliyati va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari asoslarini o'rgatish bo'yicha qisqa muddatli kurslarni tashkil etadi, shuningdek, ularga tadbirkorlik sub'ektlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyoz va preferensiyalar haqida ma'lumot beradi;

– bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda yoshlarning tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasa va tashkilotlarga ishga joylashishiga, ularning ushbu korxonalar, muassasa va tashkilotlar, shuningdek, hunarmandlarga biriktirilishiga ko'maklashadi;

– tegishli hududda yashovchi fuqarolarga tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda, jumladan, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlarni tayyorlashda yordam beradi;

– tegishli hududdagi tadbirkorlik sub'ektlariga, jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik sub'ektlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyoz va preferensiyalardan foydalanishda, tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida kredit olish uchun hujjatlarni tayyorlashda ko'maklashadi.

Ushbu moddada, shuningdek, maslahat markazlari faoliyatini tashkil qilishda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning fuqarolar yig'ini bilan hamkorligi haqidagi normalar ham o'z ifodasini topgan. Bir so'z bilan aytganda, qonunga kiritilgan yangi me'yorlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining roli hamda vakolatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, hozirga qadar fuqarolar yig'inlarida sakkiztadan o'n beshtagacha komissiya faoliyat yuritayotgan edi. Bunda yagona amaliyotni ta'minlash maqsadida qonunda yarashtirish, ma'rifat va ma'naviyat, tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar bilan ishlash, voyaga etmaganlar, yoshlar va sport, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, jamoatchilik nazorati va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, shuningdek, tegishli hududdagi muammolarning dolzarbligiga qarab, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha boshqa komissiyalar ham tuzilishi mumkinligi belgilab qo'yildi.

Fuqarolar yig'ini hududida atrof-muhit tozaligini saqlash, hovli va uylar atrofidagi joylarni obodonlashtirish, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarni hamda ekologik nazoratni amalga oshirish muhimdir. SHu ma'noda ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish komissiyasi tashkil etiladi. O'z navbatida, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, bunga keng jamoatchilik vakillarini jalb etish, fuqarolar yig'ini kengashi bilan hamkorlikda yoqilg'i, elektr va issiqlik energiyasi

hamda suvdan tejamli foydalanish, isrofgarchilikning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish kabilar ushbu komissiya zimmasiga yuklatilmoqda.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi fuqarolik jamiyati barpo etishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolar yig'ini tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ijroiya hokimiyati rahbarlarining sohaga oid masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitish, fuqarolar yig'inlarining murojaatlari ko'rib chiqilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasa va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish hamda ularning natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilish esa jamoatchilik nazorati va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish komissiyasi faoliyatida o'z ifodasini topadi.

Aytib o'tish joizki, qonunda nazarda tutilgan «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi faoliyatining asosiy maqsadi mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik, xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarda ogohlik va hushyorlikni oshirish, huquq-tartibotni mustahkamlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamkorligidagi ishlarni tizimli tashkil etishga ko'maklashishdan iborat. Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, huquqbuzarlikning oldini olishda mahalla posbonlari IIB profilaktika inspektorlarining yaqin ko'makchisiga aylangani uchun ham qonunda ushbu tuzilmaga alohida e'tibor qaratilgan.

Qonunga ko'ra fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, tuman va shahar muvofiqlashtirish kengashlari tuziladi. Ular fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy va huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, normativ-huquqiy hujjatlar monitoringini olib borish, qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlarining amalga oshirilishiga ko'maklashish, muammolarni kompleks o'rganish, tizimli hal qilish yuzasidan aniq taklif va mexanizmlarni ishlab chiqadi.

SHuningdek, ushbu kengashlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan qarorlar ijrosini nazorat qilish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining axborotlarini eshitish, turli xil seminar, davra suhbatlari va o'quv kurslarini tashkil etish bilan ham shug'ullanadi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida ta'kidlanganidek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan yaqin munosabatlarini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. SHunday ekan, bu boradagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish,

sohaga oid munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirish kun tartibidagi muhim masalalardan biri bo'lib qolaveradi.

Bizga ma'lumki, saylovlar demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi sifatida xalqning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishi hamda fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining muhim vositasi hisoblanadi.

Mamlakatimiz saylov tizimi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari, rivojlangan demokratik davlatlarning bu boradagi ilg'or tajribalari va xalqimizning milliy mentalitetini hamda O'zbekistonning huquqiy demokratik davlat qurish, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'nalishidagi o'ziga xos rivojlanish tajribasini inobatga olgan holda shakllantirildi.

Mamlakatimizda "Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili asosida rivojlanib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining aholi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasidagi sa'y-harakatlari natijasida fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishga hamda o'z konstitutsiyaviy huquqlaridan to'liq foydalanishga bo'lgan intilishlari tobora ortib bormoqda.

Bunda fuqarolik jamiyati institutlarining eng muhim sub'ektlaridan biri — mahalla instituti alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, fuqarolar yig'inlari saylov jarayonlarida qonunchilikda belgilangan vakolatlari doirasida faol qatnashib kelayapti.

Fuqarolar yig'inlarining saylovdagi ishtirokiga doir vakolatlari saylovga oid bir qator qonunlarda hamda 2013 yil 22 aprelda yangi tahrirda imzolangan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunda belgilab qo'yilgan. Mazkur Qonunning 11-moddasiga asosan, shaharcha, qishloq, ovul va shahardagi mahalla fuqarolar yig'inlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov bo'yicha uchastka saylov komissiyalarining a'zoliciga nomzodlarni tegishli okrug saylov komissiyalariga, shuningdek, referendum o'tkazish bo'yicha uchastka komissiyalarining a'zoliciga nomzodlarni referendum o'tkazish bo'yicha tegishli okrug komissiyalariga taqdim etishi mumkin. Bundan tashqari, ular xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari deputatligiga nomzod ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining saylov sohasidagi vakolatlari boshqa qonunlarda ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonunlarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari nomzodlarga, siyosiy partiyalarga saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish uchun jihozlangan xonalarni bepul ajratishi, zarur ma'lumot va axborot materiallarini olishda yordam ko'rsatishi shartligi belgilab qo'yilgan. "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunda fuqarolar yig'inlarining vakolatlari yanada kengaytirilgan bo'lib, xalq deputatlari tuman, shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi tuman, shahar va okrug saylov komissiyalarining a'zolari, shuningdek, uchastka saylov komissiyalarining a'zolari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tavsiyasiga binoan tasdiqlanishi

belgilangan. Uchastka saylov komissiyasi a'zolari uchun nomzodlar aynan fuqarolar yig'inlari (vakillar yig'ilishi)da muhokama etilib, tavsiya qilinishi saylov komissiyasi tarkibiga eng munosib nomzodlarning tasdiqlanishida muhim rol o'ynaydi. Chunki fuqarolar yig'ini jamiyatimizdagi eng xalqchil, o'z hududidagi fuqarolarni yaqindan biladigan, ularning imkoniyatlari va qobiliyatlariga xolis baho beradigan haqiqiy adolat maskani bo'lib kelgan. SHundan kelib chiqib, fuqarolar yig'ini tomonidan aholi o'rtasida obro'-e'tiborga ega, jamiyatning ertangi kuniga befarq bo'lmagan, mas'uliyatli, saylov qonunchiligini chuqur anglab etgan hamda bu borada tajribaga ega faol kishilar uchastka saylov komissiyasi a'zolariga tavsiya etib kelinmoqda. Bundan tashqari, xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari deputatligiga siyosiy partiyalar bilan bir qatorda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham nomzodlar ko'rsatish huquqiga ega ekani alohida ahamiyat kasb etadi. 2014 yil 21 dekabrda o'tkazilgan xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylovda fuqarolar yig'inlari bu vakolatdan samarali foydalandilar. Respublika bo'yicha 415 ta fuqarolar yig'ini deputatlikka 427 ta nomzod ko'rsatib, deputatlik o'rnini uchun siyosiy partiyalar bilan munosib kurash olib bordi. Saylov natijasiga ko'ra, ular tomonidan ko'rsatilgan nomzodlarning 110 nafari yoki 25,7 foizi deputatlikka saylandi. Buni 2009 yilda bo'lib o'tgan saylov natijalari bilan solishtiradigan bo'lsak, qariyb 147 foiz o'sishga erishilganini ko'rish mumkin.

SHu bilan birga, 2014 yilda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovida fuqarolar yig'ini tizimida ishlovchi xodimlardan 11 ming nafardan ziyodi okrug va uchastka saylov komissiyalari ishida faol qatnashdi. Bu esa fuqarolar yig'inlarida faoliyat olib borayotgan xodimlarning 30,4 foizini, uchastka saylov komissiyalariga jalb etilgan a'zolar umumiy sonining 12,3 foizini tashkil etadi.

2016 yil 4 dekabr kuni o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'yicha tasdiqlangan uchastka saylov komissiyalari tarkibida ham fuqarolar yig'inlari xodimlarining ishtirokiga alohida ahamiyat qaratilgan. Jumladan, 16 mingdan ortiq yoki jami uchastka saylov komissiyasi a'zolarining 17 foizi aynan fuqarolar yig'inlari xodimlari hisoblanadi. Uchastka saylov komissiyasi tarkibida fuqarolar yig'inlari xodimlarining ishtiroki shu hududdagi saylovchilar tarkibini to'liq o'rganish (imkoniyati cheklangan, betob, hududda doimiy yoki vaqtincha yashovchi saylovchilar haqidagi ma'lumotlarni) imkoniyatini yanada oshiradi.

SHuningdek, okrug saylov komissiyalari tarkibiga kiritilgan 152 nafar komissiya a'zosining 7 nafari (4,6 foizi) fuqarolar yig'inlari -xodimlaridir. Bundan tashqari, respublika bo'yicha 303 ta uchastka saylov komissiyasi bevosita fuqarolar yig'inlari binolarida tashkil etilgan. YUqoridagi raqamlardan ham ko'rinib turibdiki, fuqarolar yig'inlari ayni vaqtda respublikamizdagi fuqarolik jamiyati instituti sifatida mamlakat hayotida muhim siyosiy tadbir bo'lgan saylov jarayonlarida o'z vakolati doirasida faol ishtirok etmoqda.

SHuni ta'kidlash o'rinliki, yurtimizda "Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili asosida davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokiga keng o'rin berilmoqda. Ayniqsa, faoliyatining asosiy

prinsiplarida qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari, demokratiya, oshkoralik, ijtimoiy adolat kabi demokratik prinsiplar ustuvor bo'lgan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining bu boradagi ishtiroki ahamiyatlidir. Chunki aholining davlat va jamiyat boshqaruvidagi faolligini ta'minlash aynan ularning o'zlari yashab turgan fuqarolar yig'inlari orqali amalga oshirilishi demokratiyaning muhim talabi hisoblanadi.

#### **4. «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (2017 yil 3 fevraldagi PF-4944-sonli) Farmonidagi ustuvor yo'nalishlar.**

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, fuqarolar yig'inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro'yobga chiqarish, ularning

moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadida:

1. Quyidagilar mahalla institutini yanada takomillashtirishning **ustuvor yo'nalishlari** etib belgilandi:

- fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rnini va rolini kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish;

- jamiyatimizda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yanada oshirish;

- yoshlarni ma'naviy boy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta'minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

- jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirishning

***Biz "Adolat – qonun ustuvorligida" degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun avvalo mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va mas'uliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralari ko'rishimiz darkor.***

***SHavkat Mirziyoev***



samarali mexanizmlarini joriy etish, mahalla tizimida yagona huquqni qo'llash amaliyotini ta'minlash.

**O'z-o'zini boshqarish organlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar:**

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashiga (keyingi o'rinlarda Respublika kengashi deb ataladi) yuridik shaxs maqomini bergan holda uni fuqarolar yig'inlarining uyushmasi shaklida tashkil etish;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy kengashlarni (keyingi o'rinlarda hududiy kengashlar deb ataladi) Respublika kengashining tarkibiy tuzilmalari sifatida tashkil etish;

- O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlariga tegishincha Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilish vazifasini yuklash;

- respublika kengashi va hududiy kengashlar raislarining birinchi o'rinbosarlari bir vaqtning o'zida O'zbekiston «Mahalla» xayriya jamoat fondining (keyingi o'rinlarda «Mahalla» fondi deb ataladi) tegishincha respublika boshqaruvi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlari, tumanlar va shaharlar bo'linmalariga raislik qilishlari;

- respublika kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari, shuningdek Respublika kengashi hamda hududiy kengashlarda yoshlar ishlari, diniy-ma'rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha rais o'rinbosarlari lavozimlarini joriy etish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari — yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimini kiritish.

**SHuningdek:**

«Mahalla» fondi va fuqarolar yig'inlarining taklifiga binoan Respublika kengashi, hududiy kengashlar ijro apparatlari «Mahalla» fondining tegishincha respublika boshqaruvi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlari, tumanlar va shaharlar bo'linmalari, shuningdek shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'inlarining qayta tashkil etilishi munosabati bilan bo'shaydigan shtat birliklari hisobidan shakllantiriladi;

Respublika kengashi, hududiy kengashlar ijro apparatlarining shtatdagi xodimlarini ta'minlash va moddiy rag'batlantirish «Mahalla» fondi hisobidan amalga oshiriladi, ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan mablag'g'larning etmagan qismi esa O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan qoplanadi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat xizmatchilarining mehnatini rag'batlantirish to'g'risida»gi 1997 yil 13 maydagi PF-1778-sonli Farmonining mehnat haqi bo'yicha YAgona tarif setkasi razryadlariga muvofiq rag'batlantirish koeffitsienti sifatida maoshlarga 20 foizli ustama haq o'rnatilishini

nazarda tutadigan 1-bandining amal qilishi Respublika kengashi, hududiy kengashlar ijro apparatlari xodimlariga nisbatan qo'llaniladi;

Respublika kengashi, hududiy kengashlar raislarining birinchi o'rinbosarlari va o'rinbosarlari lavozimlarida ishlovchi pensionerlarga pensiyalarni to'la miqdorda to'lash, bunda pensiyalarni to'lash bilan bog'liq xarajatlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan qoplash tartibi joriy etiladi;

Respublika kengashi raisining birinchi o'rinbosari maqomi, maishiy ta'minoti, tibbiy va transport xizmatidan foydalanish borasidagi shart-sharoitlariga ko'ra — vazirga, Respublika kengashi raisining o'rinbosari — vazir o'rinbosariga tenglashtiriladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga tegishli vazifalarni amalga oshirishda munosib hissa qo'shgan tashabbuskor fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillariga taqdim etiladigan «Mahalla iftixori» ko'krak nishoni ta'sis etiladi.

Mustaqillik yillarida mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko'lamlı chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Xususan, milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarishning hududiy birliklari sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida mustahkamlab qo'yildi. YUzdan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyat hayotining muayyan sohasidagi ishtiroki o'z aksini topdi.

Birgina so'nggi besh yilda yangi tahrirdagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi hamda «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari, mahallalar hamda ulardagi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatiga oid 20 ga yaqin nizom qabul qilinib, ijtimoiy hayotga tatbiq etildi. SHuningdek, tizimda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari hamda «Mahalla» ma'rifiy teleradiokanali tashkil etildi.

Hozirgi kunda yurtimizda 10 mingga yaqin fuqarolar yig'inlari tomonidan ilgari mahalliy davlat hokimiyati organlariga taalluqli bo'lgan 30 dan ziyod ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik vazifalar muvaffaqiyatli bajarib kelinmoqda.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida oxirgi besh yil mobaynida fuqarolar yig'inlarining 1600 ga yaqin xizmat binolari joriy, 367 tasi kapital ta'mirlandi va 350 dan ziyodi rekonstruksiya qilindi, namunaviy loyihalar asosida 216 ta bino yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi.

Amalga oshirilgan keng ko'lamlı tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar natijasida mahalla noyob, dunyoda o'xshashi bo'lmagan tuzilmaga aylandi, fuqarolar o'zini

o‘zi boshqarish organlarining ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida faol ishtirok etishi uchun mustahkam zamin yaratildi.

SHu bilan birga, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zamonaviy talablari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni samarali hal qilishdagi rolini oshirish, fuqarolar yig‘inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqini ro‘yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Xususan, Farmonda mahalla institutini yanada takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o‘rni va rolini yanada kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakam maslakdoshi va ko‘makdoshiga aylantirish;

jamiyatimizda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yanada oshirish;

yoshlarni ma‘naviy boy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta‘minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlash;

jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlashda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish;

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, mahalla tizimida yagona huquqni qo‘llash amaliyotini ta‘minlash.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashiga yuridik shaxs maqomini bergan holda uni fuqarolar yig‘inlarining uyushmasi shaklida tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlarda tuzilgan kengashlarni esa Respublika kengashining tarkibiy tuzilmalari sifatida tashkil etish belgilandi.

Kengashlarning nufuzi va maqomini oshirish, joylarda aholi tomonidan ko‘tarilayotgan masalalarni ijro hokimiyati organlarining rahbarlari e‘tiboriga etkazish va mazkur masalalarni hal etish bo‘yicha ularning bevosita ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahar

hamda tumanlar va shaharlar hokimlari zimmasiga tegishincha Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilish vazifasi yuklatildi.

Kengashlar zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini samarali ta'minlash, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sohada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida Respublika kengashi va hududiy kengashlar raislarining birinchi o'rinbosarlari bir vaqtning o'zida «Mahalla» fondining tegishincha respublika boshqaruvi hamda hududiy bo'lim va bo'linmalariga raislik qilishlari haqidagi tashabbus qo'llab-quvvatlandi.

SHuningdek, Farmonda yoshlarni ona Vatanga muhabbat, xalqimizning ko'p asrlik an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash, mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash borasida joylarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida Respublika kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari, shuningdek Respublika kengashi hamda hududiy kengashlarda yoshlar ishlari, diniy-ma'rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha rais o'rinbosarlari lavozimlarini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida esa jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan mahalla fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari — yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimini joriy etish nazarda tutildi.

Bundan tashqari, ijtimoiy muhim masalalarni hal etishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida kengashlar kollegial organlari tarkibiga tegishincha davlat hokimiyati vakillik organlari vakillari, moliya, ichki ishlar, mehnat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash vazirliklari, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «Nuroni» jamg'armasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar hamda ularning hududiy tuzilmalari rahbar xodimlarini kiritish mo'ljallanmoqda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig'ini Kengashi tarkibiga fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosarlarini (fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilarini), hududdagi profilaktika inspektorlarini, ta'lim muassasalari va qishloq vrachlik punktlari (oilaviy poliklinikalar) rahbarlarini kiritish va ularning o'z faoliyati yuzasidan yilning har choragida fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ga hisobot taqdim qilishlari amaliyotini joriy etish belgilab qo'yildi.

Qayd etilgan asosiy vazifalar va yangi normalarni hayotga tatbiq etish uchun Farmon bilan kengashlar faoliyatini yanada takomillashtirish hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash borasida 37 ta aniq tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan Kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Farmonni ijro etish doirasida «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi, «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi

to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari va bir qator boshqa qonun hujjatlariga zarur o'zgartish va qo'shimchalar kiritiladi.

SHuningdek, mutasaddi vazirlik, idora va tashkilotlar zimmasiga fuqarolar yig'inlarining bandlikka ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari hamda moliya va sog'liqni saqlash organlari bilan o'zaro hamkorligini nazarda tutadigan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish vazifasi yuklandi.

Bundan tashqari, mahalla fuqarolar yig'inlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish bo'yicha mustaqilligini ta'minlash, o'zini o'zi boshqarish tizimida ortiqcha bo'g'inlardan voz kechish maqsadida tarkibida mahallalar tuzilgan shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'inlarini mahalla fuqarolar yig'inlariga birlashtirish va bo'lish yo'li bilan qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalar sport maydonchalari, maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlarini tashkil etish maqsadida 2017 — 2021 yillarga mo'ljallangan hududiy dasturlar ishlab chiqiladi. SHuningdek, 2018 yilning 1 dekabriga qadar tumanlar va shaharlar markazlarida «Mahalla markazi» majmualari binolarini namunaviy loyihalar asosida barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

SHu bilan birga, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarning amalga oshirilishiga munosib hissa qo'shgan tashabbuskor fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillariga taqdim etiladigan «Mahalla iftixori» ko'krak nishonini ta'sis etish nazarda tutilmoqda.

Farmonda hamda u bilan tasdiqlangan Kompleks chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasidagi vazifalarni samarali bajarish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Mahalla ming yillar davomida shakllangan, xalqimizning o'ziga xos qiyofasini ko'rsatib turadigan noyob ijtimoiy tuzilma. Bir-biriga mehr-oqibat ko'rsatib yashash, yaxshi va yomon kunlarda birga elkadosh bo'lish singari insonga xos fazilatlar aynan mahallada tarkib topadi.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri bo'lgan mahalla instituti haqida gap ketganda aytish mumkinki, qadim-qadimdan xalqimizning milliy turmush va tafakkur tarziga aylanib ketgan jamoa bo'lib, bir mahalla bo'lib yashash tuyg'usi ijtimoiy hayotning ham uzviy qismi sifatida katta bir ma'naviy qadriyat deb qaralgan. Birgina to'ylarimizni olib qarang... Mahallada bir kishi to'y qiladi, mehmonlarni butun mahalladoshlar kutib oladi, mehmon qiladi, kuzatib qo'yadi. YOki uzoqdan to'yga kelgan mehmonlar uchun mahalladoshlar qo'noq tayyorlaydi. Ming yillardan buyon an'ana tusini olib kelayotgan milliy qadriyatimiz — hasharga e'tibor qarating. U asosan mahallalarda o'tkaziladi. Bir qarashda oddiy tadbir bo'lib ko'ringan hashar, odamlarni birdamlikka, hamjihatlikka chorlovchi va ana shu ahillikning hosilasi nechog'lik ahamiyatga ega

ekanligini anglatib turuvchi o‘zimizga xos ajoyib an‘ana, aslida. Buning zamirida bir yoqadan bosh chiqarish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, bir-biriga yordam berish singari xalqimizga xos ulug‘ fazilatlar yotadi. Xullas, mahalla o‘zbekona yashashning hayotiy in‘ikosidir.

Bugungi kunda yurtimizda 10 mingga yaqin fuqarolar yig‘inlari mavjud bo‘lib, ular o‘zining an‘anaviy vazifalari bilan birga mahalliy davlat hokimiyati organlariga taalluqli bo‘lgan 30 dan ziyod ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik vazifalarni bajarib kelmoqda. Bu vazifalar mahalla raisi hamda faollardan kuchli bilim va salohiyat, boy tajriba va mahorat, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini puxta o‘zlashtira oladigan, xalqni ishonchini qozona olgan, tom ma‘nodagi yuqori malakali professional kadrlarni talab qiladi.

Albatta, bu vazifalarning mas‘uliyati va zalvori nechog‘lik yuqori bo‘lmasin, mahalla instituti vakillari oilalar, keksalar, yoshlar bilan ishlashda, tadbirkorlikni rivojlantirishda asosiy kuch bo‘lib maydonga chiqdi.

Prezident farmonida belgilanganidek, O‘zbekiston taraqqiyotining navbatdagi bosqichida ham “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, fuqarolar yig‘inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro‘yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadida” qabul qilindi.

Unda mahalla institutini yanada takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan:

- fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o‘rni va rolini kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakam maslakdoshi va ko‘makdoshiga aylantirish;

- jamiyatimizda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yanada oshirish;

- yoshlarni ma‘naviy boy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta‘minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlash;

- jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlashda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, mahalla tizimida yagona huquqni qo'llash amaliyotini ta'minlash.

Alohida ta'kidlash kerak, ezgu qadriyatlar va milliy an'analar beshigi bo'lgan mahalla tarbiya o'chog'i sifatida qaraladi. Mahalla shunday noyob va ta'sirchan, bugun ko'plab xorijiy mamlakatlarning ekspertlari tomonidan ham munosib e'tirof etilayotgan ijtimoiy boshqaruv usuli tizimidir. Ayni paytda mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda mahalla tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilmoqda.

Ko'p ming yillik tarixga ega xalqimizning turmush va tafakkur tarzini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashda bu maskanning o'rni va ahamiyati katta. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Va bu tizimli ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

Prezidentimizning "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bu yo'lda juda muhim huquqiy hujjat bo'ldi.

Mazkur farmonning nihoyatda muhim jihatlaridan biri shundaki, unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashiga yuridik shaxs maqomini bergan holda uni fuqarolar yig'inlarining uyushmasi shaklida tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlarda tuzilgan kengashlarni esa Respublika kengashining tarkibiy tuzilmalari sifatida tashkil etish belgilandi.

Kengashlarning nufuzi va maqomini oshirish, joylarda aholi tomonidan ko'tarilayotgan masalalarni ijro hokimiyati organlarining rahbarlari e'tiboriga etkazish va mazkur masalalarni hal etish bo'yicha ularning bevosita ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar va shaharlar hokimlari zimmasiga tegishli Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilish vazifasi yuklatildi.

Kengashlar zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini samarali ta'minlash, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sohada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida Respublika kengashi va hududiy kengashlar raislarining birinchi o'rinbosarlari bir vaqtning o'zida "Mahalla" fondining tegishli Respublika

boshqaruvi hamda hududiy bo‘lim va bo‘linmalariga raislik qilishlari belgilab qo‘yildi.

Farmonda ijtimoiy muhim masalalarni hal etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida kengashlar kollegial organlari tarkibiga tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mutasaddilari, jumladan, moliya, ichki ishlar, mehnat, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash vazirliklari, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, “Nuroni” jamg‘armasi, Xotin-qizlar qo‘mitasi, boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar hamda ularning hududiy tuzilmalari rahbar xodimlarini kiritish mo‘ljallanmoqda.

Qolaversa, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta’minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashi tarkibiga fuqarolar yig‘ini raisining o‘rinbosarlarini (fuqarolar yig‘ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchilarini), hududdagi profilaktika inspektorlarini, ta’lim muassasalari va qishloq vrachlik punktlari (oilaviy poliklinikalar) rahbarlarini kiritish va ularning o‘z faoliyati yuzasidan yilning har choragida fuqarolar yig‘ini (fuqarolar vakillarining yig‘ilishi)ga hisobot taqdim qilishlari amaliyotini joriy etish ham belgilab qo‘yildi.

Farmon bilan kengashlar faoliyatini yanada takomillashtirish hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini qo‘llab-quvvatlash borasida 37 ta aniq tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligi esa bu boradagi ishlarni aniq va puxta tashkil etishga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, mahalla instituti bugun tom ma’noda jamiyat va davlat ijtimoiy hayotining eng jo‘shqin, faol, qaynoq va jonli maskaniga aylanib bormoqda. Mazkur farmon faqat xalqimizgagina xos bo‘lgan noyob va betakror ijtimoiy tuzilma – mahalla institutining faoliyatini, o‘rni va nufuzini yangi bir bosqichga ko‘tarilishida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

**O‘zbekiston «Mahalla» xayriya jamoat fondi jamiyatimizda ulkan ishlarni amalga oshirishga qodir bo‘lgan eng yirik tuzilmadir. Uning birgina 2016 yil 9 oylik faoliyatini o‘rganish bunga imkon beradi. Jumladan:**

“Mahalla” fondi tomonidan joriy yilning o‘tgan to‘qqiz oyi davomida bajarilgan ishlar haqida shuni aytish mumkinki, **“Solom ona va bola yili”** Davlat dasturi amda “Mahalla” fondi Ish rejasi ijrosini ta’minlash maqsadida muayyan ishlar amalga oshirilgan.

**Xususan,** Fondning asosiy maqsad va vazifalaridan biri bo‘lgan aholining tarixan tarkib topgan udum va an’analarini asrash va boyitishga har tomonlama



ko'maklashish borasida Mahallalarda fuqarolarning ma'rifiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, yosh avlodni milliy va ma'naviy qadriyatlar, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash kabi ijtimoiy va ma'naviy muhit barqarorligiga ijobiy ta'sir etuvchi **255 mingdan** ortiq tadbirlar tashkil etilgan.

**Jumladan**, mamlakatimizda olib borilayotgan isloxlarni, ayniksa sog'lom avlodga bo'lgan e'tiborni, Davlat dasturida belgilangan tadbirlarning mazmun-mohiyatini aholiga va yoshlarga etkazish maqsadida **18 mingdan** ziyod davra suhbatlari, uchrashuvlar va tushuntirish-targ'ibot tadbirlar o'tkazilgan.

**SHuningdek**, O'zbekistonteleradiokanalining "**Biz uchun muhim**" ko'rsatuvida «Mahallalarda va oilalarda sog'lom turmush tarzi va ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda YArashtirish komissiyalarining o'rni», "**Bu ham muhim**" ko'rsatuvida «Oila – Mahalla – ta'lim muassasasi» hamkorligini mustahkamlash masalalari», "**Uchburchak**" ko'rsatuvida «Mahallalarda voyaga etmaganlar va yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy etuk bo'lib voyaga etishlarida, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishda Voyaga etmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish masalalari», "**Munosabat**" ko'rsatuvida «Mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markaziga aylantirishda Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha komissiyalarning roli», kabi mavzularida **10 dan ziyod** ko'rsatuvlarni tayyorlash va tasvirga olish ishlarida ko'maklashilgan.

Mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida "Mahallamiz palvonlari", "Futbolimiz kelajagi" "Otam, onam va men – sportchi oila" kabi sport musobaqalari yuqori saviyada o'tkazilib, **50 mingga yaqin** voyaga etmaganlar va yoshlarga sport kiyim-kechaklari sovg'a qilindi. Ushbu maqsadlarga Fond hisobidan **920,8 mln.** so'm mablag'lar sarflangan.

Mahallalarda amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarni keng ommalashtirish hamda yig'in xodimlarini munosib rag'batlantirib borish maqsadida "Eng namunali fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari", "Fuqarolar yig'inining eng namunali diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi" ko'rik-tanlovlarining g'oliblari va respublika bosqichi ishtirokchilari munosib rag'batlantirilgan.

O'z vazifasini mas'uliyat va vijdonan bajarayotgan diniy ma'rifat va ma'naviy-axloiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilarning **8037 nafariga**, "Mahalla" posboni jamoatchilik tuzilmasi rahbarlarining **8039 nafariga** lavozim maoshi miqdorida mukofot hamda lavozim maoshining 50 foizi midorida moddiy yordamlar ajratilgan.

**SHu bilan birgalikda** Davlat dasturi doirasida maxsus internat-maktablari tarbiyalanuvchilari o'rtasida o'tkazilgan musobaqalarda ishtirok etgan **126 nafar** nogiron bolalarga Fond hisobidan **30,1 mln** so'mlik esdalik sovg'alar ajratilgan.

Etim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan, lekin boshqa qonuniy vakillari (vasiylari) bo'lgan va to'liq davlat ta'minotida bo'lmagan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilariga **eng kam oylik ish haqining yigirma baravari** miqdorida bir yo'la nafaqa berish bo'yicha Nizom talablari asosida **320**

**nafar** o'quvchilarga **833,5 mln.** so'm nafaqa mablag'g'lari berildi. CHekka va borish qiyin bo'lgan ishlo va tumanda yashovchi aolining ijtimoiy nochor atlamlarining **10 ming nafariga** kattalar va bolalar kiyim-boshi to'plamlari ajratilgan.

**Bundan tashqari**, "Mahalla" fondi tomonidan mahallalarda kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, urush va mehnat fronti faxriylari, yakka yolg'iz keksalar, nogironlarning **9790 nafariga** moddiy yordamlar ko'rsatilgan.

**Jumladan**, Fond hisobidan o'tgan davr mobaynida **93 nafar** oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan chin etim va nogiron talabalarning **191 mln** so'mlik, **426 nafar** yakka yolg'iz keksalar hamda boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga **121,3 mln** so'mlik, **219 nafar** urush va mehnat fahriylari uchun **102,6 mln.** so'mlik, **168 ta** tabiiy ofatdan jabr ko'rgan oilalarga **75,9 mln** so'mlik moddiy yordamlar ko'rsatilgan.

**SHuningdek**, fuqarolar yig'inlarining moddiy-texnika bazasini yanada mustakamlash borasida o'tgan 9 oyi davomida **2340 ta** Mahallalarga mebel jiozlari, **997 ta** Mahallalarga kompyuter jamlamalari olib berildi. **337 ta** Mahalla idoralari joriy, **179 tasi** qayta rekonstruksiya qilindi. **77 tasi** yangidan qurilib foydalanishga topshirildi. Ushbu maqsadlarda Fond hisobidan **10 mlrd. 205 mln.** so'm mablag'lar sarflangan.

Ayollarga psixologik, ma'naviy, huquqiy va tibbiy maslahat yordamlari ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan jamoatchilik asosidagi faoliyat yuritayotgan "Ayollar uchun maslahat markaz"lari moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga **300 mln.** so'm mablag'lar ajratilgan.

Davlat dasturi hamda "Mahalla" fondi Ish rejasida belgilangan tadbirlarning ijrosini ta'minlash maqsadida jami **19 mlrd. 687 mln.** so'm Fond mablag'lari sarflangan.

O'zbekiston Respublikasida 2016 yilda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Dastur doirasida **4 ta** normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqilib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritildi, **7 ta** ko'rik-tanlovlar, **5 ta** sport musobaqalari va **3 ta** o'quv-seminarlar o'tkazildi, **9 ta** uslubiy tavsiyalar va ommabop risolalar tayyorlanib, yakuniga etkazildi hamda **30 ga** yaqin bandedagi chora-tadbirlar amalga oshirildi.

**Xususan**, joriy yilning may-iyun oylari fuqarolar yig'inlari raislari va ularning maslahatchilari saylovi o'tkazildi, sport musobaqalari, anjumanlar va o'quv-seminarlar o'tkazildi, Mahalla nomlarini o'zgartirish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda hamda televediniyada, radioda bir qator eshitirish va ko'rsatuvlar tayyorlandi. Dasturning bajarilishi yuzasidan "Mahalla" gazetasi va "Mahalla" fondi veb-saytida **1500 dan** ortiq maqolalar chop etilgan.

**Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқаришнинг ҳудудий бирликлари тўғрисида  
МАЪЛУМОТ**

№	Ҳудудлар номи	Жами фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари сони	ШУНДАН:			
			Шахарча фуқаролар йиғинлари сони	Қишлоқ фуқаролар йиғинлари сони	Овул фуқаролар йиғинлари сони	Маҳалла фуқаролар йиғини сони
1	ҚҚР	402	15	0	141	246
2	Андижон	968	6	94	0	868
3	Бухоро	558	3	120	0	435
4	Жиззах	304	15	99	0	190
5	Наманган	881	15	96	0	770
6	Навоий	343	1	42	17	283
7	Самарқанд	1245	14	123	0	1108
8	Сирдарё	263	11	66	0	186
9	Сурхондарё	833	5	115	0	713
10	Тошкент в.	1160	15	152	0	993
11	Фарғона	1037	35	146	0	856
12	Хоразм	601	10	98	0	493
13	Қашқадарё	660	4	148	0	508
14	Тошкент ш.	505	0	0	0	505
<b>Жами</b>		<b>9760</b>	<b>149</b>	<b>1299</b>	<b>158</b>	<b>8154</b>

**«Маҳалла» фонди республика бошқаруви, ҳудудий бўлим ва бўлинмаларига 2016 йил 9 ойи давомида келиб тушган ариза ва шикоятлар тўғрисида  
МАЪЛУМОТ**

№	Ҳудудлар номи	Жами келиб тушган ариза ва шикоятлар	Ариза ва шикоятлар мазмуни														
			Моддий ёрдам сўраб мурожаат қилганлар	шундан:						шундан:				шундан:			бошқа мазмундаги ариза ва шикоятлар
				Фондан моддий ёрдам сўраганлар	Фуқаролар йиғини томонидан тайинланган нафаслар юзасидан	халқ таълим Фуқаролар йиғини томонидан тайинланган моддий ёрдам юзасидан	Фонд ҳодимлари хатти-ҳаракати устидан ёзилган шикоятлар	шикоят бўйича амалга оширилган тадбирлар	шикоят бўйича ҳолимга нисбатан қўрилган чоралар	аризачига жавоб берилган хатлар	Фуқаролар йиғинлари ҳодимлари хатти-ҳаракати устидан ёзилган шикоятлар	шикоят бўйича амалга оширилган тадбирлар	шикоят бўйича ҳолимга нисбатан қўрилган чоралар	аризачига жавоб берилган хатлар			
															сон	сон	
1	ҚҚР	703	681	649	16	16	0	0	0	0	3	3	1	3	19		
2	Андижон	1 794	1 543	1 203	191	149	8	7	0	8	104	100	2	104	139		
3	Бухоро	1 077	698	593	61	44	0	0	0	0	113	113	15	113	266		
4	Жиззах	769	576	389	97	90	1	1	0	1	26	16	10	19	166		
5	Наманган	3 233	2 535	2 024	371	140	5	5	2	5	68	68	14	68	625		
6	Навоий	1126	657	538	75	44	0	0	0	0	67	67	2	67	402		
7	Самарқанд	1 811	1 060	464	348	248	9	9	0	9	311	251	100	301	431		
8	Сирдарё	399	323	260	30	33	0	0	0	0	24	7	4	13	52		
9	Сурхондарё	2 395	1 471	497	696	278	12	0	0	12	176	175	30	176	736		
10	Тошкент в.	1 922	857	657	116	84	12	1	0	12	210	0	0	210	843		
11	Фарғона	1 687	1 103	1065	26	12	0	0	0	0	159	25	11	123	425		
12	Хоразм	1 018	847	706	87	54	0	0	0	0	38	12	0	38	133		
13	Қашқадарё	3 025	2 257	837	873	547	9	9	0	9	234	234	0	234	525		
14	Тошкент ш.	3 177	1 413	1 033	253	127	4	4	0	4	200	168	29	187	1 560		
	Рес. бош.	2 174	1 409	320	569	520	4	0	0	4	513	513	0	513	248		
<b>Жами</b>		<b>26 310</b>	<b>17 430</b>	<b>11 235</b>	<b>3 809</b>	<b>2 386</b>	<b>64</b>	<b>36</b>	<b>2</b>	<b>64</b>	<b>2 246</b>	<b>1 752</b>	<b>218</b>	<b>2 169</b>	<b>6 570</b>		


**“Оила-махалла-таълим муассасаси” ҳамкорлик механизмини кучайтириш бўйича тасдиқланган чора-тадбирлар мажмуасининг 2016 йил 3-чорақ давомида амалга оширилиши тўғрисида  
МАЪЛУМОТ**

№	Худуд номи	Жами ФЎЎБО сони	Худудий жамоат кенгашлари томонидан ташкил этилган тадбирлар сони	Шундан жамоат кенгашлари томонидан амалга оширилган ишларнинг кўрсаткичлари:			Шакллантирилган тарғибот гуруҳлари	Тарғибот гуруҳлари учун ташкил этилган ўқув семинарлари
				Таълим муассасаларида таълим-тарбия сифатини ўрганиш бўйича тадбирлар	Ўқувчиларнинг дарсга қатнаш даволатини узвий тахлили бўйича тадбирлар	Ўқиниға қатнамайдиган ўқувчилар, уларнинг ота-оналари билан тушунтириш ишлари		
1	ҚҚР	402	1818	665	765	388	298	63
2	Андижон	968	2247	473	943	831	71	33
3	Бухоро	558	4164	1 277	1 415	1 472	534	148
4	Жиззах	304	1724	695	591	438	266	37
5	Наманган	881	3180	1468	1229	483	769	78
6	Навой	343	3464	998	1217	1249	303	57
7	Самарқанд	1 245	18459	8 909	6 879	2 671	1 108	3 327
8	Сирдарё	263	1807	789	581	437	218	59
9	Сурхондарё	833	3331	1087	1118	1126	780	1148
10	Тошкент в.	1 160	8330	2 741	2 945	2 644	986	257
11	Фарғона	1 037	10666	3 608	3 704	3 354	1 032	132
11	Хоразм	601	6893	2 818	2 229	1 846	482	87
13	Қашқадарё	660	4522	1 795	1 477	1 250	660	105
14	Тошкент ш.	505	5170	1 614	1 697	1 859	505	184
<b>ЖАМИ</b>		<b>9760</b>	<b>75775</b>	<b>28937</b>	<b>26790</b>	<b>20048</b>	<b>8012</b>	<b>5715</b>

**Фуқаролар йиғинлари ҳузуридаги “Ота-оналар университетлари” тўғрисида  
МАЪЛУМОТ**

№	Худуд номи	Жами ФЎЎБО сони	“Ота-оналар университети” ташкил этилган ФЎЎБОларининг сони	“Ота-оналар университет”лари томонидан 2016 йил 9 ой давомида ташкил этилган тадбирлар сони	Шундан, ота-оналарнинг ёш авлоди тарбиялаш бўйича билимларини ошириш бўйича ўтказилган тадбирлар			Университет раҳбари томонидан йиғинга ҳисобот берилган ФЎЎБОлари сони
					Ҳуқуқий билимларини ошириш бўйича тадбирлар	Маънавий-ахлоқий билимларини ошириш бўйича тадбирлар	Физиологик билимларини ошириш бўйича тадбирлар	
1	ҚҚР	402	400	2665	939	902	824	378
2	Андижон	968	864	4568	1429	1919	1220	864
3	Бухоро	558	558	3796	1 263	1 302	1 231	558
4	Жиззах	304	285	1364	493	492	379	284
5	Наманган	881	769	3599	1195	1303	1101	787
6	Навой	343	303	7835	2625	2716	2494	303
7	Самарқанд	1 245	1 245	18894	6 646	9 754	2 494	1 245
8	Сирдарё	263	223	1739	420	846	473	223
9	Сурхондарё	833	698	3279	1058	1104	1117	768
10	Тошкент в.	1 160	986	8273	2 453	3 435	2 385	985
11	Фарғона	1 037	1032	9359	3 131	3 412	2 816	2 843
12	Хоразм	601	488	6183	2 392	2 009	1 782	482
13	Қашқадарё	660	660	4188	1 725	1 336	1 127	660
14	Тошкент ш.	505	505	3440	1 242	1 194	1 004	505
<b>ЖАМИ</b>		<b>9760</b>	<b>9016</b>	<b>79182</b>	<b>27011</b>	<b>31724</b>	<b>20447</b>	<b>10885</b>







Ҳудудий кенгаш ижро аппарати бошқаруви ходимларининг чекланган сони 11 — 13 нафар, жами 173 нафар.  
(техник ва хизмат кўрсатувчи ходимлардан ташқари)



Туман (шаҳар) кенгаш ижро аппарати бошқаруви ходимларининг чекланган сони 5 — 10 нафар, жами 1489 нафар.  
(техник ва хизмат кўрсатувчи ходимлардан ташқари)

**Фармонда маҳалла институтини янада такомиллаштиришнинг  
устувор йўналишлари этиб қуйидагилар белгиланди:**



фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг жамиятдаги ўрни ва ролини янада кучайтириш, уларни жойларда халқнинг чинакам маслакдоши ва кўмакдошига айлантириш;

жамиятимизда ўзаро ҳурмат, меҳр-оқибат ва ҳамжиҳатлик муҳитини шакллантиришда, миллий ва умуминсоний қадриятларни асраб-авайлаш ҳамда ривожлантиришда маҳаллаларнинг аҳамияти ва нуфузини янада ошириш

ёшларни маънавий бой ва жисмонан соғлом этиб тарбиялаш, уларнинг бандлигини таъминлаш, ёш авлодни мафкуравий таҳдидлардан ҳимоя қилиш, аҳолининг эҳтиёжманд қатламларини, кекса авлод вакилларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш борасида фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг давлат ва нодавлат ташкилотлари билан ўзаро ҳамкорлигини мустаҳкамлаш

жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлашда, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олишда, фуқароларда қонунга ҳурмат ҳиссини кучайтиришда маҳаллаларнинг бевосита иштирокини кенгайтириш

фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишнинг ҳамда улар фаолиятини мувофиқлаштиришнинг самарали механизмларини жорий этиш, маҳалла тизимида ягона ҳуқуқни қўллаш амалиётини таъминлаш

Mustaqillik davrida O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida qabul qilingan huquqiy-me‘yoriy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.11.2017 y. 944-son "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida mehnat munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori

2. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida mehnat munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risida Nizom (O‘zR VM 27.11.2017 y. 944-son qaroriga ilova)

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.11.2017 y. 940-son "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning dolzarb masalalarini hal etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari roli va faoliyati samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida"gi Qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.11.2017 y. 895-son "Fuqarolar yig‘inining mas‘ul kotibi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi Qarori

5. Fuqarolar yig‘inining mas‘ul kotibi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida Nizom (O‘zR VM 07.11.2017 y. 895-son qaroriga ilova)

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.08.2017 y. 620-son "Mahalla institutingning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat mulki ob‘ektlaridan samarali foydalanishni ta‘minlash to‘g‘risida"gi Qarori

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.08.2017 y. 621-son "Fuqarolar yig‘ini huzuridagi "Ota-onalar universiteti" jamoatchilik tuzilmasi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida"gi Qarori

8. Fuqarolar yig‘ini huzuridagi "Ota-onalar universiteti" jamoatchilik tuzilmasi to‘g‘risidagi Namunaviy nizom (O‘zR VM 11.08.2017 y. 621-son qaroriga ilova)

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.07.2017 y. 561-son "Fuqarolar vakillarining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.07.2017 y. 562-son "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori



11. Fuqarolar vakillarining faoliyatini tashkil etish to'g'risida Nizom (O'zR VM 31.07.2017 y. 561-son qaroriga ilova)

12. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Namunaviy nizom (O'zR VM 31.07.2017 y. 562-son qaroriga ilova)

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.07.2017 y. 500-son "Fuqarolar yig'inlari xodimlari mehnatiga YAgona tarif setkasi bo'yicha haq to'lashning razryadlarini belgilash to'g'risida"gi Qarori

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.07.2017 y. PQ-3132-son "Mahalla iftixori" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida"gi Qarori

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.02.2017 y. PF-4944-son "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

16. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar Dasturi (O'zR Prezidentining 03.02.2017 y. PF-4944-sonli Farmoniga 7-ilova)

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.03.2014 y. 47-son "Fuqarolar yig'inining "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori

18. Fuqarolar yig'inining "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi to'g'risida Nizom (O'zR VM 04.03.2014 y. 47-son qaroriga ilova)

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.12.2013 y. 328-son "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirishning tashkiliy tuzilmasi va tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori

20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.12.2013 y. 329-son "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tumanlar va shaharlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy kengashlarining namunaviy nizomlarini va tarkiblarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori

21. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari to'g'risidagi Namunaviy nizom (O'zR VM 14.12.2013 y. 329-son qaroriga 3-ilova)

22. Tumanlar va shaharlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari to'g'risida Namunaviy nizom (O'zR VM 14.12.2013 y. 329-son qaroriga 4-ilova)

23. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirishning tashkiliy tuzilmasi va tizimi to'g'risida Nizom (O'zR VM 14.12.2013 y. 328-son qaroriga 1-ilova)

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.10.2013 y. PQ-2050-son "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori

25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.10.2013 y. 274-son "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

26. Fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) guvohnomasi to'g'risida Nizom (O'zR VM 07.10.2013 y. 274-son qaroriga 11-ilova)

27. Fuqarolar yig'ini to'g'risida Namunaviy nizom (O'zR VM 07.10.2013 y. 274-son qaroriga 1-ilova)

28. Fuqarolar yig'ini huzuridagi taftish komissiyasi to'g'risida Namunaviy nizom (O'zR VM 07.10.2013 y. 274-son qaroriga 2-ilova)

29. Fuqarolar yig'inining voyaga etmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiyasi to'g'risida Namunaviy nizom (O'zR VM 07.10.2013 y. 274-son qaroriga 7-ilova)

30. Fuqarolar yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi faoliyati to'g'risida Nizom (O'zR VM 07.10.2013 y. 274-son qaroriga 12-ilova)

31. Fuqarolar yig'inining jamoatchilik nazorati va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha komissiyasi to'g'risida Namunaviy nizom (O'zR VM 07.10.2013 y. 274-son qaroriga 10-ilova)

32. Fuqarolar yig'inining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha komissiyasi to'g'risida Namunaviy nizom (O'zR VM 07.10.2013 y. 274-son qaroriga 5-ilova)

33. Fuqarolar yig'inining ma'rifat va ma'naviyat masalalari bo'yicha komissiyasi to'g'risida Namunaviy nizom (O'zR VM 07.10.2013 y. 274-son qaroriga 4-ilova)

34. Fuqarolar yig'inining tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalalari bo'yicha komissiyasi to'g'risida Namunaviy nizom (O'zR VM 07.10.2013 y. 274-son qaroriga 8-ilova)

35. Fuqarolar yig'inining xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiyasi to'g'risida Namunaviy nizom (O'zR VM 07.10.2013 y. 274-son qaroriga 6-ilova)

36. Fuqarolar yig'inining ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiyasi to'g'risida Namunaviy nizom (O'zR VM 07.10.2013 y. 274-son qaroriga 9-ilova)

37. Fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasi to'g'risida Namunaviy nizom (O'zR VM 07.10.2013 y. 274-son qaroriga 3-ilova)

38. Fuqarolar yig'inlarida ish yuritishni tashkil qilish va olib borish tartibi to'g'risida Nizom (O'zR VM 07.10.2013 y. 274-son qaroriga 13-ilova)

39. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.09.2013 y. 267-son "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori

40. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi to'g'risida Nizom (O'zR VM 30.09.2013 y. 267-son qaroriga 2-ilova)

41. Iqtisodiyot vazirligining 36-son, Moliya vazirligining 62-son, Davlat soliq qo'mitasining 2013-34-son "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha maslahat markazining namunaviy nizomini tasdiqlash haqida"gi 24.06.2013 y. Qarori (AV tomonidan 08.08.2013 y. 2499-son bilan ro'yxatga olingan)

42. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha maslahat markazining Namunaviy nizomi (AV tomonidan 08.08.2013 y. 2499-son bilan ro'yxatga olingan 24.06.2013 y. Iqtisodiyot vazirligining 36-son, Moliya vazirligining 62-son, Davlat soliq qo'mitasining 2013-34-son qarori bilan tasdiqlangan)

43. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.07.2013 y. 196-son "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori

44. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini mahalliy davlat hokimiyati organlarida hisobga olish to'g'risida Nizom (O'zR VM 10.07.2013 y. 196-son qaroriga ilova)

45. O‘zbekiston Respublikasining 02.09.1993 y. 915-XII-son "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida"gi Qonuni (YAngi tahriri)

46. O‘zbekiston Respublikasining 29.04.2004 y. 609-II-son "Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida"gi Qonuni (YAngi tahriri)

47. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 09.04.2013 y. "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori

48. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.07.2012 y. PF-4451-son "Fukarolarning o‘zini o‘zi boshkarish organlari xodimlari mexnatini ragbatlantirishga oid ko‘shimcha chora-tadbirlar to‘grisida"gi Farmoni

49. "Oila-mahalla-ta‘lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar Majmuasi (O‘zR VM 19.06.2012 y. 175-son qaroriga 3-ilo va)

50. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.06.2012 y. 175-son "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori

51. Toshkent shahar hokimining 29.03.2011 y. 175-son "Toshkent shahrida "Namunaviy mahalla" loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori

52. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 30.09.2008 y. 551-I-son "Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida"gi Qarori

53. Davlat mulkini boshqarish davlat qo‘mitasining 25.07.2008 y. 01/23-18/10-son "Korxonalar - Mahalla" iqtisodiy o‘zaro faoliyat va hamkorlik to‘g‘risidagi nizomni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish haqida"gi Qarori (AV tomonidan 13.08.2008 y. 808-1-son bilan ro‘yxatga olingan)

54. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 29.04.2004 y. 610-II-son "Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida"gi Qarori

55. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 26.01.2004 y. 590-II-son "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga saylov yakunlari to‘g‘risida"gi Qarori

56. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 06.10.2003 y. 544-II-son "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga saylov o‘tkazishni tashkil etish to‘g‘risida"gi Qarori

57. "Obod mahalla yili" dasturi (O‘zR VM 07.02.2003 y. 70-son qaroriga ilova)

58. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.02.2003 y. 70-son "Obod mahalla yili" dasturi to‘g‘risida"gi Qarori

59. Markaziy bank Boshqaruvining 16.03.2002 y. 6/1 (506)-son "Tijorat banklari tomonidan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini milliy valyutada kreditlash tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida"gi Qarori (AV tomonidan 18.04.2002 y. 1126-son bilan ro‘yxatga olingan)

60. Tijorat banklari tomonidan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini milliy valyutada kreditlash tartibi to‘g‘risida nizom (AV tomonidan 18.04.2002 y. 1126-son bilan ro‘yxatga olingan Markaziy bank Boshqaruvining 16.03.2002 yil 506-son qarori bilan tasdiqlangan)

61. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 09.04.2001 y. 200-II-son "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga saylov o‘tkazishni tashkil etish to‘g‘risida"gi Qarori

62. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.04.1999 y. 180-son "Jazoni o‘tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko‘rsatish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va hokimliklar huzuridagi maxsus komissiyalar, "Mahalla posboni" jamoat tuzilmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi yarashtirish komissiyalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi Qarori

63. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 14.04.1999 y. 759-I-son "YAngi tahrirdagi "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida"gi Qarori

64. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.01.1999 y. PF-2177-son "Aholini aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta‘minlashda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari rolini oshirish to‘g‘risida"gi Farmoni

65. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.04.1998 y. PF-1990-son "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida"gi Farmoni

66. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 17.10.1992 y. 480-son "Respublika "Mahalla" xayriya jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida"gi Qarori

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 23 aprelda e‘lon qilingan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. 2002 yil dekabrda “Obod mahalla yili” dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasini tuzish to‘g‘risidagi Farmoyishi.
4. 2003 yil 7 fevralda “Obod mahalla yili” Davlat dasturi to‘g‘risidagi qarorlari.  
2006 yil 25 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirishga doir 2007-2008 yillarga mo‘ljallangan harakat Dasturi to‘g‘risida”.
5. Maxalla: normativ– huquqiy xujjatlar to‘plami. – Toshkent: Star-Poligraf, 2007. – 22 b.
6. “YOsh oilalarni ijtimoiy qo‘llab – quvvatlashga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 30 apreldagi 124 – son Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Boshqaruvi akademiyasi tomonidan 2012 yilning 3 aprel kuni 07/1–453–sonli yuborilgan

murojaat xatiga O‘zbekiston Respublikasi IIV huquqbuzarliklarning oldini olish bosh boshqarmasining 2013 yil 16 aprelda yo‘llangan 26/1161 sonli javob xati.

8. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida (yangi taxriri). O‘zbekiston Respublikasining qonuni. 2013 yil, 22 aprel, 18-modda.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko‘maklashish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2013 yil 12 dekabrda PQ – 2085 - son qarori.

10. Fuqarolarning o‘zini – o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga oid qonun xujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2014. – 9 b.

11. “O‘zbekiston Respublikasida 2015 yilda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar” Dasturi.

12. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi “YOshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

13. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni// Xalq so‘zi, 2017, 8 fevral.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoevning 2017 yil 3 fevraldagi “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4944-sonli Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida 2017 yil 8 sentyabrdagi PF-5185-son Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Asarlar to‘plami, 1-23 jildlar.-T.: O‘zbekiston, 1996-2016.

2. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /SH.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. -56 b.

3. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.-104 b.

4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi 07-12-2016.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. -48 b.

5. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan

birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017.-491 b.

### **Monografiyalar, risolalar, maqolalar.**

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – T.: O'zbekiston, 2001 y.12-b.
2. Bo'riev O., Tursunov A., SHaropov X. O'zbek maxallasi: tarix va hozirgi zamon. – Toshkent: Tafakkur , 2016. – 19,25 b. t.
3. Jalilov SH. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. – 16 bet.
4. Inoyatova D. M. K istorii vozniknoveniya i funkcionirovaniya instituta maxalli v Uzbekistane // Sbornik nauchnykh trudov. – Tashkent, 2014.
5. Inoyatova D. M. Mahalla: the foundation of civil society in Uzbekistan.ASEES-CESS Joint Regional Conference Nazarbayev University, Astana, May 22-24, 2014, 107 r.
6. Inoyatova D.M. O'zbekistonda fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining tarixiy taraqqiyot bosqichi. Mahalla - fuqarolar o'zini o'zi boshqaruvi institutining noyob namunasi. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2016. – B.104-128.
7. Ismailova G. O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini liberallashtirishning davlat huquqiy yo'nalishlari. – Toshkent: Akademia, 2014. – 292 b.
8. Madaeva SH. O. Mahalla va milliy mentalitet. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2016. – 2 b.t.
9. Malikova G. R. Istoriko-pravovye voprosy razvitiya instituta maxalli. – Tashkent: Mashhur-press, 2016. – 11 b.t.
10. Mahalla – fuqarolar o'zini-o'zi boshkaruvi institutining noyob namunasi / Mas'ul muxarrir: R. X. Murtazaeva. Ilmiy to'plam: - Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2016.
11. Murtazaeva R. H. Mahalla - millatlararo totuvlik va bag'rikenglik maskani. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2016. – 4 b.t.
12. Musaev O. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. – Toshkent: Istiqlol nuri, 2016.
13. Nurmatova M. Mahalla – milliy qadriyatlar maskani. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2016. – 3,5 b.t.
14. Ro'ziev Z., Ismailova G. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining normativ-huquqiy tahlili. - Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2016. – 3,25 b.t.
15. Toshkent mahallalari: an'analar va zamonaviylik. – Toshkent: YAngi asr avlodi, 2002. – 6,8 b.t.
16. O'tamurodov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati. T.: Turon-zamin-ziyo. 2017.
17. Faynberg A. Uzbekskaya mahallya: traditsii, osnova gosudarstva i bezopasnosti // [http://www.centrasia.ru/newsA.php4?stq\\_1106777880](http://www.centrasia.ru/newsA.php4?stq_1106777880). 2005.
18. SHoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: SHarq, 2001. - 192-193 betlar.



19. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. - 473 bet.

**Internet ma'lumotlari:**

1. <http://www.press-service.uz>
2. <http://www.gov.uz>
3. <http://www.ziyonet.uz>
4. <http://www.edu.uz>
5. <http://www.nuu.uz>
6. <http://mahallafond.uz>
7. [www.nimfogo.uz](http://www.nimfogo.uz)
8. [www.huriyat.uz](http://www.huriyat.uz)